

**MIRZAYEVA DILFUZA SHAVKATOVNA**

**MAKTABGACHA PEDAGOGIKA  
OQUV QO'LLANMA**

Ushbu o'quv qo'llanma 5111800 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib unda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ta'lim-tarbiya berish yo'llarini, usullarini, qonun qoidalarini, mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari va o'tkazish metodikasi bo'yicha talabalarni nazariy bilim amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish masalalari yoritilgan.

**Mas'ul muharrir:**

**P.f.n dots, M.M.Tilavova**

**Taqrizchilar:**

**P.f.f.nPhD dotsent, R.A.Qo'ldoshev**

**p.f.n dotsent Sh.H.Samiyeva**

Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2022-yil 7 iyuldaggi 9-yig'ilish qaroriga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

## **Kirish**

Mamlakatimizda ta’lim tizimida davlat siyosati darajasiga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik sharofati tufayli barcha sohalarda bo‘lgani kabi mактабгача ta’lim soxasida ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Salohiyatga turli yo‘llar bilan erishish mumkin.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta’lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, manaviy-ma‘rifiy o‘zgarishlar ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali, zamonaviy kadrlar tayyorlash hamda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-2021 yillarga Mактабгача ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risidagi qarorlarida mактабгача ta’lim tizimini moddiy texnika bazasini mustahkamlash, mактабгача ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirish, mактабгача ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish va yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan edi.

Ta’lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g’risida”gi qonunning asosiy g‘oyalarida o‘z aksini topgan. “Ta’lim to‘g’risida”gi qonun<sup>3</sup>da uzlusiz ta’lim tizimining mактабгача ta’lim va tarbiya tizimida bolalarni o‘quv fanlari bo‘yicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga bo‘lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatları, amaliy tajriba va mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyani tarbiyachi pedagoglar amalga oshiradi. Har bir ota-onan o’z farzandining bilimdon, yuksak mahoratli, odobli pedagog-tarbiyachi qo‘lida ta’lim-tarbiya olishini xoxlaydi.

Jamiyat talabi darajasidagi tarbiyachi-pedagoglarni yetishtirish pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi zimmasiga tushadi. Mutaxassislik fani bo‘lgan Maktabgacha pedagogika fanining nazariy asoslari, ta’lim-tarbiya berishning tartib-qoidalari O‘rta Osiyo va jahon ma‘rifatparvar, mutafakkir olimlarning asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalashga asoslanadi.

“Maktabgacha pedagogika” fani orqali talabalar uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya ishlari mazmuni, uslublari, uni tashkil etish shakllari va bolalarni maktabga tayyorlashning samarali usullarini bilib oladilar.

“Maktabgacha pedagogika” fani bo‘yicha taylorlangan ushbu qo‘llanmada ana shu nazariy-metodologik asoslarga tayanilgan holda asosiy e‘tibor-maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari uning ilmiy tadqiqot metodlari, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash mazmuni, uslubi izchil va ketma-ketlikda yoritib berilgan.

## **1. MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING PREDMETI VA VAZIFALARI**

### **Reja:**

- 1.Maktabgacha pedagogika fani haqida umumiy tushuncha.
- 2.Maktabgacha pedagogika fanining predmeti va asosiy vazifalari.
- 3.Maktabgacha pedagogika fanining barkamol insonni tarbiyasidagi o‘rni.
- 4.Sharq va G‘arb mutafakkirlarning farzand tarbiyasi haqidagi ta’limotlari.
- 5.Maktabgacha pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

### **Tayanch tushunchalar:**

Uzluksiz ta’limning tarkibiy qismi, quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:  
maktabgacha ta’lim va tarbiya;  
umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;  
professional ta’lim;  
oliy ta’lim;  
oliy ta’limdan keyingi ta’lim;  
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;  
maktabdan tashqari ta’lim.  
maktabgacha ta’lim va tarbiya; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim; professional ta’lim;  
oliy ta’lim; oliy ta’limdan keyingi ta’lim;. Uzluksiz ta’lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi hisoblanadi.

### **Maktabgacha pedagogika fani haqida umumiy tushuncha.**

Insonni har tamonlama barkamol etib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyat qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish ularni komillikka yetaklash yo‘llarini izlaganlar. Bu esa pedagogika fanini maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki insonni ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi.

Pedagogika grekcha so‘z bo‘lib, 5«bola yetaklovchi» - ma’nosini bildiradi. Insonlarni ma’rifiy va ma’naviy barkamollikka munosabatlarni o‘zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o‘z mavqeiga ega bo‘ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o‘rin egallagan. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik

dining muqaddas kitobi «Avesto»da ta’lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan holda, uning ibodatxonalari qoshida maktablar tashkil etilib, kohinlar tomonidan bolalarning ta’lim-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. Bu ta’lim- tarbiya tizimi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: diniy va axloqiv tarbiya, jismoniy tarbiya, o‘qish vayozishga o‘rgatish.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganlar. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziyy, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid-Cho‘lpon, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug‘ olimu adiblar, fozilu-fuzalolar ta’lim-tarbiya borasida ko‘p asarlar bitganlar.

Sharq pedagogikasining asoschilari Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig» asari, Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub»i, Kaykovusning «Qobusnama»si kabi asarlar bunga dalildir.

Mazkur ta’limiy asarlarda inson shaxsini ma’naviy kamolga etkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirish mumkin, degan g‘oya ilgari surilgan. Haqiqiy bilimga asoslangan ta’limiy uslub shakllanadi.natijada ta’lim-tarbiya olimlar diqqat markazida bo‘ldi.

Farobiy ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida inson takomilida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritilgan. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Abu Rayhon Beruniyning bilimlarni egallash yo‘llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O‘quvchiga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik va hokazolarni e’tiborga olish kerakligini uqtiradi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi. Bu hozirgi zamon pedagogikasida e’tirof etiluvchi irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishining birinchi mezoni sanalgan bilim egallashga da’vat etadi.Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular etuk bo‘lмаган kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda boialarni engildan og‘irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar Yoshiga mos bo‘lishi, bilim

berishda bolani qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish, o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish kerakligini uqtiradi.

Pedagogik fikrni rivojlanishida rus pedagogi K.D.Ushinskiyning pedagogik, nazariy qarashlari «Inson tarbiya predmeti sifatida» degan mukammal asarida bayon qilib berilgan. «Ona tili», «Bolalar dunyosi» kitoblari barchaga yaxshi ma’lum bo‘lib, u ta’limning ko‘rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi. Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi, olimi Yan Amos Komenskiy (1592-1670)ning hissasi katta bo‘ldi. Uning «Buyuk didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. Undan tashqari «Onalar maktabi» degan maktabgacha tarbiya qo‘llanmasi va bir qancha kitoblari diqqatga sazovordir. Komenskiy o‘zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchani ilgari suradi. Pedagog bolani tarbiyalaganda, bog‘bon daraxtning biologik o‘sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi. Komenskiy o‘qishga hammaning tortilishini, hamma umumta’lim olishi kerakligini uqtiradi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganiga qadar ham biz maktabgacha tarbiya to‘g‘risida fikr yuritib kelganmiz. Bugun esa bu masalaga yangicha yondashmoqdamiz. Zero dasturimiz talablariga asosan maktabgacha ta’lim turi - bolani maktabga tayyorlash bilan birga, uni sog‘lom bo‘lib o‘sishini ta’minlaydi, muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangi tarmog‘i shakllanib bormoqda. Misol tariqasida maktabgacha ta’limning ko‘rinishlaridan biri «DMTTlari», «NDMTT» larini keltirish mumkin. Bolalarga xoreografiya, tasviriy va musiqa san’ati, kompyuter savodxonligini o‘rgatuvchi guruqlar soni kundan-kunga ko‘payib bormoqda. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 8-moddasi maktabgacha ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlanadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, 7 ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiyl o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni

boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorlarda ham belgilangan.

Bola tug‘ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunga qadar bo‘lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o‘rganish maktabgacha ta’lim pedagogikasining muvzuidir. U maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilaning tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi birligini, maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab ishidagi aloqadorlikni, boialarni maktabda o‘qishga tayyorlashni ta’minlab, ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta’lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi pedagogika fanlar tizimida uning ajralmas qismi bo‘lib shakllandi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasining nazariyasi va amaliyoti maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishning maqsadi, bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha tarbiyani hayot, zamon bilan bog‘lab olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatiga asoslanadi.

Pedagogika fani tarbiyani pedagogik hodisa sifatida o‘rganib, bir qator tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Pedagogikada tarbiya, ta’lim, ma’lumot asosiy tushunchalar hisoblanadi.

8

### **Maktabgacha pedagogika fanining predmeti va asosiy vazifalari.**

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umumiyligini qonuniyatlarini, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

Maktabgacha pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalaming jismoniy va ruxiy kamolotini tarbiyalash, ularga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Maktabgacha pedagogika tug‘ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganadi va maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, uslub va vositalar hamda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi. U maktabgacha ta’lim tashkilotlari, oila va maktab ishidagi izchillikni ta’minalaydi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi<sup>1</sup>.

Maktabgacha pedagogika umumiy pedagogikaning alohida sohasi bo‘lib uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, uslubiy asosi, tashkiliy shakl, uslub va vositalariga tayanadi. Maktabgacha pedagogikaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga yaxlit tarbiya berishning maqsadi hisoblanadi. Bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta’limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog‘liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaniladi.

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihatni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tibomi qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha didaktikos “o‘rgatuvchi”, didasko - “o‘rganuvchi”) ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlarini, tarbiyachi va tarbiyachi faoliyatlarini, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl, uslub, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari kabi muammolarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, uslub, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Maktabgacha pedagogika fanining *obyekti* - yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.

Maktabgacha pedagogika fanining *predmeti* - maktabgacha ta’lim- tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, uslub va vositalari.

### **Maktabgacha pedagogika fanining barkamol insonni tarbiyasidagi o‘rni.**

“Tarbiya”, “tarbiyalash” tushunchalarini tahlil etib ko‘radigan bo‘lsak, pedagogik adabiyotlarda bu so‘z odatda – ongli ravishda shaxsga (individual) uni biron-bir ijtimoiy rolni bajarishga tayyorlash uchun ijtimoiy ta’sir etish, buning uchun o‘sha shaxsda zarur bo‘ladigan sifatlarni paydo qilish “yaratish” tarzida ifodalanadi. Bunda tarbiya ishi bilan maxsus tuzilgan ijtimoiy muassasalar shug‘ullanishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra “tarbiya” va “ta’lim berish” tushunchalari yozilganda turlicha yozilsalarda, ammo ma’nosiga ko‘ra bir-biriga juda yaqin turadilar.

Hozirgi sharoitda insonga ijtimoiy muhit ko‘rsatayogan ta’sirini quyidagicha tasnif etish mumkin: hozirgi sharoitda insonga ijtimoiy muhit ko‘rsatayogan ta’sirini quyidagicha tasnif etish mumkin:

-birinchidan, har bir insonga bo‘lgan global ta’sir, ya’ni radio, televidenie, matbuot, kino va hokazolar orqali axborot almashinuvi;

-ikkinchidan, mamlakat va mintaqqa miqyosidagi ijtimoiy ta’sir insonni mavjud shart-sharoitlar doirasida inson dunyoga kelishidan to hayotdan ko‘z yumgunigacha o‘z orbitasida tutib turadi;

-uchinchidan, insonni avval boshidan o‘rab turgan mikromuhit – oila, maktab, ko‘cha va hokazolar o‘z ta’siriga oladi.

Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, inson shaxsning shakllanishidagi birinchi bosqich-oiladir. Oila bioijtimoiy sifatga ega bo‘lgan tuzilma sifatida jamiyatning barqaror va dastlabki bo‘g‘inidir. Oilada go‘dak ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglamagan holda o‘zlashtiradi va ular zamirida faolligini asta-sekinlik bilan oishirib boradi.

Tarbiya haqida tushuncha. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi. Yosh avlodni tarbiyalashda nimalarga e’tibor qaratmoq lozim? Bunday masalalarni hal etishda avvalo mamlakatimizda siyosiy-ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan islohatlar mohiyatini chuqr va atroflicha mushohada qilib

olishga to‘g‘ri keladi. Chunki davr ham, inson tarbiyasi ham o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, XXI asr insoniyat tarixida kompyuter davri bo‘lib kirib keldi.

Biroq, fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashuviga qanchalik samarali ta’sir etmasin, tarbiya nazariyasida shaxsni komil etib tarbiyalash, bu borada Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xalq pedagogikasi hamda jahon pedagogikasining ilg‘or fikrlariga tayanib ish ko‘rish zarur bo‘ladi. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma’naviy meroslari muhim dasturil amal ahamiyatiga ega bo‘ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buhoriy, Ahmad YAssaviy, Bahovuddin Nahshband, [Amir Temur](#), Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya maqsadi va vazifalari. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘sirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo‘lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko‘lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. [Maqsadsiz](#), ma’lum g‘oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo‘lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tarbiya maqsadi umumiyl va individual xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Ilg‘or pedagogika umumiyl va individual maqsadlar birligi va uyg‘unligini namoyon etadi. Tarbiya maqsadi umumiyl va individual xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Ilg‘or pedagogika umumiyl va individual maqsadlar birligi va uyg‘unligini namoyon etadi.<sup>11</sup> Jamiyat ma’naviyati va shaxs kamolotida muhim o‘rin tutuvchi ma’naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, ornomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus,

kasb-hunar hamda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va samarasi yotadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma’naviy-axloqiy, **jismoniy**, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo‘llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minalashga alohida hissa qo‘shadi. Maktabgacha pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish, ularni mакtab ta’limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:

- har tomonlama uyg‘un rivojlangan bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish;
- bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash;
- ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida ta’lim tizimini takomillashtirish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ularda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar faoliyati mazmunini asoslash.
- ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish;
- tarbiyachini maktabgacha ta’lim pedagogikagasiga oid bilimlar hamda ta’lim-tarbiya usullari bilan quollantirish;
- ta’lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minalashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish.

**Sharq va Garb mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi ta’limotlari.**

Jonajon O‘zbekistonimiz zaminidan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘sghan, umumjahon miqyosida e’tirof etilgan qanchadan-qancha buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalar yetishib chiqqan. Ajdodlarimizdan qolgan boy meros o‘zining o‘ta muhimligi va ilmiy salohiyati bilan hanuzgacha butun dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda. Vatanimiz tarixining ibrat olsa arzilik zarvaraqlarini xolisona o‘rganish va ana shunday meros namunalaridan foydalangan holda komil insonlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Komil inson tarbiyasiyada o‘zidan o‘lmas meros qoldirgan ajdodlar xazinasidan foydalanish bugungi kunning vazifalaridandir.

Darhaqiqat, ajdodlar merosi o‘zligimiz, ma’naviyatimiz, aslimizdir. Tarbiya muammolari, komillik va inson kamoloti masalalarini o‘z asarlarida dasturilamal qilgan ajdodlar ijodiga to‘xtalsak.

Hadisshunos olimlar ichida eng kuchlisi Imom al-Buxoriydir. Uning 20 dan ortiq katta va kichik kitoblari mavjud bo‘lib, ular orasidan “Al-jome’ as-saxix” alohida o‘rinda turadi. Imom al-Buxoriy o‘z asarlarida axloq-odob haqida fikr yuritar ekan, odamlarni ota-onani e’zozlashga, ular oldidagi o‘z burchlarini mukammal ado etishga da’vat etadi.

Inson sifatlari haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o‘lim keltiruvchi fojea deb qaraladi. U odamlarni to‘g‘ri so‘zli bo‘lishga, va’daga vafo qilishga chorlaydi. Munofiq kishining uchta belgisini ko‘rsatadi, ular: yolg‘on gapirish, va’daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan paxlavonlikda emas, balki jahil chiqqanda o‘zini tuta olishda, deb hisoblaydi.Oilaviy muhitning barqaror, tinch, oila a’zolarining sog‘-salomat, to‘q bo‘lishi, kichiklarga izzatda, kattalarga hurmatda bo‘lish ... kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uning asarlarida aks ettirilgan.

Hadisshunos alloma at-Termiziyy hadislarida odamlarni ahil bo‘lishga, jamoaga foyda keltirishga, do’stlik va birodarlikka da’vat etuvchi hadislar ko‘p uchraydi. “Barcha musulmonlar o‘zaro birodardurlar. Ular hech qachon bir-birlariga yomonlikni ravo ko‘rmasliklari kerak. Kimda-kim o‘zining musulmon birodariga

yordam qilsa, oxiratda Ollox unga yordam qiladi. Kimda-kim o‘z birodari hojatini yengillatsa, Olloh ham uning oxiratini yengil qiladi”.

Alloma, sog‘lom tanda sog‘ fikr bo‘ladi, degan xalq maqoliga amal qilib, yoshlikdanoq sog‘liqni saqlashga, vaqt ni bekor o‘tkazmaslikka da’vat etadi: “Ikki narsa borkim, ko‘pchilik ularning qadriga yetmaydi; biri sog‘lik, ikkinchi bo‘sh vaqt”.

Buyuk mutafakkir olimlardan yana biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy o‘z qarashlarida ta’limda talabaning shaxsiy kuzatishlariga katta e’tibor bergan. U sezgi orqali bilish – qisman bilish, mantiqiy bilishni esa haqiqiy bilish deb hisoblagan.

Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shgan. U insonni aqliy kamolga etkazishda ilm-fan va ta’lim-tarbiya birlamchi deb hisoblagan.

Abu Nasr Farobi esa komillikning asosiy mezoni jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning asosiy sifatlarini tuzib chiqqan.

Farobi fikricha, insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidir. Baxtga esa, deydi alloma, faqat foydali bilimlarni o‘zida jamlash orqali erishish mumkin. Chunki inson dil rohatining eng yuqori cho‘qqisi – bilim olish jarayonidir. Insonning deyarli barcha ijtimoiy sifatlari tashqi ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun kishining insoniy sifatlarini shakllantirishda maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya hamda tarbiyalanuvchining erkin tanlovi yetakchi o‘rin egallaydi, deydi Farobi.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy ta’limotida bilim oluvchilarga qalbingni yomon illatlardan, inson o‘zi sezishi mumkin bo‘limgan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, xirsdan, ochko‘zlikdan va shon-shuhratdan saqlashi lozimligini aytadi.

U barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda, deb bilgan. Bilimlarni o‘zlashtirishda kishida bilimga intilish, qiziqish va ijtimoiy muhit o‘rnini alohida ta’kidlaydi.

Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma’nosida ishlatib, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida shunday deydi: “Faxrlanish – haqiqatda yaxshi xulq va

oliy fe'llar oldin ketishi, ilmu-hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopliliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi”[\[2\]](#).

Beruniy inson kamolitida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi. Bu hozirgi ma’rifat, ilm-fanni ham e’tirof qiluvchi – irsiyat, ijtimoiy muhit va to‘g‘ri tarbiyadir. Shoir nazarida inson kamolga yetishining muhim omillari ko‘p bilimga ega bo‘lish va yuksak axloqiylikdir.

Ibn Sino boshqa mutafakkirlar kabi o‘zining komil inson to‘g‘risidagi qarashlarini falsafiy, ijtimoiy fikrlari bilan bog‘liq holda ifodalagan. Olimning ijodida “komil inson tarbiyasi to‘g‘risida”gi qarashlariga to‘xtalsak.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga erishishni da’vat etadi. Buning sababi shundaki, ilm-fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib, avlodlarga yetkazadi. Bu maqsadga yetishish uchun inson duch kelinadigan qiyinchiliklardan qo‘rmasligi zarur, deydi.

“Ey birodarlar: Odamlarning botiri mushkilotdan qo‘rqlaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir”<sup>2</sup>. Zero bilimli kishi jasur, o‘limdan ham qo‘rqlaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o‘rab turgan muhit alohida ahamiyat kasb etishini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishigina emas, balki uning xulqida ijobiy yoki salbiy jihatlarning tarkib topishiga ham ta’sir etishini uqtiradi. Shu bois ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyojkor bo‘lish, ularni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarur deb hisoblaydi.

Ibn Sinoning ta’lim-tarbiya va axloqqa oid qaysi asariga ahamiyat bermaylik bu asarlarning bugunga qadar barkamol avlodlarimizning ta’lim-tarbiyasida, ularning zamon talablariga javob bera oladigan dono, bilimli va kuchli bo‘lishlaridagi ahamiyati kattaligiga amin bo‘lamiz.

Yetuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib ta’limotida ham inson komilligi, kamoloti masalalari keng o‘rin olgan.

Olimning eng mashhur “Qutadg‘u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) ta’lim tarbiyaga oid, har tomonlama komil inson qilib tarbiyalaydigan yetuk ma’rifiy asari, pand-nasihatlari yoshlarni chin ma’noda komillikka yetaklovchi asardir.

Asarda axloqiy xislatlar insoniylik, rostgo‘ylik, ishonch, to‘g‘rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, insof, sodoqat, aql-zakovat, halollik ... kabilar ulug‘lanadi. Faxr va iftixor bilan ayta olamizki, jonajon zaminimizdan jahon sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo‘shtgan allomalar, faylasuf olimlar juda ko‘p yetishib chiqqan. Ularning merosidan foydalanib, milliy mentalitimizni, qadriyat u an’analaramizni, ma’naviyatimizni, insoniy go‘zal hislatlarimizni, tafakkurimizni, samimiyy dunyoqarashlarimizni yanada boyitish hamda o‘zlashtirish mumkin. Bu har bir qalb uchun faxrga aylansin!

Farobiy bilimidan ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm xikmatni o‘rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin». Bu fikrlardan Farobiyning ta’lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada aloxida e’tibor berganligi ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog‘i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro‘zg‘or tutish masalalari xususida ham so‘z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota-onan tarbiyachi bo‘lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama yakka suhbatga bo‘lish unga nasixat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. U qobil qizning tarbiyası haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘zlariga xos xususiyatiga e’tibor berishni ta’kidlaydi.Farzandlar tarbiyası nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina ularning noo‘rin hatti–harakatlariga berilishining oldi olinadi.Mirzo Ulug‘bekning oila muhiti sog‘lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota -onalar ayniqsa o‘qimishli ota- onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga aloxida e’tibor berishlari lozim.Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir–birlariga bo‘lgan ruxiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi.Voiz Al-Koshifiyning uqtirishicha insonni ta’lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobilyatni o‘stirish mumkin. Koshifiy o‘zining pedagogik qarashlaricha bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga aloxida e’tibor beradi. Ota-onalar muallimlardan bu masalaga alohida axamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o‘rin tutadi. Bola to‘g‘ri so‘zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbyalanishi kerak.Jaloliddin Davoniy ota onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to‘xtalgandi. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq - odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko‘maklashishi ilm – fan va kasb-hunar egallashining moddiy asosi bo‘lmish oziq – ovqat, kiyim – kechak, kerakli buyum va jixozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko‘rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslixiddin Sadi Sheroziy Sheroz shaxrida 1184 yilda tug‘ildi. Sa’diyning fikricha, oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U ma’suliyatli tarbiyachidir. Ota o‘z bolalarini tarbiyalashi, o‘qitishi, hunarga o‘rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak.

Sa’diyning pedagogik qarashida bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo‘lishi mumkin. Qobiliyat o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo‘lmasa, boladagi qobiliyat so‘nadi, tarbiyani 3 asosiy-aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo‘ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota – onalariga, ya’ni oilaviy tarbiyaga katta e’tibor beradi. Sa’diy ota–onalarga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, xarakter shakllangach, bolaga ta’sir etmaydi.

### **Maktabgacha pedagogika fanining tadqiqot metodlari.**

Metod (lotincha-metodas-yo‘l so‘zidan) tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so‘zi keng ma’noda muayyan maqsadga erishish yo‘lini, tor ma’noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi.

Ob’yektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani o‘rganish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Pedagogika fani o‘z mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o‘rganiladi.

Usul va metod tushunchalari o‘zaro bog‘liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Pedagogika fani o‘z mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullar bilan o‘rganadi.

Umuman, pedagogika amaliyotida o‘qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to‘plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o‘qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarligi darajasi va hokazolar hisobga

olinadi.

Ushbu ilmning ilmiy tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o‘qitishning real jarayonlariga xos bo‘lgan ichki yo‘llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to‘g‘ri tanlansa, ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi.

Mavjud metodlar (usullar) asosan quyidagilardir:

- 1.Adabiyotlarni o‘rganish metodi;
- 2.Kuzatish metodi;
- 3.Suhbat metodi;
- 3.Bolalarni ijodini o‘rganish metodi;
- 4.MTM hujjatlarini tahlil qilish metodi;
- 5.Eksperiment, tajriba-sinov metodi;
- 6.Test sinovlar metodi metodi;
- 7.Statistika ma’lumotlarni tahlil qilish metodi;
- 8.Matematika va kibernetik metodi;
- 9.Sotsiologik tadqiqot metodi.

O‘qitish metodi o‘qituvchi va bolalar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta’limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan ilmiy vazifalarni bajarishga qaratilgan yo‘ldir, degan edi professor R.A.Mavlonova. U o‘qish metodlariga quyidagi muayyan talablarni qo‘yadi:

- 1.O‘quv materialini o‘rganishning o‘qituvchi tavsiya etgan yo‘li fikrlashning dialektik-materialistik usuli mustaqil qa- rashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo‘lishi lozim.
- 2.O‘qish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo‘lishi zarur. Shundagina o‘qituvchi mazkur metod orqali qanday ma- salalar qo‘yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masa- lalarni hal qilib bo‘lmasligini ko‘ra oladi.  
19
- 3.O‘qitishning tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.
- 4.O‘qitish metodining tushunarligi: o‘qitishning yo‘li o‘quvchi uchun qabul qilinishi va qo‘llanishi, o‘quv materialini o‘rganishning usuli esa bilimlarni o‘zlashtirishning

imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi lozim.

5.O‘qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6.Bilimlarning puxtaligi va asosliligiga e’tibor.

7.O‘qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko‘zda tutadi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo‘yishni unga erishish bo‘yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘qituvchi tarbiyachi va bolalarning hatti-harakatlariga asoslangan pedagogik metod natijasida o‘quvchilar bilim, iqtidor va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, o‘z dunyoqarashini, tafakkurini va ma’naviyatini yuksaltirishga erishadilar.

Ta’lim-tarbiyaga taalluqli xatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usul hisoblangan.

Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika", K.D.Ushinskiyning "Inson tarbiya predmeti sifatida" asarlarida masalaga shunday yondoshishni ko‘rish mumkin.

O‘quv-tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosa chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan empirik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

### **Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlar**

Pedagogika fanining tarixiy taraqqiyotini o‘rgatuvchi va milliy istiqlol mafkurasini shakllantiruvchi hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar bor. Pedagogik muammolarni hal qilishda turli-tuman tadqiqot metodlari mavjud. Yuqorida keltirganimizdek, metod lotincha "metodos"- yo‘l so‘zidan olingan bo‘lib, ilmiy tadqiqot esa shu metodlar orqali nazariy, mafkuraviy, ilmiy, milliy va ijtimoiy hayot hodisalarini ularning qonuniyatlarini bilishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari olimlar tomonidan turlicha asoslab berilgan:

<sup>20</sup>

Akademik S.Rajabov tahriri ostidagi pedagogikada kuzatish, suhbat, hujjatlarini tahlil qilish, eksperimentlar metodi, statistika ma’lumotlarini tahlil va sintez qilish, anketalar, hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari asoslab berilgan. 1.F.Xarlamovning "Pedagogika" o‘quv qo‘llanmasida pedagogik kuzatish, suhbat, tajriba

eksperiment, maktab hujjatlarini o‘rganish, ilg‘or tajribalarni umumlashtirish, matematik hisoblash metodlari asoslab berilgan.

S.P.Baranov va boshqalar yaratgan "Pedagogika" qo‘llanmasida esa kuzatish, savol-javob, maktab hujjatlarini o‘rganish, eksperiment tajriba, modellashtirish metodlari berilgan. A.K.Munavvarov tahriri ostidagi “Pedagogika” o‘quv qo‘llan- masida kuzatish, suhbat, bolalar ijodini o‘rganish, test-so‘rovnomalari, maktab hujjatlarini tahlil qilish, matematika va kibernetika metodlari berilgan. Mavjud pedagogik darsliklarning deyarli hammasida metodlarni tavsiflab chiqishning bir xillik holati mavjud. Ilmiy tadqiqot faoliyatimizda bulardan foydalanish bizdan ijodiy yondoshishni talab qiladi. Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlarida biror pedagogik muammoni hal qilish maqsadida talaba, o‘qituvchi-tarbiyachi, aspirant-tadqiqotchi va ilmiy xodimlardan foydalanadilar. Ilmiy izlanishning dastlabki debochasi adabiyotlarni o‘rganib, tahlil qilishdan boshlanadi.

**Adabiyotlarni o‘rganish metodi**- Pedagogik adabiyotlarni o‘rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma’rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiyotiga, mafkurasiga va ma’naviyatga doir adabiyotlar, tadqiqot mavzusiga doir darsliklar, monografiyalar, risolalar va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik, psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o‘rganiladi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi.

**Kuzatish metodlari**-kuzatish adabiyotlarni o‘rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko‘zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning das-turi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqt, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko‘ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish-qisqa kuzatish obyektning kundalik faoliyatdagি o‘zgarishlaridan ma’Ium xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish-qo‘yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma’lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishni yakuniy qayd qilishda kinosyomka, video yozuvi, televideniye va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to‘g‘ri foydalanish o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

**Suhbat metodi**- tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida mas’ul shaxslar bilan og‘zaki savollar berilib, ulardan axborot olish

jarayonidir. So‘roqlar mavzu doirasida mantiqan mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo‘lishi lozim va uni to‘g‘ri yoki noto‘g‘rililiga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin. O‘rinli, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi.

**Pedagogik eksperiment** har qanday pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogik jarayonlarning ayrim elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlik va munosabatlari aniqlanadi. Pedagogik eksperiment ikki turga bo‘linadi: qayd qiluvchi va shakllantiruvchi. Qayd qiluvchi eksperiment orqali ta’lim yoki tarbiya jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanadi. Shakllantiruvchi eksperimentda esa zaruriy ma’lumotlar o‘quvchilarda shakllantiriladi. Pedagogik jarayonni aniqroq o‘rganish maqsadida eksperimental o‘zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma’lumotlarni, aniq sharoitlarni va o‘qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek., eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga oiishni talab etadi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperiment o‘tkazish va natijalarni sharhlash. Rejallashtirish, eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasiga ta’sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlash, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o‘tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o‘z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o‘tkazish belgilangan rejaga qat‘iy amal qilgan holda olib borilish kerak. Sharhlash bosqichida ma’lumotlar yig‘iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o‘tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berish uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak, ya’ni:

1.Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining aniq bo‘lishi,

2.Tadqiqot metodlarining ishonchliligi.

3.Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish.

Turli metodlarning o‘zaro qo‘sib olib borilishi pedagogik tadqiqotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematik metodlarning hamda hisoblash yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda, o‘rtacha arifmetik miqdor,<sup>22</sup>

modda, meridiana, dispersiya, tanlab olinadigan to‘plam majmuining o‘rtacha kvadratik chetga chikishi, o‘rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffentsentlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari amalda qo‘llaniladi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo‘llanilishidir. Mustaqil O‘zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to‘planib bormoqda. Biroq, ularni amaliy ishga joriy etish yo‘lida qiyinchiliklar ham borligi ko‘zga tashlanmoqda.

Bu qiyinchiliklar o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish haqidagi bilimlarning ortib borishi bilan ulardan foydalanishning faol imkoniyatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan iboratdir. Shunday bo‘lsada, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisno etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo‘lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo‘yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darjasи, ular mazmunining aniqligi pedagoglar bilan o‘quvchilarning mo‘ljallangan kuch-g‘ayrati mezonini to‘g‘ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun bir tadbirlar kompleksi bo‘lib, u olingan xulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni xabardor qilishni, yangi o‘quv va metodik qo‘llanmalar yaratishni, metodik yo‘l-yo‘riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

MTT hujjatlarini tahlil qilish metodi Pedagogik hodisalar va faktlarni tekshirishda hujjatlarini mukammal va chuqur o‘rganmoq lozim. MTT hujjatlarini tahlil qilishda ta’lim qonunlariga amal qilinmoq kerak. MTT hujjatlarini tahlil qilishda bolalarning ijodiy faolligi va mustaqilligini uning iqtidorini hamda ilg‘or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishini ko‘rsatgan taqdirdagina to‘liq qiymatga ega bo‘ladi.

Shuningdek, bolalarning umumiyl miqdori, uning o‘sishi yoki kamayishi sabablari tavsifi, rag‘batlantirish va jazolash chorralari turlariga, MTTning moddiy bazasiga e’tibor beriladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi bolalar ijodini hamda ularning turli-tuman ishlarini o‘rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir.<sup>23</sup> Iqtidorli bolalar aqliy qobiliyatları, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va omillarini chuqur bilishga hamda ularni yanada taraqqiy ettirish

va takomillashtirishning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatib berishga qaratilgan.

Statistik ma’lumotlarni analiz va sintez qilish metodi Pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma’lumotlarini ma’lum bir maqsad bilan tizimli o‘rganish, mustaqil O‘zbekistonda fan madaniyat, ta’lim-tarbiyani taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo‘sadi. Maktabgacha ta’lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag‘larning doimiy o‘sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali qurollar, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, mакtab qurilishi, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘lar *statistika usuli* orqali aniqlanadi.

Anketalar metodi - bolalardan so‘rash usuli bo‘lib, u bolalar jamoasining bilimlari to‘g‘risidagi kerakli ma’lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun hamda kasbga yo‘llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo‘lmog‘i lozim. Anketada ko‘zlangan maqsadga muvofiq savollar bo‘lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqishi ko‘zda tutiladi.

Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig‘ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqarish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatta, anketalar anketa ma’lumotlarni EHM da qo‘llab, matematik-statistik metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada aniqlik bilan shunday tahlil qilinishi pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bog‘lanishlari va bog‘liqliklarini aniqlashga yordam beradi.

Hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari hozirgi zamon ishlab chiqarishi, fani va texnikasining talab hamda manfaatlari turmushda sinalgan texnika vositalarini, hisoblash matematikasi va kibernetika usullarini maktab ishida va pedagogikada qo‘llanilishini talab qiladi. Pedagogik kibernetika shakli bilim berish jarayonini o‘qitish, bilim berish jarayonini boshqarishning alohida formasi sifatida o‘ziga xos xususiyatga<sup>24</sup> ega. Shuning uchun pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o‘rtasida katta farq bor.

Sotsiologik tadqiqot metodi anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo‘lgan munosabatlarni aniqlash, talabalar orasidagi do‘stlik

munosabatlarini aniqlash, o‘zi ta’lim-tarbiya olayotgan oliy o‘quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga, xususan, tasavvufga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma’naviy sifatlari darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta’minlanganlik darajasi, ilmiy va kasbiy mahoratni oshirishdagi mashg‘ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, ota-onalarning moddiy yordami, ularning ma’lumoti, ish joyi, talabalarning yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllantirishida ta’sir etuvchi omillar, ularning onglilik darajasi jarayoni, ma’naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tezroq qutulish kerak bo‘lgan salbiy sifatlarni aniqlashdir.

Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlarida, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limni talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlari ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish kabi masalalar pedagogik tadqiqoti asosini tashkil etadi

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

- 1.Pedagogika so‘zining ma’nosи va qaysи so‘zdan olingan?
- 2.Maktabgacha pedagogika fanining maqsadi vazifasi nimalardan iborat?
- 3.Maktabgacha pedagogika fani qaysи fanlar bilan bog‘liq?
- 4.Maktabgacha pedagogikaning ob’ekti va predmeti nimalardan iborat?
- 5.Maktabgacha pedagogika bola tarbiyasida qaysи xususiyatlarini hisobga olib boradi?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

#### **1.Maktabgacha pedagogika fanining maqsadi nimalardan iborat?**

- a)maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish
- b)o‘smirlarga tarbiya berish
- c)kichik yoshdagi bolalarga ta’lim berish
- d)axloqiy tarbiya berish

25

#### **2.Maktabgacha pedagogika qaysи fanlar bilan bog‘liq?**

- a)Falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya
- b)Matematika, fizika
- c) Kibernetika

d) Dialektik materialism

### **3. Pedagogikaning asosiy tushunchalari qaysilar?**

- a) Ma'lumot, ta'lim, tarbiya
- b) O'qish, o'qitis
- c) Qayta tarbiyalash
- d) O'z-o'zini tarbiyalash

### **4. Pedagogika fan sifatida qaysi jamiyatda shakllangan?**

- a) quldarlik jamiyatida
- b) ibtidoiy jamiyatda
- c) feodalizm jamiyatida
- d) sotsialistik jamiyatda

### **5. Maktabgacha pedagogika fanining obyekti nimadan iborat.**

- a) yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.
- b) umumi pedagogik jarayon.
- c) umumi pedagogikaning alohida sohasi
- d) maktabgacha jarayon

## **2. MAK TABGACHA TA'LIM TARIXI**

### **Reja:**

1. Maktabgacha pedagogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari.
2. Maktabgacha ta'limning tashkil topishi, O'zbekiston mustaqillikga erishgandan keyingi davrdagi maktabgacha ta'lim.
3. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv.
4. Maktabgacha ta'limga doir farmon, qaror va farmoishlarni sohaga keng tadbiq etish usullari.
5. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish haqida.

### **Tayanch tushunchalar**

Uzluksiz ta'lim - Milliy modelning tarkibiy qismi boiib, quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga

oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi; oliv ta'lim; oliv o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; mактабдан ташқари та'lim.

**Uzluksiz ta'lim** - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bolib, ta'limning barcha turlari, DTSni o'z ichiga oladi.

**Ilmiy daraja**-muayyan fan sohasidagi mutaxassisning ilmiy malakasi darajasi

### **Maktabgacha pedagogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari.**

Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi, olimi Yan Amos Komenskiy (1592-1670)ning hissasi katta bo'ldi. Uning «Buyuk didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. Undan tashqari «Onalar mакtabi» degan maktabgacha tarbiya qo'llanmasi va bir qancha kitoblari diqqatga sazovordir. Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. Pedagog bolani tarbiyalaganda, bog'bon daraxtning biologik o'sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi.

Maktabgacha ta'lim turi - bolani maktabga tayyorlash bilan birga, uni sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlaydi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Misol tariqasida oilaviy ta'limning ko'rinishlaridan biri «Davlat MTTlari», «Nodavlat MTT» larini keltirish mumkin. Bolalarga xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar soni kundan-kunga ko'payib bormoqda.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 8-moddasi maktabgacha ta'lim va tarbiyaga bag'ishlanadi. Maktabgacha ta'lim shaxsni sog'lom va yetuk qilib tarbiyalab, mакtab ta'limiga tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son<sup>27</sup> «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining ilk va

maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari tasdiqlandi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi O’RVM qarori 22.12.2020 yilda tasdiqlandi.Ushbu qarorning maqsadi Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta’lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaraish uchun chiqarildi.

Bola tug’ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunga qadar bo’lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o’rganish maktabgacha ta’lim pedagogikasining muvzuidir. U maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilaning tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishi birligini, maktabgacha ta’lim tashkilotsi va maktab ishidagi aloqadorlikni, boialarni maktabda o’qishga tayyorlashni ta’minlab, ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta’lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi pedagogika fanlar tizimida uning ajralmas qismi bo’lib shakllandi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasining nazariyasi va amaliyoti maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishning maqsadi, bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha tarbiyani hayot, zamon bilan bog’lab olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatiga asoslanadi.

Pedagogika fani tarbiyani pedagogik hodisa sifatida o’rganib, bir qator tushunchalarni o’z ichiga oladi.

### **Maktabgacha ta’limning tashkil topishi, O’zbekiston mustaqillikga erishgandan keyingi davrdagi maktabgacha ta’lim.**

Bugungi kunda jahoning ilg‘or mamlakatlarida ta’lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning pirovardida inson paydo bo‘lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya va o‘qitishni yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undalmoqda. Bunda yosh ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o‘zaro bog‘langan va harakatdagi tizimini yaratish e’tiborga molikdir. Bu tizimni o‘rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika

va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi.

Respublikamiz maktabgacha ta’lim tizimi sohasida ham ilg‘or xalqaro tajribalarni ommalashtirish, tizimda faoliyat ko‘rsatadigan pedagog xodimlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini taklif qilish, maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarini bajarish yo‘nalishlarini belgilab berish, maktabgacha ta’lim dasturlarini takomillashtirishga oid takliflarni ilgari surish, sohaga oid davlat siyosatini amalga oshirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalarni belgilab olishga e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tashklotdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta’limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta’mintoning pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olishni ta’minalashga imkon bermayapti.

O’lkamizda XIX asrning 80-90 yillariga kelib maktabgacha tarbiya tizimini vujudga keltirish g’oyalari yetila boshladi. O’sha davrda yashab ijod etgan ma’rifatparvar mahalliy ziyorilar ayollarning og’ir ahvoli va bolalar nazoratsizligini e’tiborga olib, bu masalaning yechimini izlay boshlaydi. Jumladan 1872 yilda Turkistonda tuzilgan “Jamiyati xayriya” tarkibiga kirgan ziyorilar vakillari tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, ilk tug’ruqxonalar bilan bir qatorda, ota-onasi bo’limgan bolalar uchun yetimxonalar (dastlabki bolalar uylari) tashkil etildi. Butun Turkiston bo’yicha 150-200 nafar bolani qamrab olgan ushbu yetimxonalarda ham yasli yoshidagi, ham maktab yoshidagi bolalar tarbiyalangan.

<sup>29</sup> 1891 yild “Bog’dorchilik” jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog’ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun “Bolalar maydonchasi” ko’rinishida birinchi bolalar bog’chasi ochilgan. Bolalar bog’chasi uchun istirohat bog’i hududidan sersoya joy ajratib berilgan bo’lib, bu yerda arg’imchoqlar, qayiqlar o’rnatalgan, turli o’yinchoqlar tayorlangan. Bundan tashqari,

maydonchada kattagina gulzor tashkil etilib, bu yerda bolalar o'simliklarni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Ammo 1891-1903 yillar mobaynida mablag' taqchilligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan.

1896 yilda Turkistonda vasiylar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasli"lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yasli ishlarini Nazoratchi-uslubchi ayol boshqargan, shuningdek, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasalarga bolalarga o'qish, yozish, sanash bilan bir qatorda, talay hunarlar ham o'rgatilgan. Biroq, butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50-60 nafar boladan oshmagan.

Bundan tashqari, mahalliy ziyolilarning sayr-harakati bilan kambag'allarning bolalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Namanganda yetimxonalar (bolalar uylari) tashkil etilgan.

1903 yil fevral oyida Toshkentda "Oilaviy ta'lim-tarbiyaviy to'garagi" tashkil qilingan. To'garak nizomida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- 1)bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda oilalar va ota-onalarga yordam berish;
- 2)pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilar (oila, mактаб va bolalar bog'chasi faoliyatining o'zaro mushtarakligini ta'minlash maqsadida) faoliyatini muvofiqlashtirish.

Bu to'garakda maktabgacha ta'lim sektiyasi ham faoliyat ko'rsatgan. Ta'lim-tarbiya to'garagi yuzaga kelgunga qadar bolalar bog'chasining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogik tizim mavjud bo'limgani sababli bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan masalalar to'garak a'zolari o'rtaida muhokama qilingan. Ana shu to'garak doirasidagi tarbiya muassasalarida bolalar birinchi marta 4-6 yoshgacha va 6-10 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruxlariga bo'linib, mashg'ulotlar, jumladan, harakatli o'yinlar, xor bo'lib qo'shiq kuylash, o'qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlari muayyan jadval asosida olib borilgan. E'tiborli jihat shundaki, mazkur to'garak doirasidagi ayrim bolalar bog'chalarida ota-onalar talabi bilan frantsuz va nemis tillari tekin o'rnatilgan.

Ta'lim-tarbiya to'garagi bolalar bog'chasidagi ta'lim tarbiya saviyasini oshirishga yordam bergan bo'lsada, maxsus tayorgarlikka ega bo'lgan tarbiyachilar bo'limgani sababli tarbiyaviy jarayon ko'pincha betartib amalga oshirilgan.  
<sup>30</sup>

1909-1910 yillar va undan keying davrlarda o'lkaning ayrim shaharlarida xususiy

bog'chalar paydo bo'ldi: bu bog'chalarda 6 yoshdan boshlab asosan gimnaziyaga o'qishga tayyorlanar edi. Bunday bolalar bog'chalari xususiy uylarda ochilgan va to'liq ota-onalar ta'minotida bo'lган.Ta'lim-tarbiya ishlariga chet tillarni biladigan o'qimishli ayollar jalb etilgan.Ammo mazkur bolalar bog'chalarida asosan badavlat ota-onalarning farzandlari tarbiyalangan.

### **Ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi**

Ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi asosan 1917-1918 yillardan keying davrlarga to'g'ri keladi. Jumladan,Xalq maorifi komissarligi 1917 yil 20 noyabrdagi deklaratsiyasida mamlakatda davlat tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish, soha xodimlarini tayyorlash vazifasi kun tartibiga qo'yiladi.

1918 yilda Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi tashkil etiladi.Uning zimmasiga bolalar bog'chalari uchun joy qidirish va ularni kerakli jihozlar bilan ta'minlash, tarbiyachilar tanlash va ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashvoqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi.Maktabgacha ta'lim xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi.

1919 yilda qabul qilingan davlat dasturida xalq maorifi komissarligi qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi tashkil etiladi. Uning zimmasiga bolalar bog'chalari uchun joy qidirish va ularni kerakli jihozlar bilan ta'minlash, tarbiyachilar tanlash va ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi.

Maktabgacha ta'lim xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi.

### **Turkistonda bolalar bog'chasining tashkil etilishi.**

Turkistonda dastlabki davlat bolalar bog'chalari 1918 yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi.1918 yil 20 oktyabrda Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi, viloyat xalq maorifi bo'limlarining qoshida maktabgacha ta'lim bo'linmalari tashkil etildi. "Maktabgacha ta'lim bo'limi to'g'risi" dagi nizomda mazkur bo'limlar 3 yoshdan 8 yoshgacha bo'lган maktabgacha bolalar tarbiya muassasalariga rahbarlik qilishga, ularning faoliyatini nazorat etishga, yangi bolalar bog'chalari, yaslilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumi yotoqxonalar, yozgi oromgohlarning ochishga, ushbu muassasalar uchun kadrlar taylorlash maqsadli kurslarini tashkil qilishga mas'ul ekani qayd etilgan.

Ushbu bo’limlarning uch asosiy yo’nalishda faoliyat yuritishi nazarda tutilgan:

- 1)bolalar bog’chalarini ochish, ularni binolar bilan ta’minalash;
- 2)maktabgacha ta’lim xodimlari, shu jumladan, mahalliy ahvoli vakillaridan kadrlar tayyorlash;
- 3)ota-onalar o’rtasida tashviqot-targ’ibot va tushuntirish ishlarini olib boorish.

Bu o’rinda o’lkada mahalliy aholi bolalarini maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda kechganini ta’kidlash joiz.

1918 yilda Toshkentning eski shahar qismida o’zbek bolalari uchun atigi 4 ta bog’cha ochilgan, xolos (xususan, birinchi bog’cha – Shayxontoxur dahasida, ikkinchi bog’cha-Xo’ja ko’chasida, uchinchi bog’cha-Ko’kcha dahasidagi Langar ko’chasida, to’rtinchi bog’cha-Beshyog’och dahasida ochilgan).Bunday muassasalar Samarqandda (2ta bolalar bog’chasi va 3 ta bolalar uyi) va Kattaqo’rg’onda ham tashkil etilgan.

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog’chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog’cha va 12 ta bolalar maydonchalari tashkil etilib, ulardan 4 tasi o’zbek va boshqa mahalliy millatlar bolalari tarbiyalangan.O’sha davrda maktabgacha ta’lim muassasalariga jami 6394 bola qamrab olingan.1921 yilga kelib bolalar bog’chalarini soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 32 taga yetgan. Bolalar bog’chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 nafar bolani tashkil etgan, ulardan 2000 dan ziyodigina mahalliy millat farzandlari edi.

1937 yil 3 mayda qabul qilingan “Bolalar bog’chalarini to’g’risi”dagi qarorda “Qaramog’ida bolalar bog’chalarini bo’lgan xo’jalik tashkilotlari va muassasalarini zimmasiga tegishli ittifoqdosh respublikalarning Sog’liqni saqlash va Xalq maorifi komissarliklari tomonidan bolalar bog’chalarini sanitariya-gigiyena qoidalari, binolar, jihozlar, qo’llanmalar, ko’rgazmali vositalari bilan ta’minalash, bolalarni ovqatlantirish va ularga tibbiy yordam xizmati ko’rsatish yuzasidan belgilangan me’yorlarga rioya qilish vazifasi yuklansin”, deb ta’kidlangan.

Jumladan, Sog’liqni saqlash xalq komissarining buyrug’iga asosan:

<sup>32</sup>-bolalar bog’chalariga shifokorlarni biriktirish v akamida 100 ta bola tarbiyalanayotgan har bir bolalar bog’chasiiga bitta hamshira bilan ta’minalash, bolalar poliklinika va ambulatoriyalari hamda umumi poliklinika va ambulatoriyalarining bolalar bo’limlari tashkil etib, bolalarga tibbiy yordam ko’rsatish;

- bolalar bog'chalarini birinchi yordam dori-darmonlar bilan ta'minlash;
- musiqa mashg'ulotlarini olib boradigan xodimlar oylik maoshi uchun mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda bolalar bog'chalari va bolalar maydonchalarining tarmog'i deyarli ikki barobar ko'paydi.

1944 yil 1yanvariga kelib, maktabgacha ta'lif muassasalarida tarbiyalanuvchilarning umumiy soni 54 ming nafarni tashkil etdi.

Xalq maorifi komissarlari kengashining "Maktabgacha ta'lif muassasalarini yanada rivojlantirish, bolalarni tarbiyalash va ularga tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash choralar to'g'risida"gi 1959 yil 21 may qarorida quyidagilar nazarda tutilgan: maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona tizimini shakllantirish maqsadida, mahalliy sharoit va imkoniyatlarni e'tiborga olib, maktabgacha ta'lif muassasalarining ikki turi-yasli va bolalar bog'chasini yagona maktabgacha ta'lif muassasasi sifatida tashkil etish va ularga xalq maorifi komissarligi rahbarlik qilishi belgilab qo'yilgan;

- bundan buyon barcha turdag'i maktabgacha ta'lif muassasalariga bolalar turar joylarini yaqinlashtirish maktabgacha ta'lif muassasalari namunaviy loyixa asosida qurilishi;
- ittifoqdosh respublikalarda maktabgacha ta'lif muassasalari to'g'risida nizom ishlab chiqish;
- pedagogika fanlari va tibbiyot akademiyalari bilan birgalikda maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish;
- tabiyachilar va tibbiy yordam xodimlarini taylorlash;
- bolalarni ovqatlantirish va maktabgacha ta'lif muassasalarini jihozlar bilan t'minlash;
- bolalar bog'chasiga qatnamaydigan bolalar uchun bolalar istirohat bog' va xiyobonlarida, hovlilarda maydonchalar tashkil qilish va ularni jihozlash ishlari tashkil etish
- aholi o'rtasida ma'ruzalar o'qish, suhbatlar o'tkazish, ommaviy-ilmiy adabiyotlarni ko'p nusxada nashr etish;
- bolalarni tarbiyalash va ularning sog'lig'ini saqlash masalalarini yorituvchi badiiy adabiyotlar nashr etish, <sup>33</sup> kinofilmlar yaratish, radio, televideniye eshittirishlarini kehgaytirish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan.

Albatta, mustabid tuzum davrida ta'lif-tarbiyaning mazmun-mohiyati haqida so'z borganda, uning dastlab chorizm, keyinchalik sho'rolar mafkurasiga to'liq bo'ysundirilgan,

milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimiz poy-mol etilgan, xalqimiz, shu jumladan, farzandlarimiz ongiga yot g'oyalarni singdirishga harakat qilingan. Lekin prezidentimiz haqli ravishda ta'kidlanganidek: "Nohaqlik va zo'ravonlik hukmron bolgan shunday zamonlarda ham yurtimizdan millat va xalq qayg'usi bilan yashagan chinakkam vatanparvar insonlar yetishib chiqdi". Bu o'rinda jaded bobolarimizning ma'rifat ila jamiyatimizni taraqqiy ettirish, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish borasida ezgu sa'y-harakatlarini tilga olish joizdir.Ular ayovsiz qatag'on etilgan bo'lsa ham, orzu-intilishlari zoye ketmadi.Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ularning orzu-armonlari ro'yobga chiqdi.Istiqlol yillarida yurtimizda dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan zamonaviy milliy ta'lim tizimi yaratildi.

### **Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv.**

Mustaqillik yillarida ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo`nalishi darajasiga ko`tarilgani natijasida mamlakatimizda noyob, uzlusiz ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Biz shunday sharoitda zamonaviy, teran fikrlaydigan intellektual va madaniy-estetik qadriyatlarga o`zining mukammal bilimi va tajribasi nuqtai nazaridan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashni bosh maqsadimiz deb bilar ekanmiz, buning mas`uliyatini astoydil his qilish bizning oldimizda turgan ham murakkab, o`z o`rnida sharaflı vazifa ekanligini unitmasligimiz talab etiladi.

Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma`naviy mezon va qarashlar-yaxshilik, ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi tushunchalarining poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shunday ekan, biz oiladan boshlab bolalarga Vatan oldidagi burchi, ota-oni oldidagi vazifasi, odamiylik fazilatlarini o`rgatishni e`tiborga olsak, aynan shu davrda bola qalbida va ongida oiladagi va maktagacha ta'lim muassasasidagi muhit ta`sirida ma`naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo`la boshlaydi.

Ta`limning poydevori qo`yiladigan dastlabki bo`g'ini hisoblanmish, maktabgacha ta'limda bola bolani sog`lom, har tomonlama kamol topib shakllanishi ta`minlanadi, bolada o`qishga intilish hissi uyg`onadi, uni muntazam ta`lim olishga tayyorgarlik jarayoni amalga oshiriladi.

MTT tarbiyalanuvchilarining ongida g`oyaviy bo`shliq paydo bo`lishiga yo`qo`ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo`shadigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo`lidagi dolzarb vazifalarni amalga

oshirish, maktabagacha ta`lim muassasalarida tashkil etilayotgan ta`lim-tarbiya jarayonlarining barcha jabhalarini qamrab olishi zarur bo`lib, mazkur jarayonda o`rganilayotgan tushunchalarga nisbatan tarbiyalanuvchining qiziqishini shakllantirish va rivojlantirishda ularning faolligini oshirishni ta`minlash aynan pedagoglarning zimmamizdagi muhim vazifa hisoblanadi.

Zero, Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, Ta`lim O`zbekiston xalqi uchun yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O`sib kelayotgan yosh avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo`ladi, uning qobiliyati uzluksiz rivojlanadi, kattalar tajribasidan oziqlanib voyaga yetadi. Pedagogning bilimi, mahorati qizg`in mehnati barkamol avlodni tarbiyalashga, ularda fayllik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi hislatlarini va ma`naviy ongini shakllantirishga qaratilgan. Aynan bugun tarbiyachi-pedagoglarning mustaqil izlanishi va o`z ustida tinimsiz ishlashi kechiktirib bo`lmaydigan talablardan biri ekanligi bizga a`yon.

Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarga tarbiyaviy ta`sir o`tkazish natijasida o`z vaqtida o`zini anglash hissi vujudga keladi. Bolada o`zini anglash tuyg`usi qancha erta uyg`onsa, uning barcha aqliy, ruhiy, ijtimoiy imkoniyatlarini baholash va his etish tez namoyon bo`ladi. Har qaysi davrda bola rivojlanishining o`ziga xos qulay holatidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bolalarning asosiy faoliyati o`yin hisoblanishini inobatga olgan holda biz ta`lim-tarbiya jarayonini albatta o`yin tarzida tashkil etmog`imiz zarur. O`yinning har qaysi turi bolalar dunyoqarashini tubdan o`zgartiradi va ularni fikrlashga chorlaydi. Ularni mashg`ulotda olgan bilimlarini real holatda o`z shaxsiy tajribasiga tayanib amaliyotda qo`llashlari uchun imkoniyat yaratadi, ularda bilish jarayonlari faoliyati tezlashuvini tartibga solish uchun xizmat qiladi. MTTlarga borib bolalar faoliyatini kuzatish jarayonimizda tajribalarimiz shuni ko`rsatdiki, biz o`yinlarni olib borishda quyidagi talablarga rioya qilishimiz zarurligini ham unitmasligimiz zarur:

1. Tanlangan o`yinlar tarbiyalanuvchilar yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi.
2. Har bir o`yin pedagogig-psixologik jihatdan asoslangan bo`lishi.
3. Bir xil o`yinlarni ko`p marotaba takrorlamaslik.
- 4.O`yinning ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi jihatlariga e`tibor qaratish.

5.O`yin jarayonida faol ishtirok etgan bolalarni rag`batlantirish.

2016-yil 29-dekabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021-yillarda Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida» gi qarori hamda, maktabgacha ta`lim muassasasi faoliyatini tartibga solish uchun bevosita xizmat qiluvchi 2018 yilda «Ilk qadam» o`quv dasturi va takomillashtirilgan ikkinchi nashri 2022 yilda chiqarildi. Mazkur hujjatlar uzluksiz ta`lim tizimining ilk bo`g`inini yanada takomillashtirish va yangi bosqichga ko`tarishga, bolalarimizni sog`lom va barkamol bo`lib voyaga yetishlari uchun xizmat qiladi. Yuqorida aytib o`tilgan fikrlarimizdan ham ko`rinib turibdiki, bu faoliyat bizni o`z vazifa va maqsadlarimizga erishish uchun jiddiy yondashishga undaydi. Zero, O`zbekiston kelajagi biz tarbiyalayotgan yosh avlodning yuksak kamoloti, aqlu zakovatiga bog`liq.

### **Maktabgacha ta`limga doir farmon, qaror va farmoishlarni sohaga keng tadbiq etish usullari.**

Aytish kerakki, bu o`ta muhim va dolzarb vazifalarni tez va sifatli bajarish Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning doimiy e`tiborida bo`lmoqda. 2017 yil 9 sentabr kuni qabul qilingan “Maktabgacha ta`lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ushbu fikrimizning amaliy ifodasidir.

Qarorda maktabgacha ta`limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o`quv jarayonini takomillashtirish, MTTlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta`minotini yaxshilash bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Unga ko`ra, maktabgacha ta`lim tizimini tanqidiy o`rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo`yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta`lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo`shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag`batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to`sinqilik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o`rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan.

Ayniqsa, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o‘rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

2018 yil 1 yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilishi ham sohada o‘ziga xos yangilik, deyish mumkin. Buning uchun investorlarga yer uchastkalari, bo‘sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratildi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodning barkamol va etuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish haqida.**

E’tirof etish joizki, ta’lim tiziminining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limda jadal o‘zgarishlar yuz bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim Konsepsiyasida<sup>1</sup> ular quyidagicha izohlanadi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining xuquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yangi turlariga o‘tmoxda;
- nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i kengaymoqda;
- ta’limning ilg‘or texnologiyalari joriy etilmoqda;
- xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;

-qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Moliya institutlari ishtirokida investitsion loyihamalga oshirilmoqda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion va tajriba-sinov ishlari sezilarli darajada kuchaymoqda. Biroq ushbu jarayonlarga muvofiqlashtirish, yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatish uchun uning keng qamrovli natijalarining monitoringi asosida samaradorlik darajasini aniqlab borishning optimal mexanizmini ishlab chiqish, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar ham maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi ta’lim jarayoni va uning samaradorligini ta’minlash yo‘nalishidagi maxsus tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi. Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darjasini hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari tashkil etildi. Tahlil mamlakatimizda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini tizimida sog‘lom, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilganligini ko‘rsatdi. Hozirgi zamon talablari va standartlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishga, ularni qayta qurish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, Davlat byudjetidan moliyalashtirishga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Oxirgi yilarda ajratilgan mablag‘larning hajmi 2 baravar ortdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darjasini hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari ushbu sohada bir qator foydalanilmagan imkoniyatlar va ishga solinmagan zaxiralar mayjudligini ko‘rsatdi.

<sup>38</sup>

Maktabgacha ta’lim o‘zining shakl va usullaridan qat’iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog‘ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;

- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;
- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda mакtabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta'minlashi lozim.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiyligi rivojlanish ta'minlanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko'nikma va faoliyatning turli ko'rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi.

Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagining bolalarning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta'lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

- 1.Mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
- 2.2017-yil 9-sentabr qanday qaror qabul qilingan?
- 3.Qarorda qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan?
- 4.Maktabgacha ta'lim konsepsiyasida qanday o'zgarishlar yoritib berilgan?
- 5.Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar qanday vazifalarni bajarishi lozim?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**

#### **1.Maktabgacha yoshning xususiyati nimadan iborat?**

- a)umumiyligi rivojlanish ta'minlanadi
- b)kelajakda bilim,malaka va ko'nikmalarning <sup>39</sup> har qanday ko'rinishlarini egallash uchun poydevor
- c)faqat ruhan rivojlanadi
- d)a va b javoblar to'g'ri

**2.Qachondan boshlab Toshkent, Nukus shaharlarida eksperiment tariqasida davlat xususiy sherikchilik shartlarida yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etildi?**

- a)2019-yil 1-yanvar
- b)2018-yil 1-yanvar
- c)2019-yil 6-yanvar
- d)2018-yil 1-fevral

**3.Bolalar ni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishga nimalar imkon bermayapti?**

- a)moddiy-texnik bazaning nochorligi
- b)malakali kadrlarning yetishmasligi
- c)sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi
- d)a,b,c javoblar to'g'ri

**4.Bolalar ning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida qanday tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim?**

- a)ijodiy
- b)insonparvarlik,hamkorlik pedagogikasi
- c)a va b javoblar to'g'ri
- d)faqat mehnatsevarlik

**5.Maktabgacha ta'lim tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda,ushbu ishlar qaysi hujjatda izohlangan?**

- a)Maktabgacha ta'lim konsepsiyasida
- b)"Ilk qadam" dasturida
- c)Prezident qarorida
- d)to'g'ri javob yo'q

**3.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'grisidagi qonuni".**

40

**Reja:**

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uning turlari.
- 3.Maktabgacha ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini.

## **Tayanch tushunchalar:**

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

### **“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning mazmuni**

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Ta’lim to‘g‘risida, qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan. Bu qonun 11 ta bob 75 ta moddadan iborat.

1-modda umumiyligida qoidalar: ushbu qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

-davlat akkreditatsiyasi — davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

-davlat ta’lim muassasasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

-davlat ta’lim standartlari davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

-davlat ta’lim talablari ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

-malaka shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

mutaxassislik malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

-nodavlat ta’lim tashkiloti davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

-tarbiya aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

-ta’lim ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

-ta’lim kampusi yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya

jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiyligi ovqatlanish obyektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti;

-ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

-ta’lim tashkilotlari attestatsiyasi ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

#### 4-modda. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar

Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;

ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiyligi o‘rtalagi ta’limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

5-modda. Ta'lim olish huquqi

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiyl o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish; oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiyl o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

### **O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uning turlari.**

6-modda. Ta'lim tizimi:

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini; davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;

ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta’lim tizimi yagona va uzlucksizdir.

#### 7-modda. Ta’lim turlari

Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim va tarbiya;

umumi o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

professional ta’lim;

oliy ta’lim;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta’lim.

#### 8-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumi o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

#### 9-modda. Umumi o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim

Umumi o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim o‘quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga qaratilgan.

Umumi o‘rta ta’lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich ta’lim (I — IV sinflar);

tayanch o‘rta ta’lim (V — IX sinflar);

o‘rta ta’lim (X — XI sinflar).

Umumi o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o‘rta ta’lim doirasida (VII sinfdan so‘ng) ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi.

O‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish, shuningdek ta’lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida uzlusiz tarzda, majburiy bo‘lgan o‘n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus ta’lim akademik litseylarda to‘qqiz yillik tayanch o‘rta ta’lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim to‘lov-shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste’dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan mакtablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim oladi.

Umumiy o‘rtta ta’lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta’lim oluvchilar soni o‘ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

#### 10-modda. Professional ta’lim

Professional ta’lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo‘yicha quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi:

boshlang‘ich professional ta’lim;

o‘rtta professional ta’lim;

o‘rtta maxsus professional ta’lim.

Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar mакtablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O‘rtta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha umumiy o‘rtta, o‘rtta maxsus ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’lim negizida amalga oshiriladi.

O‘rtta maxsus professional ta’lim texnikumlarda umumiy o‘rtta, o‘rtta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rtta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rtta va uch yillik o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan fuqarolar ham o‘rtta professional va o‘rtta maxsus professional ta’lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar ta’lim oluvchilarning o‘zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta’limni olish huquqiga ega.

#### 11-modda. Oliy ta’lim

Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi.

Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiyo‘rta (o‘n bir yillik ta’lim), o‘rta maxsus (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik o‘rta maxsus ta’lim), boshlang‘ich professional ta’lim (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik boshlang‘ich professional ta’lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan shaxslar oliy ma’lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta’lim ikki bosqichga-bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta’limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo‘lgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining ro‘yxati ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnomasi asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni olish huquqiga ega.

12-modda. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim

Oliy ta’limdan keyingi ta’limni oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

### 13-modda. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

### 14-modda. Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzlucksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o’smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, “Barkamol avlod” bolalar maktablari, bolalar-o’smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta’lim berish tartibi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

#### 15-modda. Ta’lim olish shakllari

Ta’lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta’lim;

oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;

katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;

inklyuziv ta’lim;

eksternat tartibidagi ta’lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

#### **Masofaviy ta’lim olish shakllari**

#### 16-modda. Masofaviy ta’lim

Masofaviy ta’lim o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

#### 17-modda. Dual ta’lim

Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

#### 18-modda. Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta'lim muassasasi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtaсидаги шартнома асосида амалга оширилади.

Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi.

#### 19-modda. Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni

mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejelashtirilgan bo‘lib, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta’limga qo‘srimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Informal ta’lim aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta’limdan ko‘ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga olishi mumkin.

#### 20-modda. Inklyuziv ta’lim

Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minalashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

#### 21-modda. Eksternat tartibidagi ta’lim

Eksternat tartibidagi ta’lim olish o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishni o‘z ichiga olib, uning yakunlari bo‘yicha ta’lim oluvchilardan davlat ta’lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o‘tishni talab etadi.

Eksternat tartibidagi ta’lim olishni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

#### 22-modda. Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

## **Maktabgacha ta'lismizning boshlang'ich bo'g'ini.**

Maktabgacha ta'lismiz sohasi uzlusiz ta'lismizning birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalab, maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda mazkur sohani yanada taraqqiy ettirish, farzandlarimiz uchun barcha sharoitlarni yaratish yo'lida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bolalarni maktabgacha ta'lismizning muassasalariga qamrab olishda nafaqat davlat, balki nodavlat ta'lismizning muassasalarining hissasi sezilarli ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ta'lismiz yagona va uzlusizdir, deyiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lismiz to'g'risida"gi Qonuning 2-bobida: Ta'lismiz, turlari va shakllari haqida yozilgan.Ushbu qonunning 6-moddasida ta'lismiz quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat ta'lismiz standartlarini, davlat ta'lismiz talablarini, o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini;

davlat ta'lismiz standartlarini, davlat ta'lismiz talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lismiz tashkilotlarini;

ta'lismiz sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta'lismizning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarini;

ta'lismiz sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lismiz yagona va uzlusizdir.

**Qonunning 7-moddasida.** Uzlusiz ta'lismiz turlari belgilab berilgan

- maktabgacha ta'lismiz va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lismiz;
- professional ta'lismiz;
- oliy ta'lismiz;
- oliy ta'lismidan keyingi ta'lismiz;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- mактабдан ташқари та’лим.

О‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning 2-bob

**8-moddasida** maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining maqsadi asoslab berilgan.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilanadi.

Ushbu qonun qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan. Bu qonun 11-bob 58-moddadan iborat.

1-bob **1-modda.** Qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi haqida yozilgan.

**2-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari** ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

**3-modda. Ta’lim olish turlari berilgan:**

**4-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari

**5-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

**6-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari**

**Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasini tartibga solish**

**2-bob. Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasini tartibga solish**

**7-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro‘yogga chiqarilishini amalga oshiruvchi organekanligi

**8-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

**9-modda.** Davlat inspeksiyasining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

**10-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

**11-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

**12-modda.** O‘z tasarrufida maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining vakolatlari

**13-modda.** Mahalliy davlat hokimiyati organlarining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

**14-modda.** Fuqarolarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi tadbirdarda ishtirok etishi

**3-bob. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari**

**15-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi turlari

**16-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqomi

**17-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari

#### **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish**

**4-bob. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish**

**18-modda.** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish

**19-modda.** Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish

**20-modda.** Jismoniy shaxslar tomonidan maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim xizmatlari ko‘rsatish

**21-modda.** Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash

**22-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi

**23-modda.** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etishning majburiyiligi

**24-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotining huquq va majburiyatları

**25-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish

**26-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi

**27-modda.** Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimi

**5-bob.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish**

**28-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti

**29-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi

**30-modda.** Ta’lim berish tili

**31-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ish rejimi

**6-bob.Maktabgacha bo‘lgan yosh davrlari.Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish**

**32-modda.** Maktabgacha bo‘lgan yosh va uning davrlari

**33-modda.** Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish

**34-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkiloti guruhlarini to‘ldirish

**35-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlaganlik, ovqatlantirganlik va ularga qarab turganlik uchun haq to‘lash

**7-bob.Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari**

**36-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari

**37-modda.** Maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning huquqlari

**38-modda.** Bolaning qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari

**39-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari

**40-modda.** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining haftalik ish yuklamasi

**41-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va dam olishi

**42-modda.** Pedagogning kasbiy standarti

**43-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish

**44-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga doir cheklovlari

56

**8-bob. Maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish**

**45-modda.** Maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga qarab turish va ularni ta’minlash

**46-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ovqatlanishini tashkil etish

**47-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog‘lig‘ini saqlash

**9-bob.Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi**

**48-modda.** Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish

**49-modda.** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi

**50-modda.** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining kuzatuv kengashi

**51-modda.** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari

**10-bob. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta’minoti.**

**52-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta’minoti vazifalari

**11-bob. Yakunlovchi qoidalar**

**54-modda.** Nizolarni hal etish

**55-modda.** Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

**56-modda.** Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

**57-modda.** Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

**58-modda.** Ushbu Qonunning kuchga kirishi

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

1.Uzluksiz ta’lim turlarini ayting?

2.Maktabgacha ta’lim va tarbiya qanday ta’lim turi?

3.”Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g‘risida”gi Qonun qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilindi?

4.Nechchi yoshdan nechchi yoshgacha bo’lgan bolalarni maktabgacha ta’lim va tarbiya boshlang’ich ta’limga majburiy tayyorlashni nazarda tutadi?

5.1-bobning nechinchi moddasida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari berilgan?  
57

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**

**1.”Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning nechinchi bobida ta’lim tizimi, turlari va shakllari haqida yozilgan?**

- a)3-bob
- b)2-bob
- c)4-bob
- d)1-bob

**2.Nechinchi moddada ta’lim olish turlari berilgan?**

- a)1-modda
- b)2-modda
- c)3-modda
- d)4-modda

**3.”Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning 7-moddasida nima belgilab berilgan?**

- a)uzluksiz ta’lim turlari
- b)maktabgacha ta’lim va tarbiyanning asosiy prinsiplari
- c)ta’limning huquq va majburiyatları
- d)ta’limni boshqarishning axborot tizimi

**4.”Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning 2-bob 8-moddasida nima asoslab berilgan?**

- a)maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining maqsadi
- b)maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari
- c)ta’lim olish turlari
- d)maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari

**4.BO’LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGLARINI KREATIV  
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI  
TARBIYACHISI SHAXSIGA QO’YILADIGAN TALABLAR.**

**Reja:**

- 1.Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo’yiladigan talablar.<sup>58</sup>
- 2.Tarbiyachi pedagoglarning jamiyatda tutgan o’rni.
- 3.Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari.
- 4.Tarbiyachining faoliyatlar jarayonidagi kreativligi.

5.Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni.

### **Tayanch tushunchalar:**

Ta'lim,shaxs, kasbiy fazilatlar, qobiliyat, nutq madaniyati, pedagogik mahorat, ijodkorlik, bilim .

### **Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo'yiladigan talablar.**

Tarbiya—o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. O'z faoliyatini endigina boshlayotgan tarbiyachilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali o'qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda bolaning ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi; pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- ta'lim va tarbiya faoliyatida bolalar bilan kommunikativ aloqa o'rnata olish qobiliyati;
- o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda bolalar jamoasi bilan doimo maslahatlashish; - o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan bolalarning fikrlarini o'rganish;
- o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir bolaning yashirin ijobiy fazilatlarni ko'ra olish va takomillashtirish;

-bolalarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo‘lish.

Bolalarni sevish–pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg‘otadi, tarbiyachiga bolalarni chinakam ma’naviy murabbiysi bo‘lishga imkon beradi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog‘liqdir. Pedagogik qobiliyat-pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyat jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat–bu yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san’atidir.

Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma’lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan bo‘lishi;

-pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, hatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa olishi;

-yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo‘lishi lozim. Ta’lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi kerak;

-tarbiyachi o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o‘sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o‘stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

-har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi;<sup>60</sup>

-kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a’zoni e’tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo‘lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo‘ylik,adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o‘simplik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnat natijalarini asrab avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

### **Tarbiyachi pedagoglarning jamiyatda tutgan o’rni.**

Maktabgacha pedagogika fani – bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmati shu qadar buyukki, u odamni ma’naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to‘ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo’qki, uning ustozи bo‘lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mexrini qozongan yozuvchimi yoki qo‘li gul kosibmi, qo‘yingki, barcha-barchaning o‘z ustozи va hayot yo‘lini charog‘on etib turuvchi yo’lboshchisi bo‘ladi. Ustozning eng buyuk burchi–uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga ma’suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini anglashga ta’lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o‘z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o‘sishga ko‘maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo‘lishi kerak.

Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, pedagog ishidagi ijodiy mehnatlari uchun, ilg‘or tajribalarni umumlashtirishda erishgan muvofaqiyatlari uchun pedagog, tarbiyachilar «Metodist o‘qituvchi» , «katta o‘qituvchi» , «Metodist - tarbiyachi» , «Xalq maorifi a’lochisi» va shu kabi sharaflı unvonlar bilan taqdirlanadilar. Xalq ta’limi xodimlari orasidan respublika bo‘yicha deputatlar saylanishi ham ularga bo‘lgan chuqur hurmat-ehtiromni bildiradi. Jumhuriyatimizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmoqda. Pedagog

xodimlarni malakasini oshirish ilmiy-metodik markazlari kengaytirilmoqda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda, har 4 -5 yilda qayta tayyorlashdan o'tishlari uchun shart-sharoit yaratilmoqda.

### **Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari**

Maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyachisi eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak mas'uliyatni to'la anglab yetishi zarar. Faqatgina maktabgacha yoshdagi bola rivojining muhim qadriyat ekanligini tushunishgina emas, balki bola rivojlanishi qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallashi juda muhimdir. Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojining uni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liqligidir.

Mazkur qonuniyat o'z navbatida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining quyidagi ikkita muhim funksiyasini belgilab beradi:

- 1) bolalarni muvafaqqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish;
- 2) ularning hayotiy faoliyati xavfsizligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining bolalarni muvafaqqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish funksiyasi bolani faollikka undash, uni rivojlantiruvchi tavsifdagi faoliyatga jalb etishni talab etadi. Bolaning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash haqida g'amxo'rlik qilish maktabgacha yoshdagi tarbiyani oqilona tashkil etishning garovi bo'lib, mazkur yosh davri rivoji bolaning ijtimoiy holati, kayfiyati, emotsiyonal ko'rinishlariga bevosita bog'liqidir. Ana shu sababli tarbiyachi bolani o'rab turgan atrof-muhitga e'tiborli bo'lishi, bola hayoti va salomatligiga xavf soluvchi eng oddiy holatlarning ham oldini olishi lozim. Ya'ni, tarbiyachi bolalar bog'chasi maydonchasi, o'yinchoqlar, mebel jihozlarining bola bo'yiga mos kelish holatini muntazam nazorat qilib borishi;

havo va suv temperaturasini o'lchashi;

bolalarni tayyorlash uchun mashg'ulotlar vaqtini oldindan aniqlashi lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tarbiyachining e'tiborsizligi, befarqligi uning kasbiy layoqatsizligining muhim belgisidir. Bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish tarbiyachining asosiy vazifasi. U ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishni axboriy-uslubik hujjatlar bilan ishslash, bevosita tarbiyaviy ishlarni o'tkazish va uning natijalarini tahlil etish asosida amalga oshiradi. Tarbiyachi ota-onalarning pedagogik madaniyatini muntazam oshirib borishi, bolalar

tarbiyasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yishi, mazkur jarayonda ijtimoiy yordamga muhtojlik sezuvchi oilalar bilan alohida ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachining oilalarga ko'rsatadigan ijtimoiy-pedagogik yordami uch asosiy xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni:

- 1) ta'limiy-ta'lim berish va tarbiyalash;
- 2) psixologik-ruhiy jihatdan qo'llab-quvatlash, ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish va qayta tiklash;
- 3) vositachilik-tashkil etish, ta'lim va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolaming oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulq-atvoridagi og'ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish hamda zarur axborotlar bilan ta'minlash. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyachisining quyidagi kasbiy funksiyalarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:
  - 1)ota-onalarning ma'rifiy bilimlarini oshirishda ishtirok etish;
  - 2)oila va maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyaviy ta'sirini boshqarish hamda uyg'unlashtirish.

Zamonaviy demokratik jamiyatda maktabgacha ta'lim ishiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachidan muntazam ravishda o'zining umummadaniy va kasbiy tayyorgarligini boyitib borishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyachisi kasbiy faoliyatining yana bir yo'nalishi mustaqil ta'lim olishni shart qilib qo'yadi. Mustaqil ta'limning xilma-xil shakllariga adabiyotlar (kasbga doir, badiiy) o'qish, muzeylarga tashrif buyurishdan konferensiya, ko'rgazma va konkurslarga ishtirok etish kabilarni kiritish mumkin. Mustaqil ta'limning maqsadi tarbiyachi shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirish, kasbiy mahoratini oshirib borishdir.

Pedagogik faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi tarbiyachidan ilg'or ish tajribalarini o'rganish, innovatsiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Innovatsiyalarning jadal kirib kelishi tarbiyachilarni ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishga jalg etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarbiyachilarning bunday tadqiqot ishlariga jalg etilishi keyinchalik erishilgan natijalardan o'z faoliyatida muvaffaqqiyatli foydalanishga imkon<sup>63</sup> beradi. Shuningdek, tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak.

### **Tarbiyachining faoliyatlar jarayonidagi kreativligi.**

Kreativlik (lot., ing. “create ”—yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor)—individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligidagi nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, bolalarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi. Odadta pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek,

pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishslash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyatni ma'lum vaqt ichida izchil o'qib o'rganish, o'z ustida ishslash orqali shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim barcha turdag'i ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda.

"**Kreativlik**" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, ular o'zlarida kreativlik qobiliyatni mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor

va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lma ganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdir.Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi.

## **Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni.**

Globallashuv sharoitida maktabgacha ta'lim tizimining innovatsion rivojlanish tendentsiyalari, axborot maydonining tez kengayishi, maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning muammolari alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish shaxsni rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida ilgari suradi.

Kelajak avlodning ijodiy rivojlanish darjasini ko'p jihatdan pedagogik kasbiy mahoratga, ijodiy qobiliyaga,, pedagogning kasbiy tafakkuriga, uning pedagogik faoliyatga tayyorligiga bog'iq hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy oliy ta'lim tizimida muhim masala talabalarining kasbiy tayyorgarligi, – bo'lajak tarbiyachilarining pedagogik ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir.

Talabalik davri har bir inson hayotida alohida davr hisoblanadi. Talabalik yoshi etuklikka erishgunga qadar sezgir davrdir.

B.G.Ananyeva, talabalik davrini mutaxassis, jamoat arbobi va fuqaro, shuningdek, ko'plab ijtimoiy funktsiyalarni o'zlashtirish va mavjud kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat degan. Bu kompleksning yoshi fikrlash jarayonlarini loyihalash [1, p. 5-8].

Bo'lajak pedagoglarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.Universitetlarda talabalar o'z ishining mutaxasisi bo'lishadi.Oliy ta'lim o'qituvchilarining vazifikasi talabalarda ijodkorlikni shakllantirishdan iborat. Ijodiy cho'qqilarni egallash uchun, dastlabki tayyorgarliklar amalga oshirilishi kerak: xotirani, idrok tasavvurni, fikrlashni rivojlantirish kerak. Bo'lajak o'qituvchi ishining muvaffaqiyati tizimli va o'z ustida mashaqqatli mehnat - pedagogik darajani oshirish, o'z ustida ishslash hisoblanadi.

Ko'pgina psixologik-pedagogik adabiyotlarda kreativlikga ijodiy qobiliyatdek,yangi g'oyalarni yaratish qaraladi.

Kreativlik-bu insonning fikrlashida, his tuyg'ularida, muloqotida namoyon bo'ladigan ijodiy qobiliyatidir.

Kreativlik bu pedagogning eng asosiy qobiliyatları dan biri hisoblanadi, olimlarning qarashlarida "ijodiy qobiliyati, yangi g'oyalarni yaratishda", an'anaviy sxemalardan qochishda, "muammolarni tezda hal qilishda" ahamiyati katta hisoblanadi.

S.A.Sisoyevaning fikricha pedagogik kreativlikning belgilari:

- ijtimoiy va axloqiy ongning yuqori darajasi;
- intellektual va mantiqiy rivojlanish qobiliyati (tahlil qilish qobiliyati, asoslash, tushuntirish, ta'kidlash);
- muammoli ko'rish;
- ijodiy fantaziya, rivojlangan tasavvur;
- o'ziga xos shaxsiy fazilatlar;(bolalarni sevish, fidoiylik, jasorat);
- o'ziga xos motivlar;(men konsepsiyasi, ijodiy qiziqish)

V.A.Suxomlinskiyning fikricha: Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ijodi "faoliyat ob'yekti bola, doimo o'zgarib turadigan, bugun, yangi kechagiday emas" bo'lishi kerak.Yana ta'kidlab o'tganki: pedagogik ijodning mohiyati-fikr, dizayn, g'oyalalar va minglab kundalik faoliyat bilan bog'liq hisoblanadi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

- 1.Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qanday talablar qo'yildi?
- 2.Tarbiyachi pedagoglarning jamiyatda tutgan o'rnini izohlab bering.
- 3.Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari.
- 4.Tarbiyachining kreativlik qobiliyati.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**

#### **1.Tarbiya nima?**

- a)- o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat
- b)- o'qituvchi va tarbiyachi o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat
- s) -o'quvchi va bola o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat

#### **2.Tarbiyachining oilalarga ko'rsatadigan ijtimoiy-pedagogik yordami nechta asosiy xususiyatga ega bo'ladi?**

- a)3
- b)2
- s)1

**3.Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining nechi xil kasbiy funksiyalari mavjud?**

- a)2
- b)3
- s)4

## **5.MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING RIVOJLANISHI VA TA’LIM TARBIYASI**

**Reja:**

- 1.Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta’lim-tarbiyasining o’ziga xosligi.
- 2.Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola sog’lom rivojlanishidagi ahamiyati.
- 3.Maktabgacha ta’lim davrida yosh davrlarining o’ziga xos xususiyati.

### **Tayanch tushunchalar:**

Tarbiya-aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ohgini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

Ta’lim-ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amiliy ko’nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko’nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

### **Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta’lim-tarbiyasining o’ziga xosligi.**

Sharq mutafakkirlarining merosida ta’lim tarbiya masalalari muhim o’rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e’tibor bergenlar. Abu Nasr Farobi<sup>68</sup>, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida oilada bola tarbiyasi masalalari va ularni hal etish yo’llari ko’rsatib berilgan.

Abu Nasr Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog‘i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo‘lmog‘i lozim degan xulosaga

kelgan.Maktabgacha yoshdagি bolalarga ta’lim tarbiya berish masalalari Abu Ali ibn Sino merosida yoritilganini ko‘rishimiz mumkin.

Beruniy ota-onalarning bolalari bilan birga harakat qilishlari, turli o‘yinlar uyushtirishlari, ular bilan o‘zaro suhbatlar o‘tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Beruniy tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqidagi, shaxsning rivojlanish to‘g‘risidagi fikrlarining zamirida insonparvarlik g‘oyasi yotadi. U har bir ota –ona o‘z farzandlariga ana shu g‘oyani singdirishi zarur degan xulosaga keladi.Maktabgacha yoshdagи bolalar hayotini muhim uyushtirish, ularni vaqtidan to‘g‘ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o‘z farzandlariga o‘qtirishlari lozim.

Bola tarbiyasi masalalari bo‘yicha Abu Ali ibn Sino “Tadbir almanozil” nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritilgan. Asarda oilada onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to‘xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va xunarga o‘rgatish borasida muxim fikrlar bayon etadi.Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalarga keng o‘rin berilgan. Oilada farzand tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasi uning manaviy olamida etiqodni shakllantirish deb xisoblagan edi olim.

Yusuf Xos Xojib “Qtudg‘u bilig” asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e’tibor beradi. Ota–onalar nazoratda bo‘lgan bolaning ma’suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota –onaning mavqyei alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to‘g‘ri yo‘l farzandlarining keljakni, kamoloti uchun psixologiyasida muhimdir.

Mirzo ulug‘bekning qarashlarida bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rin tutadi. Kaykovus “Qobusnomা” pandnomasida o‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishini iishlasang, sen ham ota–ona haqida shunday bo‘lg‘il deb yoshlarni ota–onasini hurmat qilishga e’zozlashga, mehr –oqibatli bo‘lishga da’vat etadi.

Bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir masalasi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosida ham munosib o‘rin egallaydi. U o‘zining qator asarlarida ta’lim –tarbiya masalalari umuminsoniyg‘oya ekanligini ta’kidlaydi.

Ya.A.Komenskiy o‘zining “Onalar maktabi” kitobini maktabga tayyorlash bobida, shunday yozadi, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma’lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Komenskiy ota –onalar uchun quyidagi vazifalarni ko‘rsatadi:

- 1.Bolalarda maktabga borganda o‘z tengdoshlari bilan o‘qigan va o‘ynagan xursandchilik hissini tug‘dirish;
- 2.Bolalarni maktabdagi ta’limning mohiyatini tushuntirish, maktabdagi faoliyat turlari bilan tunishtirish;
- 3.Bolalar bo‘lajak o‘qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.Ta’lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi ma’lum darajada nasliy omillar bilan ham bog‘liqdir.

Bolalar temperamenti xususiyatlariga ko‘ra ham bir–birlaridan ajralib turadilar:

- xushchaqchaq, sergap, quvnoq, xayotning o‘zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan o‘z bolalar sangvennik timperamentga mansub;
- qo‘sishimcha noxush kayfiyatda yuradigan, ta’sirchan, kamgap, sust bolalar –melanxolik temperamentga kiradilar;
- xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar flegmatik;
- jaxldor, betoqat, serzarda, xarakatchan bolalar xolerik hisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muxtoj bo‘lishiga ham qarab bir–birlaridan farq qiladilar. Ba’zi bolalar biror hatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko‘rsatish, tushuntirish kerak. Bolalar o‘zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir–birlaridan ajralib turadilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo‘lib rivojlangan bo‘lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, o‘ylaymizki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson bo‘lib yetishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy histuyg‘ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo’llasa, yaxshi xulq namunalarini o‘rgatish ancha oson kechadi.

Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro‘y beradi, inson tarbiyasi xalq baxt-saodati yo‘lidagi bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, sotsial-iqtisodiy vazifalarni hal etishda amaliy ishtirokida yuzaga keladi. Shaxsni shakllantirishga uch omil: tarbiya, ijtimoiy muhit va irsiyat ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsni shakllantirishga ijtimoiy va tabiiy muhit katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda ustun ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning

taraqqiyot darjasи va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi. U shaxsni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tabiiy muhit ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning o'rni bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Bolaning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomon dan, mazmun, hajm va umumlashtirish darjasи jihatidan murakkab bo'lgan insoniy tajribani o'zlashtirishi kerak bo'lsa, ikkinchi tomon dan, u mazkur tajribani o'zlashtirish usullarini hali egallamagan bo'ladi. Tarbiyaning o'zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonalari» (L.S. Vigotskiy) bilan bog'liq bo'lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o'zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan ajralib turadi.

Tarbiya va ta'lim eng yaqin rivojlanish zonasiga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishi uni olg'a harakatlantiradi. Inson shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichdan o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriqoq bosqichning tuzilishiga uзвiy tarzda qo'shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun doimiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi.

Taniqli pedagog A.S. Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab, shunday yozgan edi: «Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u o'z bolaligida tarbiya topganidan qarzdordir».

### **Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola sog'lom rivojlanishidagi ahamiyati.**

Asosan 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi), (4-5 yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi), (6-7 yosh)

katta maktabgacha davr (katta bog‘cha yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalarini shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzlusiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojiana boshlaydi, u yangiliklarni egallahsga nisbatan o‘z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o‘rganishi;
- individual predmetli o‘yinlar, jamoa syujetli-rolli o‘yinlar;
- individual va guruhiy ijod;
- musobaqa o‘yinlari;

-muloqot o‘yinlari;

-uy mehnati.

Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog‘chadagi o‘rtoqlari va qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo‘lib o‘ynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog‘cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko‘rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o‘sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik hodisa desa bo‘ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug‘ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o‘z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o‘stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo‘lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o‘rganadilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalar o‘yinining psixologik xususiyatlari. Ma’lumki, bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo‘yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yindir. Bu yoshdagagi bolalarning o‘yinlarini uchga bo‘lish mumkin:

73

- 1)predmetli o‘yinlar(15-20 minut o‘ynaladi);
- 2)syujetli-rolli o‘yinlar (30-60 minut o‘ynaladi);
- 3) qoidalari o‘yinlar (1soatdan-2kungacha davom etishi mumkin).

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosobatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa harakterlik, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining haddi sig‘adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig‘maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o‘zi haydagisi, xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo‘lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo‘lgisi keladi. Tabiiyki bola o‘zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo‘l bilan qondira olmaydi. Bu o‘rinda savol tug‘iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo‘l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya’ni, bolaning o‘yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- birinchidan, bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o‘yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog‘liqdir;
- ikkinchidan, bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo‘ladilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

### **Maktabgacha ta’lim davrida yosh davrlarining o‘ziga xos xususiyati**

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi. Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish

muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlichal bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur. Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim.

Temperament-lotincha "temperamentum", ya'ni "qismlarning bir-biriga munosabati" ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatları ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o'rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh).

*Ilk yosh davri bolalarining rivojlanishidagi o'ziga xosliklar.* Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to'qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o'taydi. Bu davrda ham bola ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun ham bu ta'sirning ijobiy bo'lishini ta'minlash lozim. Go'dakning vazni tug'ilgan paytda 3,5 kg, bo'yи 50 sm bo'lgan bo'lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo'yи 60 sm, 6 oylik bo'lganda esa taxminan 7 kg, bo'yи 64 sm bo'ladi. Bir yoshgacha bo'lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta'sirida bo'lib, u ona

sut bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo‘lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a’zolarini tanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham go‘daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo‘lgan davrda dastlabki so‘zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a’zolari go‘dakni to‘g‘ri parvarish qilishni yo‘lga qo‘yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo‘lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to‘g‘ri talaffuz qilib, ularning nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun keng yo‘l ochishlari kerak. Oilada bolani tarbiyalashda ota-onalardan bilan bola o‘rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o‘z holiga tashlab qo‘ymasligi, ya’ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o‘rganadi, kuzatadi va o‘zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o‘rganadi. Biz bolani nimaga o‘rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz zarur, ya’ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**

**1. Bola tarbiyasi masalalari bo‘yicha “Tadbir almanozil” nomli asarini kim yozgan?**

- a) Abu Ali ibn Sino
- b) Alisher Navoiy
- c) Beruniy

**2. “Onalar maktabi” kitobininh muallifi kim?**

- a) Ya.A.Komenskiy
- b) Alisher Navoiy
- c) Beruniy

**3. Temperament qanday so‘zdan olingan va shaxsning qanday psixologik xususiyatlari majmuidir?**

- a) Temperament-lotincha “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir
- b) Temperament-inglizcha “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir
- c) Temperament-forscha “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir

## **6.SHAXS RIVOJLANISHI HAQIDA TUSHUNCHА**

**Reja:**

- 1.Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
- 2.Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.(irlsiyat, muhit,ta'lim-tarbiya)
- 3.Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o'rni.
- 4.Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o'rni.

**Tayanch tushunchalar:**

**rivojlanish** — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

**rivojlanish sohasi** — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

**Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.**

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, konkret kishi, ya'ni, muayyan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

"Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ lotincha "individuum" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi. Individuallik esa tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olishdan iborat.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatları, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllanib boradi.

Shaxs—muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va hatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskinining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining

sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtida inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatları ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birlgilikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rinnegallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Inson rivojlanishi juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rabi turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi. Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalg qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-onal, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallahsga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, yetakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi. Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bilish va o'zlashtirishda yetakchi vazifani

bajaradi. Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar bu bir-biriga bog'liq bo'lмаган ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo'shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lган omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi.

Biologik va ijtimoiy omillar. Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va his tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayogan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir. Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo'lган bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e'tiborga olish lozim.

Masalan, psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik). Ota-onalar alkogolizm va giyohvandligi nasl uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar bo'lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiyaning buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy kamchilikli (ko'rilar, karlar, tayanch-harakatlantiruvchi apparatning buzilishi va b) bolalar tug'ilishi ko'paymoqda. Shunday bolalar uchun muloqotda bo'lish jamiyatga "kirish" ancha murakkabdir. Bular bilan maxsus tayyorlangan pedagoglar shug'ullanadi.

Ijtimoiy omillar. Inson bo'lib yetishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib yetishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallahga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhittan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba toplashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning hatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-

turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo‘ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o‘zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko‘nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo‘nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo‘lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirish sodir bo‘ladi. Anglash sohasida o‘z “men”i obrazini shakllantirish, o‘zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o‘rnini anglash ro‘y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi. So‘nggi yillarda pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv hamda tarbiya tushunchalarining o‘zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Ba’zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o‘rganishadi. Ayrim olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviylar va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To‘rtinchchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. To‘g‘ri tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligi hammaga ma’lum.

Ijtimoiy omillarni insonga ta’sir ko‘rsatishining tarkibiy qismi bo‘lgan tarbiya o‘z xususiyatlariga ega. Jumladan tarbiyaning bola rivojlanishiga ta’siri vaqt o‘tgan sari o‘zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, bola qanchalik kichik bo‘lsa, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko‘p ta’sir ko‘rsatadi. Vaqt o‘tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi.

Biroq boshqa bir jarayon o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o‘z shaxsini mukammallashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma’lumki, o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng 81 yuksak shakli hisoblanadi.

Tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an’analar, maktab jamoasi, do‘stlar, bolalar bog‘chasi va boshqalar) ijobiy ta’siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni yuz beradi

Hozirgi kunda inson sivilizatsiyasi tarixida qayd etilgan bir qancha dalillar bor. Rim asoschilari Romul va Rem bo'ri onasi bilan emizilgan edi (shunday deb afsonada gap yuritiladi), maugli bo'rilar to'dasida tarbiyalangan edi. Inson bolalarini bo'rilar bilan boqilganining 15 hili, ayiqlar -5 hili, maymunlar -10 hili, leopard -1 hili, qo'y-1 hili ma'lum.

### **Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.(irsiyat, muhit,ta'lim-tarbiya)**

Maktabgacha pedagogika fani shaxsning kamolotiga yetishning murakkab va ziddiyatli jarayon deb beradi. Shaxsning kamolga yetishishida nasl-irsiyat (biologik), ijtimoiy muhit ham, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs qanday jamiyatda yashasa o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asosan kamol topadi. Agar shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklari yuksak bo'lsa, u shaxsga shu qadar katta ta'sir ko'rsatadi yoki aksincha. Ikkinci tomondan esa, shaxs faoliyati davomida mehnat orqali o'z moddiy va ma'naviy boyligini yaratish jarayonida ongini, hayotini, turmush sharoitini ham yaxshilab boradi.

Odam atrofni obyektiv borliqni ko'proq bilgani sari onglilik darajasi o'sadi, fikrlash doirasi kengayadi, yangi ong va ko'nikmalarni egallaydi va o'zini takomillashtirib boradi. Demak, shaxsning kamolga yetishuvi jamiyat rivojiga chambarchas bog'liq.

#### **Irsiyat**

Irsiyat deganda, bolaga ota-oni va umuman yaqin ajdodlardan ya'ni nasldan-nasnga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi.

XX asrda bixevoirizm nazariyasini AQSh pedagogi va ruhshunosi E.Tridayk asos soldi.Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, xususan ong va aqliy qobiliyati ham nasldan-nasnga o'tadi, go'yo odamning ko'zi, tishlari va barmoqlari kabi aqliy qobiliyat ham tabiatan berilgandir. Ularning fikri to'g'ri bo'lsa, odam ham daraxt singari o'sishi yoki tabiiy holda tarbiyalishi lozim edi.

<sup>82</sup>

Amerikalik pragmatik pedagogikasining otaxoni D.Dyun va hozirgi davomchisi A.Kombas va boshqalar ham shaxsning rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asosladir.

"Haqiqiy tarbiya tashqaridan kiritiladigan narsa emas, u odam bilan dunyoga kelgan xususiyat va qobiliyatni o'stiradi", deydi D.Dyun. Biogenetiklar (Bolduin, Chemberlin, Stenli

Xoll va boshqalar) XX asr boshlarida bolaning ruhiy jihatdan o'sishini, zoologlar F.Myuller va E.Gekkellar tomonidan kashf qilingan biogenetik qonun asosida boradi, degan fikrni ilgari suradilar. Bogenetik qonun "Ontogenez filogenezni takrorlaydi" deb ta'riflanadi. Ma'nosи har bir organizm o'zining embrional taraqqiyotida o'zidan (oldingi) avvalgi barcha bosqichlarni takrorlaydi, ya'ni individual organizm o'zining tuxum xujayra holatidan mukammal holatga yetguncha boshidan kechiradigan qator shakllarni shu organizm ajdodlari bosib o'tgan juda ko'p shakllarining qisqa, ixcham takrorlanishi demakdir.

Avstraliyalik ruhshunos K.Byuller hatto bolaning aqliy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Boshqa chet el ruhshunoslari bolaning ruhiy taraqqiyotida tana tizilmalaridagi endokrin apparati (ichki sekresiya bezlari) dagi o'zgarishlar va hokazolar katta ahamiyatga ega deb biladilar.

Ayrim pedagog va ruhshunoslар orasida bolaga boshqacha qarash ham mavjud. Ularning fikricha, insonning kamolati ikki omilga irsiyat va ijtimoiy muhitga bog'liqdir. Irsiyat o'zgarmaydi, ijtimoiy muhit hamma davrlar uchun o'zgarmasdir. Pedalogiya ta'limotiga ko'ra bolani kamol yetishi hatto kelajagi faqat irsiyatga va o'zgarmas muhitga bog'liq. Antropologiya fani yutuqlariga asoslanadigan bo'lsak, tarixiy, ijtimoiy taraqqiyot natijasida odamning anatomik, fiziologik belgilar (odamning kalla suyagi, qo'li, oyoqlari, aqliy qobiliyatlari ham) o'zgarishi mumkin. Demak, bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onaga, avlod-ajdodlarga o'xshashlikni ifodolovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak.

Har bola ota-onasidan meros sifatida biologik ko'rinishlarga (tananing tuzilishi, soching, ko'zining, terisining rangi, bo'yi-basti) ega bo'lib dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Bu haqda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Odам tabiiy omillarga - ko'ra o'zi mansub bo'ladigan irq va ellatni tanlay olmaydi. Ota-onani tanlay olmaydi. Lekin dunyoqarashni, axloqi, ma'naviyatini o'zi, hech kimning tazyiqimiz va ayniqsa zo'ravoniksiz tanlab olishi mumkin va lozim" - degan edi (36 bet). XXI asr. Shuningdek, oliy nerv faoliyatining ko'rinishlar (xolerik, sangvenik, flegmatik, melanxolik) ham tug'ma bo'lib o'tadi, bu fiziologik xususiyatlardir. Ayni vaqtda bolaga, insonlarga xos xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan tug'ma o'tadi. (Masalan, aqliy yoki jismoniy mehnat qilishi va nutqning rivojlanishi va hokazo). Ammo bular tug'ma imkoniyatlar bo'lib, ularning rivojlanishi uchun

inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa qilishi, ijtimoiy mehnatda ishtirok etmog'i lozim. Chunki inson biologik mavjudod sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudod sifatida rivojlanadi va kamolga yetadi.

## Muhit

Fiziologiya va ruhshunoslik fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror-bir qobiliyatning ruyobga chiqishi va rivojlanishi manbai-layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'zicha rivojlnana olmaydi, rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqyealarning yig'indisini tushunamiz.

Sa'diyning fikricha qobiliyatli va kam qobiliyatli bolalar bo'ladi. Ammo qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi bor qobiliyat ham yo'qoladi. Uning kamol topishi uchun kamolatga asos bo'ladigan qobiliyat negiz bo'lishi kerak. Sa'diy o'z fikrini isboti uchun "Guliston" asarida "Bir vazirning takasaltang o'g'li bor edi. Vazir o'g'lini bir donishmand huzuriga eltib: "Shuni tarbiya qil, shoyad aqli kirib, odam bo'lsa" - deydi. Donishmand vazirzodani uzoq muddat tarbiya qildi, foydasi bo'lmadi. Bolaning otasiga bir odam orqali: "O'g'ling odam bo'lmadi, meni ham aqldan ozdirdi" - deb xabar qildi. U bu voqyeadan shunday xulosa chiqaradi:" Qobiliyat bo'lsa aslida, tarbiya unga qiladi asar. Qancha urinsa bo'lmas sayqali, Temir aslida bo'lmas gavhari (143 bet) "Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik - zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma", - deb ta'kidlagan A.Navoiy. Bundan tarbiyaning natijasi odamni qobiyatilik darajasiga bevosita bog'liqligi asoslanayapti. Masalan, qobiliyati bo'lмаган insonni aqli mehnat qilishga yo'llash ijobiy natija bermasligini ta'kidlash kerak. Yoki biror kasblarni egallashga ham bu g'oyani tadbiq etish mumkin. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) va boshqalar kiradi va ular bolaning rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinishi rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa<sup>84</sup>, yo'q bo'lishi yoki "mudroq" ligicha qolib ketiishi mumkin.

Demak, boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog'liq desak bo'ladi. Bunga tarixda misollar juda ko'p. A.Navoiy onasidan-shoir, Eynshteyn-fizik, Ulug'bek-astronom, Ibn Sino-tabib bo'lib tug'ilмаган albatta.

Inson bolasi, agar ijtimoiy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, odamlarga xos sifatlar shakllanmasligi mumkin. Masalan: 1920 yili hindistonlik doktor Sing Kalkuttaning janubiy-Q'arbidagi Midnapur shahri yaqinida bo'ri uyasidan ikkita bo'ri bolasi bilan ikkita qizchani topib olgan. Ularning biri 7-8 yoshda, ikkinchisi 2 yoshlar chamasida edi. Amala (kichigi) bir yildan so'ng vafot etdi. Kamola esa 1930 yilgacha yashadi. Odob, axloq, xulqiy sifatlar- shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishga ta'sir etadi, ammo hal qiluvchi omil bo'la olmaydi.

### **Maqsadli tarbiya**

Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

Tarbiyaning maqsadi natijasi barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o'quvchi shaxsning o'zi tomonidan faoliy ko'rsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi vazifani bajaradi. Chunki ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakllari, metodlar va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiyaga tadbiq etadi.

Inson shaxsi ko'p sonli omillar ta'siri natijasida shakllanadi va rivojlanadi: ob'ektiv va sub'ektiv, tabiiy va ijtimoiy, ichki va tashqi, odamlarning ongi va shuuriga bog'liq bo'lgan va bo'limgan. Shu sababli insonning o'zi ham tashqi ta'sirni shunchaki aks ettiruvchi sust mavjudot emas. U o'zining shaxsiy shakllanishi va rivojlanishi sub'ektidir.

**Tarbiya** – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

**Tarbiya**-shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora-tadbirlar yig'indisi [6].

Demak, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insoning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir. Tarbiya insoniyat paydo bo'lishi

bilan birga paydo bo‘lgan bo‘lib, u-siz alohida shaxs ham, kishilik jamiyatni ham faoliyat ko‘rsata olmaydi. Chunki, tarbiya inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyat bo‘lib, u avloddan, avlodga o‘tib boraveradi.

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Dunyoqarash, e’tiqod ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, odatlilik va ko‘nikmalarining shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki faoliyatni tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllanib boradi. His-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xoxishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta’siri bolaning ularga munosabati, bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashi baholashi, his qilishni anglashi e’tiborga molikdir. Ulardan o‘zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi. Tarbiya jarayoni o‘quvchining ongini emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta’sir yetib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. O‘quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini – tarbiya jarayonining manbasini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bir so‘z bilan aytganda tarbiya jarayoni – har bir insonning hayotda yashashi (umumi faoliyat, ta’lim, tarbiya) jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko‘nikmasini o‘zida shakllantirish va o‘zgalarga berish jarayonidir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiyada

o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatlar, qadriyatlargacha e’tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o‘zini tiya oladigan, o‘z hatti-harakatlari bilan o‘zgalar nafratini qo‘zg‘amaydigan xulq-atvordir. Faoliyat jarayonida hosil bo‘lgan malaka va odatlar axloq me’yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri o‘quvchilik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o‘qish, mehnat, o‘yin sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta’sir etishi mumkin. Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda faoliyatning biror turi asosida amalga oshiriladi.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyaning tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, keng va tor ma’nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma’noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta’sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg‘unlashadi.

Tor ma’nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- ✓ jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- ✓ jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi “inson kapitali”ni tayyorlash;
- ✓ madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;
- ✓ ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish, tushuniladi.

## **Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o'rni**

Tarbiya-aniq maqsadlarni ko'zlab, sistemali ravishda, ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo'lida, tarbiyachi rahbarligida va oila hamkorligida amalga oshirilib boriladigan ijtimoiy jarayonlardan biridir. Tarbiyachi va ota-onalar tomonidan bolani har tomonlama yetuk bo'lib yetishishi uchun berilayotgan tarbiyaga tashqi muhit ham o'z tasirini ko'rsatmay qolmaydi. Berilayotgan yoki bola tomonidan qabul qilinayotgan tarbiya orqali bolada yangi fazilatlar hosil bo'ladi va tug'ma ravishdagi kamchiliklarni ham bartaraf etsa bo'ladi. Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Asosiy qism: Endi biz bolaga qanday tarbiya berish va qachondan boshlab uni tarbiyalash kerak? - degan savolga e'tibor qaratishimiz lozim. Har bir shaxs oilada tug'ilib, ijtimoiy hayotga mana shu o'z koshonasi orqali kirib boradi va hamma tarbiya shu oiladan boshlanadi. Demak, bu fikrdan kelib chiqib, biz bolaga tarbiya berishni nafaqat tug'ilgandan so'ng, balkim ona qornidaligidayoq berib borishimiz masadga muvofiq bo'ladi. Bizning bunday usulda beradigan tarbiyamiz bolani rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola tug'ilgan zahotiyoy atrof muhitga bo'lgan moslashish hissi uyg'onadi. Astasekin ulg'aya boshlagach, har bir narsani farqlaydigan va ko'rgan narsalariga taqlidchan bo'lib voyaga yetadi. Bola tarbiyasi, uning yetuk va barkamol bo'lib tarbiyalanishi onalar uchun eng muhim vazifadir. O'ylaymanki, har bir onalar bunday mas'uliyatli ishga bor kuchlari bilan kirishadilar. Har bir ona bolalarga tarbiya berayotganlarida o'z shaxsiy tarbiya vositalaridan va usullaridan foydalanishi kerak. Hozirgi jamiyatda ayrim onalar umuman olib qaraganda bolaning oila a'zolari tomonidan amalga oshirilayotgan eng katta xatolaridan biri, ularning faqatgina bola "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari"ga borgandagina, shu tashkilot tarbiychilari tomonidan tarbiya va ta'lim beriladi deb o'ylashlaridir. Biz onalar tomonidan tor doirada o'ylanayotgan bunday fikrlarga hozirgi davrda aynan qarshi chiqmasdan ilojimiz yo'q. Chunki, vatanimizning har tomonlama rivojlanishi shu murg'ak qalbli o'sib kelayotgan bolalar qo'llidadir. Bolani har tomonlama rivojlantirish, barkamol qilib tarbiyalash va albatta jamiyatda o'z o'rmini topa olishi uchun eng avvalo, ota-onalar va so'ngra, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar haqida yaqqol fikrlar bildirilgan.<sup>88</sup> Bola ta'lim-tarbiyasining rivojlanishida turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi.

Qadimgi bahslardan biri insonni uning nasli shakllantiradimi yoki u oladigan ta'limtarbiyami? Shu savol qiynayapti. Ammo bugungi kunga qadar biror ishonchli nazariya bu

bahslarga chek qo'ymaydi. Nixoyat, bir tarafdan miyaning fiziologik tadqiqoti, ikkinchi tomondan bolalar psixologiyasini o'rganish natijalariga ko'ra, bola aqliy qobiliyatining rivojlanish kaliti-bu uning birinchi uch yilida, ya'ni miya hujayralarining rivojlanish davrida olgan shaxsiy tajribasidir.

Tug'ilgandan boshlab uch yilda olgan asosiy ta'lim-tarbiyasi uning kelajagi uchun ajralmas poydevor hisoblanadi. Bolaning qay darajada bilimli bo'lishi, o'sha davrdagi o'qitish usuliga bog'liq bo'ladi. Bu davr erta ta'lim deb nomlanadi. Erta ta'limning yagona maqsadi bolani aqilli va sog'lom, o'tkir zexnli va gapga qulq soladigan qilib tarbiyalashdir. Barcha bolalar, agarda ularda tug'ma, jismoniy nosog'lomlik va aqli zaiflik bo'lmasa, ular bir xilda ong bilan tug'iladi, hech bir bola ona qornidan biron bir bilimni bilib tug'ilgan emas albatta. Bolalarning qay darajada kamol topishi ota-onalarga bog'liq. Bolalarga bu davrda kerakli bo'lgan ta'lim tarbiya berishning asosiy sabablaridan biri bu inson miyyasi, taxminan 1,4 milliard hujayradan iborat bo'lishi, biroq yangi tug'ilgan chaqaloqlarda uning aksariyati hali shakllanmaganligidir. Miya hujayralari alohida-alohida tarqoq holda ishlamaydi. Miyyaning mikro sur'atiga qaraydigan bo'lsak, tug'ilgandan so'ng vaqt o'tib ongi rivolangan sari uning hujayralari orasida shoxlar paydo bo'ladi. Shu jarayonlarda biz bolalarga ta'lim-tarbiya bersak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tug'ilgandan keyin birinchi olti oy davomida miyyaning salohiyati 50%, uch yoshgacha esa 80%ga yetadi. Ana ko'rdingizmi bu darajadagi rivojlanish shunchaki rivojlanish emas, balki natija beradigan qilib tarbiyalash lozimligini ko'rsatib turibdi. Demak biz "bolaga tarbiya qachondan boshlab berilishi kerak?" degan savolga anniq javob oldik. Bola tug'ilgandan boshlab unga tarbiya berish lozim. Bu haqida buyuk shaxslar ham o'z fikrlarini bildirganlar. Xususan, Yusuf Xos Xojibning uqtirishlaricha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. Farzandlar tarbiyasi nixoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin hattiharakatlariga berilishining oldi olinadi. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beriladi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur deb uqtiradi. Allomalarimizning fikrlari yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga to'laqonli mos ekanligi biz va sizga yaqqol ko'rinish turibdi. Endi bu yosh

davrda bolaga qanday qilib ta’lim va tarbiya berish mumkun degan savol tug’iladi albatta. Bu savolning javobini quyida berilgan ma’lumotlar orqali topamiz. Bola tug’ilgandan so’ng, u gapishtini, o’qishni, yozishni bilmasa ham unda sezgi a’zolari juda kuchli rivojlangan bo’ladi. Hozirgi zamon onalaridan farzandlariga bo’lgan juda katta e’tibor talab qilinadi. To’g’ri, endi tug’ilgan go’dakka bu narsa bunday, u narsa unday deb yoki qilayotgan ishing to’g’ri, aksincha noto’g’ri deb tarbiya berib bo’lmaydi. Lekin onalar va otalr ular uchun tarbiya manbai hisoblanadi. Bundan ko’rinib turibdiki, avvalo ota-onada birinchi navbatda oliy darajada tarbiyalangan bo’lishi kerak. Shundagina ular farzandlari uchun o’zлari xoxlagandek tarbiyani bera oladilar. Go’dak hali yosh bo’lishiga qaramay ota va ona munosabatlarini kuzatuvchisi va ularning bir-biriga bo’lgan muomalasidan asosiy tarbiyani oluvchi hisoblanadi. Chaqaloq ularning bir-birlariga qanday munosabat bildirayotganini ularning yuz tuzilishidan bemalol bilib turadi. Shuning uchun bolalarga tarbiya berayotganlarida nihoyatda ehtiyojkoronalik bilan munosabat bildirishlari lozim. Bolalarda birinchi uch yilliklarida olgan bilimlari ularning keljakda o’z faoloyatlarini bemalol yurita olishlari uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Bu davorda xalqimizning ongiga singib qolgan bir tushuncha “Hali yoshda” deb nomlangan tushuncha bularning o’z farzandlariga bo’lgan mehribonchiliklarini emas, balki jabr qilayotganliklaridan dalolatdir. Bu davorda bolaga nimani o’rgatsa shuni to’laqonli qabul qiladigan yosh hisoblanadi. Bolalar bilan ko’proq muloqotda bo’lish ham ularning tarbiyalishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Bolalar hali yosh bo’lishlariga qaramay, ular yuqoridagi fikirlarimizda ta’kidlaganimizdek hamma narsani tushunadi. Bolalar bilan suhbatlashish, ularning dunyo qarashlarini har taraflama rivojlantrib boradi. Bolalarda bu davorda ularga o’z hayot yo’llarini qurishida asosiy bo’lgan sohalarga boy davr hisoblanadi. Bu yoshdan ota-onalar bolalarga kerakli ko’nikmalarni berib borsalar, keljakda ota-onalar ham bolalar ham qiyalmaydilar. Ota-onalar bolalarga ular uch yoshgacha bo’lgan davrda ma’sul bo’lsalar, o’z vazifalarini to’laqonli amalga oshirsalar keyingi bosqich bu tarbiyachilar bilan birga hamkorlikdagi bosqich hisoblanadi. Bu davr ham bolalar hayotida o’ta muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bola bu yoshida Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga borish orqali boshqa bolalar bilan munosabat, o’zaro aloqa o’rnatishni o’rganadi. Tarbiyachi tomonidan beriladigan har qanday bilim bolalar ongida tez tasavvurlarni hosil qiladi. Har bir tarbiyachi, bolalarga ularning yoshidan kelib chiqib mashg’ulotlar olib boradilar. Mashg’ulotlar bolalarni

har tomonlama rivojlantrishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Tarbiyachining yurishturishi, kiyinishi, so'zlashi va barcha amalga oshiriladigan ishlari bolalar uchun istasa istamasa o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shuning uchun avvalo, tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari Anton Semenovich Makarenkoning "Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan qarzdordir" – degan so'zlari orqali hozirgi zamon tarbiyachisiga qo'yiladigan vazifalarning nihoyatda murakkabligiga e'tibor berishimiz lozim. Xulosa: Ota-onalar va tarbiyachilar oldida bolani nafaqat mакtabga, balki katta hayotga tayyorlashdek muhim vazifa turar ekan, ular bu vazifalarnga ma'suliyatli holda yondoshishlari lozim. Zero "O'zbekiston kelajagi yoshlар qo'lida". Tarbiyachi tomonidan beriladigan har qanday bilim bolalar ongida tez tasavvurlarni hosil qiladi. Har bir tarbiyachi, bolalarga ularning yoshidan kelib chiqib mashg'ulotlar olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o'rni**

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida roli uning bilish, ko'rgazmali, o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek. muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi, shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

Faoliyat-kishining moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan hatti-harakatlar majmuasidir.

Faoliyat-insonni belgilangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishishdir. Faoliyat-bir narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xoxishi (jarayoni)<sup>1</sup>.

Bolaning faoliyatdagi faol mavqeい uni faqat tarbiya ob'ektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub'ektiga ham aylantirdi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlanishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi.

Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatning xilma-xilligi va boyligi, uni egallahdagi muvaffaqiyat oiladagi, bolalar bog'chasidagi tarbiya va ta'llim sharoitlariga bog'liqk, bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining (hissiy va hissiy-predmetli muomalasining) eng oddiy turlari unda ta'surotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo'yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog'liq bo'ladi. Hayotning dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o'z ichiga oladigan yo'l-yo'riq iadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo'ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yo'l bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o'zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi.

Bola ikki yarim yoshga to'lganda buyumlar bilan bog'liq faoliyat va muomala ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o'yin va tasviriy faoliyatga o'tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uyushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola o'zini atrofdagi odamlardan ajratadigan, o'z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo'la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari xulqatvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o'z xoxishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi.

Tarbiyachilar rahbarligidagi o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni

o'zlashtiradilar. Bolalar vaqt munosabatlarini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlanishiga, kelajakda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O'yin xayolni rivojlantirishga, atrofdagi vogelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o'z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko'nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 3-4 yoshda ta'lim paytida bolalarning e'tibori tabiat, odamlar hayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5- 6 yoshli bolalarga ta'lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o'zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bolarning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga etadiki, u bolaga maktabdagagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

93

Kichik maktab yoshida asosiy narsa o'qish bo'lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqeい o'z hatti-harakatini va tengdoshlarining hatti-harakatini o'zgacha nuqtai nazardan maktab o'quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning

uning xulk-atvoriga va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkabiashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy-tarixiy tabiatи har bir yosh avlodga ob'ektiv ravishda berilgan bo'ladi. Odamlarning ishlab chiqarish quollarida, bilimlarda, san'atda, axloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari bирgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lган paytda tarbiya va ta'lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiatи ana shunday shakllanadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg'otib, yangi hulk- atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagina kutilgan natjalarga erishadi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

- 1.Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o'rni qanday?
- 2.Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati ni aytib bering?
3. Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o'rni qanday?
- 4.Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o'rni qanday?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**

#### **1. "Individ" nima?**

- a) Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi.
- b) Bola ma'lum yoshga qadar "shaxs" sanaladi.
- c) Bola ma'lum yoshga qadar "inson" sanaladi.

#### **2. Shaxs deb kimlarni aytamiz?**

- a) Muayyan jamiyatning a'zosi
- b) Pixologik jihatdan taraqqiy etgan
- c) hatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi

#### **3. Irsiyat deganda nimani tushunasiz?**

- a) bolaga ota-onा va umuman yaqin ajdodlardan ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi
- b) bolaga muhitdan o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi
- c) bolaga nasldan-naslga o'tadigan o'xshashliklar tushuniladi

## **7.Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri**

**Reja:**

- 1.Maktabgacha yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi.
- 2.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri.
- 3.Maktabgacha ta'limda tarbiya berish usullari va vositalari.

**rivojlanish sohasi** — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

**kichik soha** — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

**kutilayotgan natija** — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

**bola kompetensiyasi** — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlari;

### **Maktabgacha yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berish masalalari Abu Ali ibn Sino merosida yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Beruniy ota-onalarning bolalari bilan birga harakat qilishlari, turli o'yinlar uyushtirishlari, ular bilan o'zaro suhbatlar o'tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Beruniy tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqidagi, shaxsning rivojlanish to'g'risidagi fikrlarining zamirida insonparvarlik g'oyasi yotadi. U har bir ota-ona o'z farzandlariga ana shu g'oyani singdirishi zarur degan xulosaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini muhim uyushtirish, ularni vaqtidan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga oqtirishlari lozim. Bola tarbiyasi masalalari bo'yicha Abu Ali ibn Sino "Tadbir almanozil" nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritilgan. Asarda oilada onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb<sup>95</sup> va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalarga keng o‘rin berilgan. Oilada farzand tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasi uning ma’naviy olamida e’tiqodni shakllantirish deb hisoblagan edi olim.

Yusuf Xos Xojib “Qutadg‘u bilig” asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e’tibor beradi. Ota-onalar nazoratda bo‘lgan bolaning ma’suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota –onaning mavqyei alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to‘g‘ri yo‘l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun muhimdir. Mirzo Ulug‘bekning qarashlarida bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rin tutadi. Kaykovus “Qobusnama” pandnomasida o‘z farzandining sening haqingda qanday bo‘lishini xohlasang, sen ham ota-ona haqida shunday bo‘lg‘il deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga e’zozlashga, mehr –oqibatli bo‘lishga da’vat etadi. Bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir masalasi Alisher Navoiy merosida ham munosib o‘rin egallaydi. U o‘zining qator asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g‘oya ekanligini ta’kidlaydi.

Ya.A.Komenskiy o‘zining “Onalar maktabi” kitobini maktabga tayyorlash bobida, shunday yozadi, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma’lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Komenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko‘rsatadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda maktabga borganda o‘z tengdoshlari bilan o‘qigan va o‘ynagan xursandchilik hissini tug‘dirish;
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabdagi ta’limning mohiyatini tushuntirish, maktabdagi faoliyat turlari bilan tunishtirish;
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar bo‘lajak o‘qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Ta’lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi ma’lum darajada nasliy omillar bilan ham bog‘liqdir. Bolalar o‘z temperamenti xususiyatlariga ko‘ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar:

- xushchaqchaq, sergap, quvnoq, xayotning o‘zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar sangvennik temperamentga mansub;
- qo‘srimcha noxush kayfiyatda yuradigan, ta’sirchan, kamgap, sust bolalar –melanxolik temperamentga kiradilar;
- xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar –flegmatik;

- jaxldor, betoqat, serzarda, xarakatchan bolalar –xolerik hisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muhtoj bo‘lishiga ham qarab bir-birlaridan farq qiladilar. Ba’zi bolalar biror hatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko‘rsatish, tushuntirish kerak. Bolalar o‘zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir –birlaridan ajralib turadilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo‘lib rivojlangan bo‘lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, o‘ylaymizki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson bo‘lib yetishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy histuyg‘ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo‘llasa, yaxshi xulq namunalarini o‘rgatish ancha oson kechadi.

### **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta’siri.**

Yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob’yektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta’sir ko‘rsatishidir. Demak, aql keng ma’noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o’z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig’indisi bo‘lib, u yosh avlodning insoniyat to’plagan bilimlar, ko’nikma va malakalar, me’yorlar, qoidalar va boshqalarda ro’y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, keraqli shart-sharoitlarni yaratishni o’z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma’lum maqsad asosidagi ta’sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg’otish, aqliy malaka va ko’nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg‘ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo’lgan jarayonlar yig’indisidir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog’lanishlarda, munosabatlarda ko’ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo’ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo’lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o’quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish,

loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, ko'rish-yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiyligi charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi - bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir. Bola har doim buyumlar hamda hodisalar orasida bo'ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, tortib ko'radi, nimagadir qulq solidi. Shu tariqa dunyoni bilib oladi. Tevarak atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari-analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil qiladi. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalari: sovuq-issiq, g'adir-budur, silliq-yaltiroq, xushbo'y ni bilim olishga yordam beradi. Bola sezgi organlari yordamida tevarak-atrofdagi narsalar to'g'risida bilim, tajriba to'plab boradi.

### **Maktabgacha ta'limda tarbiya berish usullari va vositalari.**

Ta'lim usullari-bu pedagog professional ravishda egalik qilishi shart bo'lgan o'quv jarayonining muhim va juda murakkab tarkibiy qismlari. Pedagogikadagi ko'plab tushunchalar singari ta'lim va tarbiya usullari ham turli yo'llar bilan shakllantirilgan. Biz bir nechta

misollarni keltiramiz (bu olimlarning fikri, turli vaqtarda nashr etilgan pedagogika darsliklarning mualliflari).

G.I.Shukina: Ta’lim usullari-bu bolaning ongiga, xulq atvoriga, ularda zarur fazilatlarni shakllantirishga, o’z tajribalarini foydali faoliyat va xilma-xil munosabatlar bilan boyitishga maqsadli pedagogik ta’sir ko’rsatish usullari.

Ta’lim usullari faqat “teginish vositasi” bo’lishi mumkin (A.S.Makarenko) agar o’qituvchi ularni birlashtirishning eng yaxshi variantini to’g’ri topsa, agar u bolalarning rivojlanish darajasi va tarbiyasi, ularning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, intilishlarini hisobga olsa.Ta’lim usullarini tanlashda bolalarning xulq-atvori va faoliyatining sabablarini bilish ayniqsa muhimdir.Bu yerda bolalarni oddiy kuzatish yetarli emas, maxsus diagnostika usullari kerak bo’ladi. Turli pedagogik vaziyatlarda ta’lim usullari doimo o’zgarib turishi kerak, bunda ta’lim jarayoniga professional va ijobiy yondashuv namoyon bo’ladi.

Pedagogika nazariyasida ta’lim usullarining tasnifi ishlab chiqilgan bo’lib, u usullarning o’ziga xos xususiyatlariga va ularni o’quv jarayonida o’ziga xos xususiyatlariga asoslanadi.Ta’lim usullari ta’limga faol yondashishga va faoliyatning tuzilishiga asoslanadi.Psixolog L.L.Lyublinskaya Faoliyat tarkibidagi quyidagi asosiy aloqalarni aniqlaydi.

-maqsad-inson nimani xoxlaydi;

-insonni harakatga undaydigan sabab, buning uchun odam harakat qiladi;

-maqsadga erishish uchun ishlatiladigan vositalar;

-moddiy sohada yoki ma’naviy faoliyat natijalari;

-insonning faoliyat natijalari va jarayoniga munosabati;

Faoliyat tarkiida allaqachon ma’lum ta’lim imkoniyatlari mavjud.Faoliyatning ushbu tuzilishiga asoslanib, ta’lim usullarining to’rt guruxi ajralib turadi:

1.Shaxs ongini shakllantirish usullari (qarashlar, baholashlar, hukmlar)

2.Faoliyatni tashkil etish usullari, aloqa, xulq-atvor tajribasi.

3.Faoliyat va xulq-atvorni rag’batlantirish va rag’batlantirish usullari.<sup>99</sup>

4.Faoliyat va xulq-atvorni boshqarish, o’zini-o’zi boshqarish va o’zini-o’zi baholash usullari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar doimiy ravishda turli tadbirlarda qatnashadilar.Ular kichik guruxlarda o’ynashlari, yakka tartibda va tengdoshlari bilan qum uylari va qal’alar

qurishlari, sport o'yinlarini yaxshi ko'rishlari, kognitiv nutq va matematik musobaqlarda o'yinlarda faol ishtirok etishlari mumkin.

Faoliyat va xulq-atvorni rag'batlantirish usullariga quyidagilar kiradi:rag'batlantirish, jazolash, raqobat.

Ushbu usullar orasida maktabgacha tashkilotida eng keng tarqalgan-rag'batlantirish va jazolash.

Nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarish, shuningdek o'zini-o'zi baholash usullari.

Ushbu bosqichda bolaga o'zini baholash,o'z harakatlarini talablar bilan bog'lash o'rgatiladi.

Shunday qilib, haqiqiy pedagogik jarayonni tahlil qilish ta'lim usullari bir-biridan alohida qo'llanilmasligini ko'rishga imkon beradi, ularning barchasi bir-biri bilan bog'liq va vaziyatga qarab, ba'zi usullar boshqalarga o'tadi. Shu bilan birga, yetakchi usul har doim ajralib turadi, qolganlari esa uni to'ldiradi. Pedagogik nazariyada ta'lim usullarining tasnifi ishlab chiqilgan bo'lib, u usullarning o'ziga xos xususiyatlariga va ularni o'quv jarayonida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi.

Ushbu usullarning barchasi yordamida bolalarni tarbiyalash ta'minlanadi: bolalarning hatti-harakatlari tuzatiladi, shaxsiy fazilatlar shakllanadi, hayotiy tajribalar ishlab chiqiladi. Shuni aytish kerakki, ularning barchasi insonni ijtimoiy birlik sifatida to'liq rivojlantirish va tarbiyalashga qaratilgan.

Yu.K.Babanskiy: "ta'lim usuli-bu har tomonlama rivojlangan shaxsni maqsadli shakllantirish mazmuni, maqsadlari, vazifalari, mazmunini amalga oshirish uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro bog'liq faoliyatning umumlashtirilgan usulidir".

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ta'lim jarayonining umumiyligi qonuniyatlarini ham, maktabgacha yoshdagi bolalik davridagi bolaning rivojlanishining o'ziga xosligi ham boshqariladi. Ta'lim bolaning hatti-harakati, faoliyati va dunyoga munosabatini belgilaydigan mustaqillik, kognitiv va kommunikativ faollik, ijtimoiy ishonch va qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan". 145].<sup>100</sup>

Bolaning faoliyatdagi faol mavqeい uni faqat tarbiya ob'ektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub'ektiga ham aylantirdi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda

ularning roli bir xil bo‘lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo‘ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma’lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallahdagi muvaffaqiyat oiladagi, bolalar bog‘chasidagi tarbiya va ta’lim sharoitlariga bog‘liq, bo‘ladi. (A. N. Leontev va boshqalar).

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining (hissiy va hissiy-predmetli muomalasining) eng oddiy turlari unda taassurotlarga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo‘yilgan zaminga, taqlid qilishga ham borliq bo‘ladi. Hayotning dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o‘z ichiga oladigan yo‘l-yo‘riq tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo‘ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo‘lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yo‘l bilan bolalar o‘ziga xos buyumlar bilan bog‘liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o‘zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi.

Buyumlar bilan bog‘liq faoliyatni tashkil etish oilada ham, mактабгача ta’lim ta’limtashkilotida ham ikki va ych yoshli bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyatda barcha bilish jarayonlari, maqsadlari va xulq-atvor sabablari rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to‘g‘risida dastlabki bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Bola ikki yarim yoshga to‘lganda buyumlar bilan bog‘liq faoliyat va muomala <sup>101</sup> ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o‘yin va tasviriy faoliyatga o‘tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uyushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o‘zini-o‘zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola o‘zini atrofdagi odamlardan ajratadigan, o‘z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo‘la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu

bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O‘zini-o‘zi anglashning dastlabki shakllari xulq-atvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi bo‘ladigan o‘yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi o‘yinlar chog‘ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, o‘xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o‘yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo’l-yo’riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o‘yinlarda bolalar odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o‘zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

- 1.Maktabgacha yoshidagi bolalar ta’lim-tarbiyasining mazmunini izohlab bering.
- 2.Shaxs rivojlanishida tarbiyaning roli qanday?
- 3.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta’siri.
- 4.Maktabgacha ta’limda tarbiya berish usullari va vositalari qanday?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**

#### **1. Ta’lim usullari-bu.....**

- a) .....pedagog professional ravishda egalik qilishi shart bo’lgan o’quv jarayonining muhim va juda murakkab tarkibiy qismlari.
- b) ..... bola o‘zini atrofdagi odamlardan ajratadigan, o‘z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo‘la boshlaydi
- c) ..... bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi

#### **2. Usullar orasida maktabgacha tashkilotida eng keng tarqalgan usullar qaysilar?**

- a) rag’batlantirish va jazolash.
- b)tanbex berish
- c)maqtash

#### **3. Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy.....**

- a).....qobiliyatari, xususiyatlarini <sup>102</sup> va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.
- b) .....munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.
- c) .....shaxsning rivojlanishi uchun zarur omillar.

## **8.MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING JISMONIY TARBIYASI.**

### **Reja:**

- 1.Jismoniy tarbiya tushunchasi.
- 2.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishiga qo’yiladigan talablar.
- 3.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya berish usullari.
- 4.Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasining vositalari.
- 5.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish, sport musobaqalarini o’tkazish.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Iste’dod**-har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli av takrorlanmas qobiliyat.

**Komil inson**-inson aqliy takomillashuv bosqichlaridan biri.

**Jismoniy madaniyat**-bu insonning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro’yobga chiqaruvchi uni tobora insoniylashtirib, ham jismoniy, ham ma’naviy chiniqtirib boruvchi jarayondir.

### **Jismoniy tarbiya tushunchasi.**

Mashhur yunon donishmandi aflatun baxt haqida zikr etib: “Inson uchun birinchi baxt-uning sog’ligi, ikkinchisi-go’zallikdir” degan ekan. Chindan ham sixat salomatlik hamma boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog’lom va ma’naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog’lom-baquvvat, iymon e’tiqodli va sadoqatli bo’ladiki, bu baxt ona-Vatanning shuxrati va qudratining zo’r omiliga aylanadi.Xalqning ana shunday baxtsaodati uchun sog’lom avlod kerak.

Sog’lom avlod deganda biz ham jismoniy, ham ma’naviy tomondan yetuk, bardam, har ishga qodir, ilg’or madaniyatki kishilarni ko’zda tutamiz.Darhaqiqat, shunday noyob fazilatlarga ega avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakka ochiq ko’z, yorug’ yuz, katta ishonch bilan qaraydi.

Ona-tabiat ato etgan oliy mohiyatga ko’ra, biz o’zbeklar hayotimizning, umrimizning mazmunini farzandsiz tasayyur etolmaydigan xalqmiz. Dunyoga kelib farzand ko’rish, imorat qurish, nihol ekib bog’ yaratish ota-bobolarimizdan qolgan nasliy an’ana, ezgu tilak va qutlug’ insoniy burchdir.Shuni alohida shukronalik bilan ta’kidlash lozimki, xalqimiz tarixning mashaqqatli sinovlari ona o’zining ana shu oljanob xislat-fazilatli an’analariga zavol yetkazmay saqlab kelmoqda.

Ajdod avlodlarimiz o’z nasllarini umumbashariy tuyg’ular, o’lmas Sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar.

Insonning kuch va qobiliyatlarini tahlil etganda, u uchga bo’linadi: jismoniy,aqliy va axloqiy.Shunga binoan insonning bu kuch-qobiliyatlarining taraqqiysi yuksalishini ta’min etadigan tarbiya ham uch qismga ajraladi: bular badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, axloq tarbiyasidir.

Badan tarbiyasining maqsadi har tomonlama jismonan chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat’iyatli, Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishdan iborat.Bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi.Birinchi vazifa-sog’liqni mustahkamlash, tana a’zolarini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to’g’ri rivojlanish hamda uning ishlash qobiliyatining oshishiga ta’sir etishdir.

Maktab yoshidagi bolalarning qaddi-qomatini to’g’ri mutanosib shakllantirish, suyak bo’ginlarni va muskullarni uyg’unlashgan tarzda rivojlantirish, yurak-tomir hamda nafas olish a’zolarining asab tolalari majmuasini mustahkamlashtirish muhim.

Tana-a’zolarining mo’tadil faoliyati uchun harakat juda zaruriydir.Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino “TIBBIY DOSTON” asarida riyozat-badan tarbiyasi haqida to’xtalib, uning bir necha xillari bo’lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o’rtacha shug’ullanish sog’liqqa foydali ekanligini bunday ta’riflaydi.

Bilsang riyozat turlari necha-necha

Sharofatli bo’lur esa u o’rtacha

To’g’ri va mo’tadil bo’lib o’sgay badan,

Kir-chir ila chiqindidan qutular man.

Olim yana, jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xulqlarning yig’ilishiga sabab bo’lishini alohida uqtirib bunday deb yozadi:

Riyozatsiz yotishdan ko’p topma rohat,

Bu rohatdan topolmassan hech manfaat.

Jim yotsang iflos xult-la to’lar badan,

Fizocha hech hozirlanmas biror maskan.

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksiz ekanligini D.Adisson bunday tasvirlaydi: “Mutolaa aql uchun qancha zarur bo’lsa, jismoniy mashqlar ham badan uchun shuncha zarur”

Suqrot hakim esa bunday deydi:

“Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini to’g’rilab olaman”.

Olim Ivan Pavlov ta’kidlanganidek bosh miya po’stlog’ini “kuchaytirish va mustahkamlash” yo’li bilan asab jarayonlarining faolligini yanada oshirish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, bolalarning sog’lig’ini faqat jismoniy tarbiya darslari hamda mакtab rejimi sharoitida o’tkaziladigan maxsus tadbirlar hisobigagina mustahkamlash qiyin.Chunki bu jarayon ota-onasiga, tarbiyachi, butun pedagoglar jamoasining ishi bo’lib, sog’lomlashtirish bilan bolalarni muntazam ravishda, butun yil davomida shug’ullantirish kerak.

Ikkinchи vazifa-bolalarda yangi harakat turlariga qiziqish, ko’nikma va malakalar hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish zarur. O’qitish jarayonida bolalar harakat, ko’nikma va malakalar hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish zarur.

O’qitish jarayonida o’quvchilar harakat, ko’nikma va malakalarni egallaydilar.Bu malaka va ko’nikmalar jismoniy tarbiya bo’yicha tuzilgan o’quv dasturida nazarda tutilgan bo’lib, ulardan ba’zilari, masalan tez yurish, yugurish sakrashlar amaliy mashqlardir.Shu bilan birga, bu mashqlar gimnastika anjom-asboblarida mashq qilish, akrobatika, badiiy gimnastika harakatlarini koordinatsiya qilishga, shuningdek, yangi harakatlarni osonroq va qisqa vaqt ichida o’rganib olishga ko’maklashadi, ko’nikma va malakalar hosil qiladi.

Uchinchi vazifa-bolalarning yoshiba, jinsiga muvofiq keladigan asosiy harakat sifatlarini rivojlantirishdir.

To’rtinchi vazifa-o’quvchilarda o’z sog’ligiga ongli munosabatni tarbiyalash <sup>105</sup> bo’lib, bu ularning ozoda-sarishtalik tartibida, gigiyena qoidalariga rioya qilishlarida, ertalabki gimnastika bilan shug’ullanishlarida hamda sport mashq’ulotlarida muntazam qatnashishlarida namoyon bo’ladi.Badan tarbiyaning sihat-salomatlikka foydasini bola qanchalik yaxshi bilib olsa, qiziqish shunchalik ortadi.

Mo'tadil ravishda, o'z vaqtida badan tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmasligini chuqur anglab olishi kerak.

Olim va shifokorlarning kuzatishlaricha, badan tarbiya tug'ma issiqlikni oshiradi, tanaga yengillik beradi. Chunki, bular yengilgina issiqlik paydo qiladi, a'zolarda to'planuvchi chiqindilarni yo'qotadi.

Badan tarbiya mashqlari tartibli va yo'li bilan bo'lsa, fikrni uyg'unlashtiradi, qon yurishiga yordam beradi, hazmni yaxshilaydi, asabni quvvatlantiradi, tan haroratini orttiradi, zehnni ochadi.

### **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishiga qo'yiladigan talablar.**

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining maqsadi-mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

Davlat talablarining asosiy prinsiplari

Davlat talablari quyidagi asosiy prinsiplarga<sup>66</sup> asoslanadi:

- bolaning noyobligi;
- “Men” konsepsiysi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli;
- bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;

-bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;  
-bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli har bir bolaga moslashuvchan bo‘lib, individual variativlik asosida yondashish.

### Davlat talablarining tarkibi

Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini nazarda tutadi va bola rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan) iborat.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo‘yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;

-ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

-nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;

-bilish jarayonining rivojlanishi;

-ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

-yirik motorika;

-mayda motorika;

-sensomotorika;

-sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

-“Men” konsepsiysi;

-hissiyotlar va ularni boshqarish;

-ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:<sup>107</sup>

-nutq va til;

-o‘qish malakasi;

-qo‘l barmoqlari mayda motorikasi.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

-intellektual-anglash malakalari;

-elementar matematik malakalar;

-tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

“Ijodiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

-dunyoni badiiy tasavvur etish;

-badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

go‘daklik (tug‘ilgandan 1 yoshgacha);

erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);

o‘rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);

katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);

maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar mazkur Davlat talablariga **1- ilovada** belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar mazkur davlat talablariga **2- ilovada** belgilangan.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya ustidan amalga oshiriladigan shifokor nazorati tibbiy xizmati yagona sistemasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shifokor nazorati-bu jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi turli yoshdagi kishilarning sog’ligi kishilarning sog’ligi jismoniy rivojlanishni o‘rganadigan tibbiy bilimlarning maxsus soxasidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi jarayonida shifokor nazoratining asosiy vazifasi ularning sog’ligini mustahkamlash, jismoniy va nrv-psixik rivojlanishini takomillashtirishga ko‘maklashishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tibbiy nazorat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jarayonida bolalarning sog’ligi jismoniy rivojlanishi va funksional imkoniyatlarini shifokor tomonidan tekshirilishi va baholanishini;

- 2) Jismoniy tarbiyaning turli xil shakllarini o'tkazish tibbiy pedagogic kuzatish, jismoniy mashqlarning mazmuni, o'tkazish metodikasini bola yoshi va funksional imkoniyatlarini shifokor tomonidan tekshirilishi va baholanishini;
- 3) Jismoniy mashqlar, ertalabki gimnastika, harakatli o'yinlar, sport mashqlari, chiniqtiruvchi tadbirlar o'tkaziladigan joylari, jismoniy tarbiya jihozlari inventarlari, shuningdek, shug'ullanuvchilarining kostyum va oyoq kiyimlarining gigiyenik holati ustidan sanitariya nazorati o'rnatishni;
- 4) Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari, ota-onalar va bolalar o'rtasida sanitariya va maorif ishlari uyuştirishni o'z ichiga oladi;

Jismoniy rivojlanishni baholash ana shu asosiy ko'rsatkichlar dinamikasiga asoslanadi. Amalda bolaning jismoniy rivojlanishi tekshirish chog'ida baholanadi. Bu baho jismoniy rivojlanish xarakteristikasini mahalliy standartlar orqali gavdaning o'lchoviga nisbatan o'z ichiga oladi. Bolaning nerv-psixik rivojlanishining umumiyligi darajasi ayrim psixik funksiyalarning rivojlanishi darajasi bilan xarakterlanadi. Bu esa markaziy nerv tizimining yetilish darajasini aks ettiradi. Bola hayotining birinchi yilda rivojlanishning barcha belgilarini shifokor aniqlaydi. Hayotining ikkinchi, uchinchi va keyingi yosh davrlarida nerv-psixik rivojlanishining darajasini baholashda shifokor bilan birgalikda maktabgacha tarbiya tashkilotining tarbiyachisi, tibbiyat hamshirasi va ota-onalar ham ishtirok etadilar. Ular kun davomida bolani kuzatishlari, uning oiladagi, tengdoshlari jamoadagi xulq-atvori haqida xabar beradilar.

### **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya berish usullari.**

Jismoniy tarbiyani tshkil etish shakllari-bu bolalarning rang-barang faoliyatini ta'lim-tarbiyaviy majmuasi bo'lib, uning asosini harakat faoliyatiga tashkil etadi.

Bolalar harakat faoliyatini tashkil etishini shakllari quyidagilardan iborat:

- 1.Jismoniy tarbiya mashg'ulotlar;
- 2.Kun tartibidagi jismoniy sog'lomlashtirish ishlari: ertalabki gimnastika, harakatli o'yinlar va sayr paytidagi jismoniy mashqlar,<sup>109</sup> jismoniy daqiqalar, kunduzgi uyqudan so'nggi jismoniy mashqlar, chiniqtirish tadbirlari;
- 3.Faol dam olish:bolalar turizmi, jismoniy dam olishlari, jismoniy tarbiya bayramlari, salomatlik kunlari, ta'tillar;

4.Bolalarning mustaqil harakat faoliyati;

5.Uyga vazifa.

Bolalarni harakatlarga o‘rgatishning metodik usullari. Har bir alohida metod vazifasi va uni hal etishga bir xil yondashish jihatdan birlashadigan xilma-xil usullarning butun bir kompleksidan iboratdir. Usul–metodning bir qismi, uni to‘ldiruvchi va aniqlashtiruvchi detal hisoblanadi. Tarbiyachi xilma-xil usullarni qo‘yilgan vazifalarga muvofiq umumiy, ijodiy qo‘llanishining ta’lim jarayonini boyitadi, uni individullashtiradi, bir xillikka barham beradi. Bolalarni harakat faoliyatiga o‘rgatish jarayonida metodik usullar har biri aloxida holatda harakat materialining vazifalari va mazmuni, uni bolalar tomonidan o‘zlashtirish darajasi, ularning umumiy rivojlanishi, jismoniy holati, har bir bolaning yosh va tipologik xususiyatlariga ko‘ra tanlanadi. Shu ma’noda ta’lim usullari bir tomonidan bolalar vazifalarni idrok qilayotganda barcha analizatorlarga har tomonlama ta’sir etishni, ikkinchi tomonidan bolalarning harakat vazifalarni ongli va mustaqil bajarishini ta’minlovchi turli birikmalarda kombinatsiyalanadi. Bolalarni harakatlarga o‘rgatishda usullarning birlashuvi ularning o‘zaro harakati bilan belgilanadi. Tarbiyachi tomonidan ko‘proq ko‘rgazmali metodga oid usullar qo‘llanilsa, masalan, harakat namunasini ta’limning barcha bosqichlarida hamda turli yosh guruhlarida ko‘rsatish mashqlarni bola tomonidan mexanik tarzda, tushunmasdan bajarishga olib kelishi mumkin. Bunday holda ko‘proq bolaning idrok qilish organlariga ta’sir etish uning idrokini boyitadi, ayni paytda zarur aqliy jarayonini susaytiradi, muayyan mashqning barcha elementlarini mantiqiy izchillikda ongli tarzda eslab qolishga yordam bermaydi, ba’zan bolani keyinchalik mashqni ixtiyoriy bajarish imkoniyatidan mahrum qiladi. Biroq bunda bolaning yosh imkoniyatlarini (ayniqsa, kichik va o‘rta yoshdagilar) hisobga olmagan holda ko‘proq va faqat og‘zaki usuldan foydalanish ham uni harakatlarni obrazli idrok etishdan, sezgilarining ishonchliligidan, aniq obrazli tafakkur jarayonidan mahrum etadi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarni to‘g‘ri harakatlarga o‘rgatishda ta’limning yuqori darajasiga erishishiga intilib ta’limning turli usullari: ko‘rgazmali, og‘zaki va amaliy usullaridan o‘zaro aloqadorlikda foydalanadi. Shuning uchun, u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, mashqlarning ular tomonidan ongli o‘zlashtirilishiga, muayyan sharoitlarda ularni mustaqil va ijodiy

qo'llashga yordam beradi. Ko'rgazmali metodga oid usullar. Bolalarni harakatlarga o'rgatishda ko'rgazmalilikning turli usullaridan foydalaniladi, yaqqol ko'rish usullari harakat yoki ayrim harakat elementlarining tarbiyachi to'g'ri va aniq namoyish etilishidan: tevarak-atrofdagi hayot ko'rinishlariga taqlid qilishdan; masofani bosib o'tishda mo'ljal olishdan foydalanish; ko'rgazmali qo'llanmalar – kinofilmlar, teleeshittirishlar, fotolavhalar, suratlar va hokazolardan foydalanishdan iboratdir. Taktilmuskul ko'rgazmaliligi bolalarning harakat faoliyatiga jismoniy tarbiya qo'llanmalarini kiritish bilan ta'minlanadi. Masalan, ketma-ket qo'yilgan yoy shaklidagi darvozachalar tizzani baland ko'tarib, yugurish ko'nikmasini hosil qilish maqsadida qo'llaniladi. Yugurish paytida oyoqni bu to'siqlar osha ko'tarib o'tish bolaning tizzani baland ko'tarish ko'nikmasini egallahsga yordam berasdi. Bundan tashqari predmetlar bolalarga yo'l qo'ygan xatosini his qilish va tushunish (mazkur holatda agar oyoqning uchi darvozachalarga tegib ketganda) imkonini beradi. Bola ongida tarbiyachining "darvozachaga tcgib kctmaslik" haqidagi topshirig'ining saqlanib qolishi xato qilayotgan paytida teri muskul sczgisi bilan bog'lanadi va bola o'z harakatining noto'g'riliagini o'zi aniqlay oladi.

Taktilmuskul ko'rgazmaliligi bola gavdasining alohida qismlarini boshqaruvchi tarbiyachining bevosita yordamida ham ifodalanadi (masalan, qad-qomatni to'g'ri muskul tonusi sezgisini uyg'otadigan qo'l tekkizish orqali rostlash). Biroq tarbiyachining bunday yordami qisqa muddatli bo'lishi lozim. Aks holda muayyan dinamik (streotipni hosil qilishga xizmat qiluvchi doimiy qo'zg'atuvchilar tizimidagi signal) ahamiyatiga ega bo'lib qolishi mumkin. Keyinchalik ko'nikma og'zaki ko'rsatmalar yordamida mustahkamlanadi.

Shunday qilib, ko'rgazmalilik usullari bolaning harakatlarini to'g'ri idrok qilishi va tasavvur etishi, hissiy ongini kengayishiga, harakatlarni bajarishda o'z o'zini nazorat qilishning vujudga kelishiga, harakatlar sur'ati va ritmini eshitish orqali boshqarishga,<sup>111</sup> sensor qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Og'zaki metodga oid usullar. Harakatlarga o'rgatishdagi og'zaki usullar quyidagilarda ifodalanadi: bolalarga ulardagi mavjud hayotiy tajriba va tasavvurga tayangan holda yangi harakatlarni aniq, qisqa bir vaqtda bayon etish va tushuntirishda;

harakatlarni aniq ko'rsatish yoki uning ayrim elementlarni aniqlashda; tarbiyachi tomonidan ko'rsatilgan harakatlarni qayta bajarishda yoki mashqlarni bolalar mustaqil bajarishlarida zarur bo'ladigan ko'rsatmalarda; yangi jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarni joriy qilish yoki harakatlarni o'rgatishda ularni tushuntirish, harakatli o'yin syujeti va hokazolarni aniqlashtirish talab etilganda oldindan o'tkaziladigan suhbatda; tarbiyachi jismoniy mashqlarni bajarilishidan oldin harakatlarni bajarish izchilligini anglash; darajasini aniqlash yoki syujetli harakatli o'yinlar obrazlari haqidagi tasavvurning bor yo'qligini tekshirish, qoidalarni, o'yin harakatlari va boshqalarni aniqlashtirish maqsadida bolalarga beriladigan savollarida. Bundan tashqari ko'rsatib o'tilgan usullar turli komandalar, farmoyish va signallarni aniq, emotsiyal va ta'sirchan tarzda berishda ham ifodalanadi. Masalan, tarbiyachi shunday deydi: "Sakrab oyoqlarni yelka kengligida ochib turing!" yoki "To'xtang! Bir, ikki, uch – yuguringlar!" va hokazo. Bu komandalar bolalarning javob harakat reaksiyasining tezligi va aniqligini vujudga keltiradigan turli intonatsiya va dinamikani talab qiladi. Bular qatoriga baland ovozda dona-dona qilib sanash va o'yin boshlanmalarini ifodali talaffuz etishni ham kiritish mumkin. Xalq og'zaki ijodi bunday narsalarga juda boydir. Qofiyali matnlarning musiqiyligi va ritmliligi bolalarda emotsiyal ruh uyg'otadi, natijada bu qofiyalar ular tomonidan oson o'zlashtiriladi va keyinchalik mustaqil o'yinlarda foydalaniladi. Obrazli syujetli hikoya og'zaki usullarga mansub. U harakatlardagi ifodalilikni rivojlantirish va o'yin obraziga yaxshiroq kirish maqsadida qo'llaniladi. Syujetli hikoya amalda ertakni qisqa hikoya (1,5–2 minut) qilishga o'xshashdir. U bolalarda o'yin holati va harakatlarning barchasini xuddi ko'rib turgandek qayta tasavvur qilishga imkon beradi, emotsiyal holatni tiklaydi. Tarbiyachi o'yinni odatdagicha bir xilda tushuntirish, rollarni taqsimlash va harakat o'rmini ko'rsatish (syujetsiz o'yinda bo'lganidek) o'rniغا o'yin syujeti va qoidalarni qisqa obrazli hikoyada ochib beradi. Masalan, "Echki, echkichalar va bo'ri" ertagini shunday boshlaydi: "Bor ekanda yo'q ekan, chiroyli qayrilma shoxli va beozor kulrang oq ona echki bor ekan. Uning kichik bolalari bor ekan..." va hokazo. Bu usul bolalarda his- hayajon uyg'otadi, xayolga chorlaydi. Tasavvurni oydinlashtiradi. Butun vaziyatni ijodiy tarzda bajarishga undaydi, harakatlarning obrazliligini ta'minlaydi. Syujetli hikoyadan bayon etish xarakterini o'zgartirgan holda turli yosh

guruqlarida foydalanish mumkin. Harakatli o‘yinlarda o‘yin mazmunini shakllanishiga yordam beruvchi matnlar, sherdan foydalanish mumkin. Ular orqali bolalar tegishli harakatlarni bajaradilar.

### **Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining vositalari**

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda gigiyenik omillar, tabiatning tabiiy kuchlari va jismoniy mashqlar va boshqalardan foydalaniladi. Har xil faoliyat turlariga kiruvchi (qo‘l mehnati, musiqa asboblarini chalish, loy yoki plastilindan narsa yasash, qurish-yasash, rasm chizish, kiyinish, yuvinish va boshqalar) xilma-xil harakatlar bolaning jismoniy rivojlanishiga ta’sir etadi. To‘laqonli jismoniy tarbiyaga barcha vositalar, umumiy qo‘llanilganda erishiladi, chunki ularning har biri kishi organizmiga turlicha ta’sir qiladi. Gigiyenik omillar (mashg‘ulotlar rejimi, dam olish, ovqatlanish, uyqu, kiyim-bosh, poyabzal, jismoniy tarbiya jihozlari, xonalari, maydonchalari va boshqalar) jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishning majburiy sharti hisoblanadi. Ular jismoniy mashqlarning shug‘ullanuvchilar organizmiga ta’siri samaradorligini oshiradi. Masalan, jismoniy mashg‘ulotlar suyak va muskul tizimining rivojlanishiga yaxshi yordam beradi (to‘laqonli va o‘z vaqtida ovqatlanilganda). Xonalar, jismoniy tarbiya jihozlari, atribut, o‘yinchoqlar, bolalar kiyimlari va poyabzalining tozaligi kasalliklarning oldini oladi. Gigiyena talablarini bajarish bolalarda ijobjiy emotsiya uyg‘otadi va jismoniy mashqlarni o‘zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Gigiyenik omillar ikki turga bo‘linadi. 1. Umumiy madaniy gigiyenik omillar. 2. Shaxsiy madaniy gigiyenik omillar. Umumiy madaniy gigiyenaning omillariga hamma bolalar uchun umumiy bo‘lgan talablar: xona kengligi, yoritilishi, shkaflarning, stol, stul, yuvinish xonasi, yotoqxonada kravatlarning bolalar yoshiga, bo‘yiga mosligi umumiy madaniy gigiyenaga kiradi. Shaxsiy madaniy gigiyenik omillarga esa bola shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan gigiyena, yani bolaning tozaligi, kiyimlarining o‘ziga mosligi, tirnoqlarining olinganligi, dastro‘molchalarining borligi, o‘z shkafi, o‘z sochiqlari, o‘z kravati, o‘z o‘rni bo‘lishi kabilar kiradi. Gigiyena omillari mustaqil ahamiyatga ham ega: ular barcha organ va tizimlarning normal ishlashiga yordam beradi. Masalan, muntazam va sifatli ovqatlanish ovqat hazm qilish organining faoliyatiga ijobjiy ta’sir qiladi va boshqa organlarga zaruriy oziq moddalarning o‘z vaqtida yetib borishini ta’minlaydi,

bolaning normal rivojlanish va o'sishiga yordam beradi. To'laqonli uyqu asab tizimiga dam beradi va uning qobiliyatini oshiradi. To'g'ri yoritish ko'z kasalliklari (shabko'rlik va boshqalar)ning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, bolalarning maydonchada harakat qilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Kundalik rejimiga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlilikka o'rgatadi. Tabiatning tabiiy kuchlari (Quyosh, havo, suv)jismoniy mashqlarning organizmga ta'sirini kuchaytiradi va kishi ish qobiliyatini oshiradi. Quyoshli, ochiq havoda yoki suvda (suzish) bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi, ayrim organlar va organizm tizimlarining funksional imkoniyatlari oshadi (ko'proq kislorod yutiladi, modda almashinushi kuchayadi va hokazo). Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirish, uning yuqori va past haroratga moslashuv qobiliyatini oshirish uchun foydalaniladi. Bular natijasida issiqlikni idora qiluvchi apparat harakatga keladi, ya'ni kishi organizmi meteorologik omillarning xilmashil o'zgarishlariga o'z vaqtida javob bera oladigan darajaga keladi. Bunda tabiatning tabiiy kuchlarini jismoniy mashqlar bilan birga qo'shib olib borish chiniqish samaradorligini oshiradi. Tabiatning tabiiy kuchlaridan mustaqil vosita sifatida ham foydalanish mumkin. Suv terini kirdan tozalash, kishi tanasiga mexanik ta'sir etish uchun qo'llaniladi. O'rmon, bog'lar, xiyobonlardagi shifobaxsh moddalar (fitonsidlar)ga boy havo mikroblarni yo'qotishga yordam beradi, qonni kislorodga to'yintiradi, kishi organizmiga yaxshi ta'sir qiladi. Quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o'ldiradi va kishini turli kasalliklardan (raxit va boshqalardan) saqlaydi. Organizmga har tomonlama ta'sir ko'rsatish uchun tabiatning barcha tabiiy kuchlarini qo'llash, ularni oqilona tarzda birga qo'shib olib borish zarur.

Jismoniy mashqlar. Jismoniy tarbiyaning kishiga har tomonlama ta'sir etuvchi asosiy o'ziga xos shaklidir. Ulardan jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini hal etishda foydalaniladi: aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, ko'plab kasalliklarni davolashda <sup>114</sup> vosita hisoblanadi. Musiqa jo'rligidagi raqs mashqlari organizmning barcha tizimlariga ta'sir qiladi, jismoniy fazilatlar (chaqqonlik, tezkorlik va boshqalar)ni rivojlantiradi, shuningdek, harakatlar nafis, erkin, ifodali bo'lib boradi, ijobiy emotsiyalar paydo qiladi, to'g'ri qomatni shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun raqs va o'yinlarning

xilma-xil elementlari (oyoqlarni yonma-yon qo‘yish kabilar) jismoniy tarbiya vositalari sifatida foydalaniladi. Xilma-xil faoliyat turlari (mehnat, rasm chizish, va narsa yasash boshqalar)ga kiruvchi harakatlar, agar qomatni to‘g‘ri tutishiga rioya qilinsa, shuningdek, jismoniy yuklamalar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, sog‘lig‘ining ahvoli, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini hisobga olgan holda berilsagina bola organizmiga ijobiy ta’sir etishi mumkin. Massaj (silash, surtish, uqalash, shapatilash, titratish) teriga ta’sir qilib kishining butun organizmiga ta’sir etadi. Teri analizatorlarining o‘tkazuvchi yo‘llari bola tug‘ilguncha yuzaga keladi, shuning uchun yangi tug‘ilgan chaqloq teri retseptorlari orqali bo‘ladigan tashqi ta’sirni ko‘proq qabul qiladi (bolalarda 6 oygacha teri yuzasidagi retseptorlar nisbatan ko‘p bo‘ladi). Massaj qon tomiri tizimiga ham ta’sir qiladi. Terida asab kuchlari ta’siriga javob tariqasida tomir reflekslari yuzaga keladi, kapillarlar kengayadi, qon aylanishi kuchayadi, issiqlik chiqarish ortadi. Shu ma’noda massaj organizmni issiq havodan, qizib ketishidan saqlaydi. Massaj ta’sirida yog‘ va teri bezlarining sektor funksiyasi yaxshilanadi, muskullarda oksidlanish-qaytarilish jarayoni kuchayadi va ularning qisqarish qobiliyati ortadi. Massaj limfa tizimiga ta’sir qilib, suyuqlik oqimini tezlashtiradi. Bola hayotining birinchi kunlaridanoq namoyon bo‘ladigan shartsiz (tug‘ma) reflekslar uning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Agar bola qorni bilan yotqizilsa, u boshini ko‘taradi va buradi, chalqancha yotganda oldinga oladi. O‘ngga yonboshlatilganda chapga, chapga yonboshlatilganda o‘ng tomonga buriladi. Bolaning oyoq terisiga qo‘l tekkazilsa emaklay boshlaydi, orqa terisiga tekkizilsa qayisha boshlaydi. Shunday qilib, shartsiz reflekkslar muskullar qisqarishini yuzaga keltiradi va ulardan bola hayotining birinchi haftasida, hali jismoniy mashqlarni qo‘llash mumkin bo‘lmagan (qo‘l va oyoqlarni bukuvchi muskullar gipertoniysi tufayli) paytda rivojlantirish va umuman organizmga ta’sir etishda foydalanish mumkin. Sog‘lomlashtirish ta’limiy, tarbiyaviy vazifalarni to‘la hal etishning majburiy sharti: jismoniy tarbiyaning yuqorida sanab o‘tilgan barcha vositalaridan umumiylarida foydalanish hisoblanadi. Turli yosh bosqichlarda ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarning amalga oshirish samaradorligi asosiy va qo‘srimcha vositalarni to‘g‘ri qo‘shib olib borgan taqdirdagina oshadi. Chunonchi, bolaning dastlabki uch oyligida gigiyena omillari, tabiatning tabiiy kuchlari, shartsiz reflekslar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bola bir

yoshga to‘lganida massaj, sust, sust-faol mashqlar, asosiy harakatlar (emaklash va boshqalar) dan foydalaniladi. Yoshi katta bo‘lgan sari gigiyenik omillar, tabiat tabiiy kuchlarining roli kamaymaydi, biroq uyqu, ovqatlanish va boshqalarga, ozroq vaqt sarflanadi va birmuncha murakkab jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zamin yaratiladi.

### **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish, sport musobaqalarini o’tkazish.**

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagি bolalarning jismoniy tarbiyasi tizimida bolalar faol dam olishining eng maqbul va samarali shakli sifatida namoyon bo‘lgan sport bayramlari mustahkam o‘rin egallaydi. Sport bayramlari bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Bayram vaqtida bolalar turli xil harakat faoliyatida-mashqlar, harakatli o‘yinlar va sport o‘yinlari, estafeta, raqslar attraksionda qiziqib ishtirok etadilar. Katta emotsional ko‘tarinki ruh bilan harakat qilib musobaqa sharoitida eng yaxshi natijalarga erishishga intilib, bolalar jismonan takomillashadilar. Tengdoshlari jamoasida mustaqillik va tashabbuskorlikni namoyon bo‘lishi bolalar bilan ilgari o‘zlashtirilgan harakat ko‘nikma va malakalarning faol qo‘llanishiga, epchillik, tezlik, chidamlilik va boshqa foydali sifatlar hamda qobilyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bayramlarga qatnashish va ularga tayyorlanish davomida bolalar katta emotsional va estetik qoniqish hosil qiladilar, umumiyl quvonchli kechinmalar bolalar va kattalarni birlashtiradi, ularning xotirasida saqlanib qoladi. O‘rtoqlar bilan birgalikdagi faoliyat o‘yinlar, bayram va boshqa musobaqa turlari o‘tadigan joylarning chiroyli jihozlanishi, ajoyib kiyimlar, rang-barang emblemalar, musiqani yangrashi, bayramni tantanali ochilishi va yopilishi bolalarda go‘zallik hissi, yaxshi did, tasavvurini rivojlanishiga ta’sir qiladi. Bularning barchasi bolalar ijodini rag‘batlantiradi. Sport bayramlari bola shaxsiyatining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar o‘rtoqlari yutug‘i va mag‘lubiyatlarini birgalikda boshdan kechirishga, ular yutuqlariga xursand b6‘la olishlariga, o‘zaro yaxshi, do‘stona munosabatlarini qo‘llab-quvvatlashga, o‘zidan kichiklarga g‘amxo‘r bo‘lishiga o‘rganadi. Ularda nafaqat individual, balki jamoa yutuqlariga erishishga intilish tarbiyalanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi sport bayramlari dasturidagi

ko‘rsatmalarga muvofiq ravishda tashkil qilinadi. Ularning yil mobaynidagi soni (o‘rtaligida bir yilda ikki marta, katta va tayyorlov guruhlarda uch marta), o‘tkazish davrlari davomiyligi (60 minut, 1 soat, 30 minut), bolalarning yoshi, bayram o‘tkazish sharti, vazifalari va mazmuniga muvofiq farqlanadi. Yil boshida sport bayramlari o‘tkazilishini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu esa sport bayramlarini, “Navro‘z”, “Mustaqillik” va boshqa umumxalq tantanalari kunlari bilan qo‘sib olib borish imkonini beradi. Bayram dasturini tuzishda turli yil fasllari o‘rtasidagi bog‘lanishni e’tiborga olish zarur. Sport bayramlarini yozgi sog‘lomlashtirish davrida tashkil qilish qulay. Bunday bayramda barcha bolalarning faol harakati bayramni nishonlashning ta’lim va tarbiyaviy ahamiyatining muhim omilidir. Ochiq havoda tashkil qilingan sport bayramlari bolalarni sog‘lomlashtirish va chiniqtirish uchun juda katta foyda keltiradi. Bayram vaqtida bolalarning kiygan kiyimlari yuqori harakatlanish faoliyatiga mos bo‘lishi kerak. Sport bayramlarini xonada o‘tkazish uchun qoidalarga rioya qilish, bolalarning ochiq havoda bo‘lish vaqtini bayramlar hisobiga qisqartirishga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Umumxalq bayramlarini va boshqa bayramlarni o‘tkazishda yaqinda joylashgan sport inshootlari, maydon, manej, sport zallari, basseyn va boshqalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa bolalar qalbida bir umr muhrlanib qoladi. Bayramlarni tashkil qilishga bo‘lgan muhim talablardan yana biri ularni turli yil fasllarida o‘tkazishdir. Shunga ko‘ra, ular turli xil tabiiy shart-sharoitlarda o‘tkazilishi mumkin. Bayramning o‘tkazilish joyi ko‘p holda uning mavzusi, tuzilishi, tayyorlov ishlari va jihozlanishning o‘ziga xosligiga bog‘liqdir. Bayram dasturini tuzishda, mavzusini aniqlashda, mazmuni va jihozlanishni tanlashda iqlim-geografik, iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlarning o‘ziga xosligi, O‘zbekiston Respublikasi, viloyat, tuman, milliy an’analari xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq. Sport bayramini muvaffaqiyatli o‘tkazishni ta’minalash uchun unga o‘z vaqtida tayyorgarlik olib borilishi kerak. Bayramlar soni, ularni o‘tkazish muddatlari maktabgacha ta’lim tashkiloti ish rejasida belgilanadi.

117

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

- 1.Maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya berish tushunchasi.
- 2.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishiga qo‘yiladigan talablarining soxalari.
- 3.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya berish usullari qanday?

- 4.Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasining vositalarini aytинг.
- 5.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lomlashtirish tadbirlarini qanday tashkil qilinadi?

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**

- 1.“Inson uchun birinchi baxt-uning sog’ligi, ikkinchisi-go’zallikdir” degan fikrni kim aytgan?**
  - a)Aflotun
  - b)Abu Ali Ibn Sino
  - c)Alisher Navoiy
- 2. “Mutolaa aql uchun qancha zarur bo’lsa, jismoniy .ashqlar ham badan uchun shuncha zarur” kimning fikri?**
  - a) D.Adisson
  - b) Aflotun
  - c) Alisher Navoiy
- 3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablarining soxalari nechta?**
  - a)5
  - b) 4
  - c) 3

**9.MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI AQLIY TARBIYASI.**

**Reja:**

- 1.Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish mazmuni.
- 2.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida aqliy tarbiyani tashkil etilishi.
- 3.Aqliy tarbiya vazifalari.
- 4.Maktabgacha ta’limda bolalarga ta’lim berishning o’ziga xosligi.

**Tayanch tushunchalar:**

**Sezgi**-bu atrof olamdagи moddiy dunoni, narsa va hodisalarning inson ongida aks etishi.

**Sezish**-atrofdagi narsa hodisalarning sezgi a’zolarimizga bevosita ta’sir etishi natijasida ularning ayrim belgi xususiyatlarining miyamizga ta’sir etishi.

Aql - keng ma’noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o’z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig’indisidir.

Aqliy tarbiya - bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta’sir ko’rsatish. U yosh avlodning insoniyat to’plagan bilimlar,

malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning rejali jarayoni sifatida ro'y beradi. Bu ta'sir kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlar, sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi. Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon boiadi. Ular aqliy faoliyatning jo'shqinligida, mustaqil ijodiy bilishga intilishda o'z ifodasini topadi.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik - bu donolik. Donolik insonning eng buyuk va oljanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bolsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bolmas», deyiladi.

Insoniyat paydo bolgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olimu fozillar, shoiru yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

Tarixan ta'lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakllanib borish barobarida, ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatlari, yani ta'limiy maqsadlar ham aniqlanib bordi.

Xitoyning Samarcanddagi elchisi Vey Sizinning hisobotlarida: «Samarqand aholis mohir savdogarlardir. O'g'il bola besh <sup>119</sup> yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshlaydilar», - deb qayd qilingan.

Farobiy ta'limning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni yetishtirishdan iborat deb biladi.

Beruniyning bilimlarni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham

dolzarbdir. O'quvchilarga bilim berishda ularni zeriktirmaslik; uzviylik, izchillik, yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish va hokazolarga e'tibor berish kerakligini uqtiradi. Olim bilim oluvchilarga qalbni yomon o'zi sezishi mumkin bo'lman holatlardan, behuda raqobatdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini aytdi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilim egallashga da'vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'lman kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni mакtabda o'qitish zarur deb biladi. U ta'linda quyidagi talablarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilmaslik, ta'linda yengildan og'iriga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolaning yoshiga mos bo'lishi, o'qitishda jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, ta'lim berishda bola qiziqishini va qobiliyatini hisobga olish, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan birga olib borish.

Abu Ali ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan.

Mushohada bilan idrok etishning birinchi bosqichi aqliy kategoriylarini tushuntirishdir.

Ikkinci bosqich. Ikki xil fikrni idrok etish. Uchinchi bosqich. O'zlashtirilgan bilim, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqlni 3 bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan.

Ikkinci bosqichda tayoqchalarini chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rGANAYOTGAN bolalarning aqli tasavvur qilinadi.

Uchinchi bosqichda inson aql shakllarini va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi.

Ibn Sino aql deganda insoning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.

Aqlni ikki xil kategoriyaga bo'ladi:

- 1.Nazariy aql - borliqdagi umumiy narsalarni idrok etishdir.
- 2.Amaliy aql - buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rindigan qobiliyatlardan.

O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmli bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug'aydi hamda «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi.

Muallif o'z fikrini aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi. «Hayvonlar o'zlariga bolaklar tarafidan qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan bog'lab iplari uchini qoilariga bergen insonlarning aqlidir».

Maktabgacha ta'lif yoshdagi bolalarga ta'lif berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chek pedagogi Yan Amos Komenskiy [1592-1670] tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga, ya'ni biz ta'lif-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lif dasturini tuzdi. Y.A.Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta'lif-tarbiyasiga, o'qish metodikasiga katta e'tibor bergen.

### **Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida aqliy tarbiyani tashkil etilishi.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

121

Pedagogika-psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda birinchidan bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, ikkinchidan bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha zo'riqish

bo'lmasligi yo'llarini topish uchun Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari Maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning hammasi Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo'limgan tomonlarini ajrata oladigan ba'zi bir sabab natijali bog'lanishlarni bilib oladigan bo'lib qoladilar. Ularda o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllanadi. Shuning uchun bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi boladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo'lgan va muhim bolmagan tomonlarini ajratishga o'rgatish lozim.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqeahodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his qilib, diqqat bilan tomosha qilishni kiizatishda namoyon boiadi. Tarbiyachi ku-zatishlar tashkil etib, bolalarda paydo boigan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yoilab, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yoi qo'ymaydi.

<sup>122</sup>

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik fahm-farosatlilik, tanqidiy ko'z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'limgan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan: o'simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o'simliklar yoki hayvonlar to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar.

So'ngra bolalardagi aqliy-ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin: «Paxta o'simligini, momaqaymoq o'simligi bilan solishtirish», «Qafasdagagi ikki xil qushni bir-biriga solishtirish» didaktik o'yini va shunga o'xhash tadbirlar o'tkazish. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanishga o'rgatish zarur.

Ilk va bog'cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo'lgan har qanday xoxishini sezishlari va rag'batlantirib borishlari kerak.

### **Aqliy tarbiya vazifalari.**

Bolani muktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari ularni muktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi.

Odamning aqliy faoliyati-bu umumiylar <sup>123</sup> ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir. Ko'pgina vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan keng ko'lAMDAGI aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa, muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi.

Ham umumiylar, ham maxsus aqliy harakatlarni egallash aqliy faollik va

mustaqillikning rivojlanishini ta'minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo'shqinligini, hodisalarни xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko'ra bilishni shakllantirishga yordam beradi, «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiyligi, rejalligi, vazifani qabul qilish va o'rtaga qo'yish, uni hal etish usullarini tanlash, ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalari ni baholash mahorati kiradi.

Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko'nikmalarini, kitob bilan ishslash ko'nikmalarini egallash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog'liqdir. Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo'lgan bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichining yuqoriligidagi ko'rish mumkin.

### **Maktabgacha ta'limda bolalarga ta'lim berishning o'ziga xosligi.**

Ta'lim maktabgacha yoshdagi bolaning bilish qobiliyatlarining muntazam rejali ravishda rivojlantirib borish, MTTning ta'lim-tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. MTTda bolalarga madaniy-gigiyenik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy axloqiy qoidalarini o'zlashtirib oladilar.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyatları asoslari hosil qilinadi, ularni

maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'limni ikki yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Kuzatish metodi. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa asosan yangi bilim berishda qo'llaniladi.

Kuzatish bolalarning narsa, voqealarning ma'lum maqsadi Dilan rejali idrok etishidir. Kuzatish metodi ma'lum obyektlarni kuzatishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Namoyish etish metodi. Bu metod tarbiyachi bolalarga narsani o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Bu bevosita ko'rib bo'lmaydigan narsalar (boshqa tabiiy zonadagi hayvonlar, o'simliklar, kishilar hayoti bilan) qo'llaniladi.

Hikoya qilib berish materialni aniq, obrazli, ta'sirchan bayon qilish. O'rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o'qib berish.

Suhbat metodi. 3-4 yoshli bolalar bilan o'tkazilmaydi. 4-5 yoshli bolalar bilan ham qisqa suhbat o'tkaziladi. 6 yoshdan boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tkaziladi.

### **Mashg'ulot - mактабгача ўоҳдаги баларга та'лим беришнинг асосиёв шакли**

Mashg'ulot ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berishning asosiёв шакlidir. Mashg'ulot pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar mактабгача ta'lim tashkilotida ta'limni tashkil etish shaklidir. .

Ta'lim shakli deganda ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi.

Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga,<sup>125</sup> o'tkazish joyiga shuningdek, kun tarkibida egallagan o'rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Mактабгача ta'lim tashkilotida ta'limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalilaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har

xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi.

Mashg'ulot maktabgacha ta'lif yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rincdan va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalg' etish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lif berish nati-jasida bilimga qiziqishlar rivojlanana boradi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiyoq zo'r berishning talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiyoq raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg'ulotda ta'lif berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab ta'limga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida hosil qilinadi.

Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning <sup>126</sup> fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqeadiagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Mashg'ulotda tarbiya vazifalari hal etiladi. Mashg'ulot bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha ta'lif

tashkiloti ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhda hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va vaqtি belgilab qo'yilgan.

Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik, hissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xoxishi tarbiyalanadi.

Bolalarni mustaqillikka o'rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi. MTTda kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, qu-rish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.

Ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar katta yoshdagi kishilarning har bir bola bilan rejali suratda muomalada bo'lishidan iborat bo'lib, bu mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg'ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go'daklar ixtiyoriy diqqat o'sib borgani sari, bunday mashg'ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalari bilan bir yo'la olib boriladi.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'mmini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg'ulotlarni kuning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi.<sup>127</sup>

Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari bo'yicha necha daqqa davom etishi MTT tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan.

Birinchi kichik guruhda mashg'ulot bolalarni ikki guruhga bo'lgan holda o'tiladi.

Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo'ladi. Mashg'ulot jadvalini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriqoq bo'ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki haf- taning o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish qobiliyati yuqori bo'lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvchi murakkabroq mashg'ulot tanlanadi (elementar matematika, nutqni rivojlantirish, savodga o'rgatish va h.k) jadval tuzganda bu mashg'ulotlarni birinchi qo'yish kerak, bolalardan ko'p harakat qilishni, hissiy nagruzkani talab etuvchi mashg'ulotlar (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriylar faoliyat) ikkinchi qilib qo'yiladi.

Bolalar o'zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'llim tashkiloti dasturi Maktabgacha ta'llim yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning (bular tabiatga muhabbat uyg'otadi, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash hissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishni nazarda tutadi: bilimlarni o'zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shahriga, o'z vataniga, xalqiga muhabbat, ulug' kishilarga muhabbat va hurmat, o'lkaning ijtimoiy hayotiga qiziqish paydo bo'ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijtimoiy hodisalar, voqealar to'g'risida, umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo'shni o'lkalardagi bolalarning hayoti, oddiy kishilarning mehnati, boshqa xalqlarning hayoti va do'stligi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg'ulotlarning mazmunini belgilari ekan, ular u yoki bu mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog'lanishini o'ylab ko'radi

Mashg'ulot quyidagi turlarga bo'linadi:

1.Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad ularni yangi ilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, voqealar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirishdir. Bunday mashg'ulotlarga yangi ob'yeqtini kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulotlar hamma yosh guruhlarda o'tkaziladi.

128

2.Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulotlar. Undan ko'zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarning anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o'rgatishdir. Buning uchun tanish ob'yeqt kuzatiladi, ikki narsa, solishtiriladi (xona o'simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o'yinlar, suhbatlar

o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotni o'tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o'zlashtirib olganu, nima yaxshi o'zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar detallar bilan boyitib boradi.

3.Bolalarning bilimini sinovchi mashg'ulotlar. Bunday mashg'ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va malakalarni o'zlashtirib oladilarmi-yo'qmi, shuni bilib oladi va o'zining bo'lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg'ulotning tarbiyachi o'z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o'tkazishi mumkin.

Mashg'ulotning tuzilishi: Mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism.

Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi puxta o'ylanib olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar.

## **10.“ILK QADAM” DAVLAT O’QUV DASTURI ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MARKAZLARIDA TA’LIM JARAYONLARINI TASHKIL QILISH.**

**Reja:**

- 1.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim shakli.
- 2.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulot (faoliyat) turlari.
- 3.Mashg’ulotning bolalarni maktabga tayyorlashdagi ahamiyati.Mashg’ulot jadvali tuzish talablari.
- 4.Mashg’ulotda tarbiyachining yetakchilik roli va innovatsion yondashuvi.
- 5.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekskursiyani o’tkazish mazmuni.

### **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim shakli.**

Mashg’ulot bolalar bog’chasida bolalarga ta’lim berishning asosiy shaklidir. Mashg’ulot- tarbiyachining bolalarni kerakli bilim va malakalardan umumiy holda xabardor qilishdir.

Tarbiyachi bolalarga ta’lim berishni kun davomida omalga oshiradi: ularning

bilimlarini boyitadi, madaniy, gigiyenik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarni shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etish shaklidir. U Maktabgacha tarbiya yoshidagi hamda bolalar uchun majburiydir, unda dastur mazmuni belgilab berilgan. Kun tartibida unga ma'lum o'rinni va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashgulotlarini tashkil etadi. O'quv materialinining mazmuni asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Demak, mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab olib, o'z-o'zini yaxshi tashkil etadigan bo'lib qoladilar.

Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib boorish katta ahamiyatga birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligi namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar ishiga zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qaygurishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, ko'rish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiylar raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishslash, yashashga o'rgatadi.

Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odasi, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi.

Mashg'ulot paytida bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga, qulq solish, hikoya qilinayotgan voqeadiagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qiqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.<sup>130</sup> Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik bilimga qiziquvchanlik bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqposlash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi.

Mashg'ulot jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi

takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xoxishi tarbiyalanadi. Bolalar bog'chasida kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarni o'stirish mashg'ulotlari, qurish-yasash,jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.Mashg'ulotlar boladan aqliy va jismoniy kuchlarni talab etadi, ya'ni u bolaning faolligi bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi. Bu esa boladan uzoq ixtiyoriy diqqatni talab etadi.

Mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiq, chunki birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi. Har bir yosh guruxida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruxlari bo'yicha qancha davom etishi bolalar bog'chasi tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan.

Bolalarning bilimlarini sinovchi mashg'ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dasturda belgilangan bilim va malakalarni o'zlashtirish darajasini bilib oladi va o'zining keying ishi mazmuni, metodlarini belgilaydi.

### **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot (faoliyat) turlari.**

Kompleks mashg'ulotlar bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib bunday mashg'ulotlar bolalarga yangu bilim beradi. Egallangan bilimlar mustahkamlanadi.Mashg'ulotning tuzilishi: bolalarni uyushtirish, asosiy qism yakunlovchi qism. Bolalar mashg'ulotga qiziqizh va faollik bilan ishtirok etishi uchun mashg'ulot mazmuni va metodikasi puxta o'ylab olinishi kerak.Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar.

Tarbiyachilar bolalarni yig'ib, ularning mashg'ulotga tayyorgarligi: tashqi ko'rinishi, o'z joyiga to'g'ri o'tirishi, diqqatni to'plaganini tekshiradi. Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalarda qiziqishni uyg'otish, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishini, qobiliyatini inobatga olish zarur.Bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi kutilmagan topishmoqlar, muammoli usullardan foydalilanadi.

“Quloq solinglarchi kimdir eshik qoqyapti? Bu qorbobo biznikiga mehmonga keldi”, deb

mashg'ulotni boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiyachi katta guruxlarda esa qanday mashg'ulot o'tkazilishi haqida bolalarni oldindan ogohlantirib qo'yadi.Bu esa bolalarni keying mashgulotga bo'lgan qiziqishini ortiradi.Masalan, hayvonot bog'iga, ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib qo'yadi va ularga hayvonot bog'ini aylanib chiqishni, ota-onasi bilan sayr qilganda qanday hayvonlarni ko'rghanini va ular qanday taassurot qoldirganini eslab qolishni taklif etadi.

Bolalar esa bu kunning zo'r qiziqish va xursandchilik bilan kutishadi.

Katta guruh va tayyorlov guruxlaridagi bolalar o'tkazilayotgan mashgulotning zarur va majburiyligini ongli ravishda tushunib unga tayyorlanib boradilar.Mashg'ulot jarayonida bolalarga yangi bilim beriladi. Berilayotgan topshiriq yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatiladi.Topshiriqni bajarishda qiynalgan bolalarga yordam ham beriladi. Shuningdek, berilgan topshiriqni hamma bolalar tomonidan to'liq bajarilishini ta'minlash uchun tarbiyachi turli xil metod va usullardan keng foydalanadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'qishni va yozishni bilmaganliklari uchun o'tilgan mavzuni qaytarib mustahkamlay olmaydi.Shunga ko'ra bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash tarbiyachi takrorlash va mashg'ulotlardan foydalanib boradi. Bu jarayonda bolalarga mexanik qaytarish yoki yodlatishdan chetlashish kerak.Chunki mazmuni anglab olinmagan material tezda sedan chiqadi.

Tarbiyachi kichik gurux bolalarini ikki guruxga bo'lib mashg'ulot olib boradi.Tarbiyachi birinchi gurux bolalari bilan mashg'ulot o'tkazganda ikkinchi gurux bolalariga tarbiyachi yordamchisi qarab turadi.

Tarbiyachi dastlabki mashg'ulotlar jarayonida gurux xonasi qo'g'irchoq va o'yinchoqlar bilan tanishtirishi kerak. Qo'g'irchoqlar yordamida esa mashg'ulot o'tkazadi.Tarbiyachi avval bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otib bersa, keyin mashg'ulotning hamma uchun majburiyligini bolalar ongiga singdirib <sup>132</sup> boradi.O'tkazilayotgan mashg'ulotlar asta-sekin murakkablashtirilib bolalar xulqiga moslab boriladi.Bolalar mashg'ulot jarayonida axloq-qoidalarni egallab boradilar.To'g'ri o'tirish, tarbiyachini so'zini diqqat bilan eshitish, chalg'imaslik, tarbiyachi so'ragandagina javob berish, javob berganda o'rnidan turish kabilar

o'rgatiladi.Mashg'ulotning sifati va uning natijasi tarbiyachining unga qanday tayyorgarlik ko'rganiga va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Mashg'ulotga tayyorlanish mazmuniga quyidagilar kiradi:mashg'ulotni rejalashtirish, kerakli jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish, bolalarni mashg'ulotga tayyorlash.

Tarbiyachi mahsg'ulotni bir bo'limdan bitta emas,balki butun bir mashg'ulotlar tizimini rejalashtirib olib borsa, olib borsa, ijobiy natijani qo'lga kiritishi tabiiy.Tarbiyachi mashg'ulotlarni metodik adabiyotlardan kehg foydalanilgan holda olib borishi kerak.Agar mashg'ulotlar murakkabroq bo'lsa, tarbiyachi, albatta, unga reja tuzadi.Rejada mashg'ulotning mazmuni tayyorlanish uchun kerak bo'lgan jihozlar, bolalar olib boriladigan dastlabki ishlar, mashg'ul'tning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko'rsatiladi.

Har bir bog'chada metodiga kabinetlari mavjud, unda "Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi"ning hamma bo'limlari bo'yicha metodik qo'llanmalar bo'ladi.

Tarbiyachi bolalar bog'chasida asosiy shaxs hisoblanib, yosh avlodning tarbiyalanganligi va bilish darajasi uning g'oyaviy, siyosiy va ilmiy pedagogic tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, salohiyatiga, pedagogik mahoratiga bog'liq.Odatda, bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ham uning tarbiyachi shaxsiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

Demak tarbiyachi mashg'ulot jarayonida yangi pedagogic texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalanilsa hamda bolaning ruhiyati, yosh va o'ziga xos ruhiy, fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiyaning samaradorligi ortadi.

### **Mashg'ulotning bolalarni maktabga tayyorlashdagi ahamiyati.Mashg'ulot jadvali tuzish talablari.**

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar o'ziga xos xususiyatga ega. Bu o'ziga xoslik maktab ta'lim-tarbiya ishlaridan nusxa ko'chirish emas, balki bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun zarur bo'ladigan og'ishmay shakllantirishga mo'ljallangan faoliyat va xulq- atvorni maxsus tashkil etishdir. Bu bolalar faoliyatining barcha turlarini

murakkablashtirishda, bolalar tomonidan amalga oshirishning murakkab usullarini egallashlarida, faoliyat jarayonida hamkorlikning yangi usullarini o'zlashtirishda, bolalar faoliyati va xulq-atvorining jamoatchilik yo'nalishini rivojlantirishda, ijtimoiy-foydalı asoslarini ilgari surishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon boiajak mакtab majburiyatlarini hisobga olib talablarning so'zsiz ortib borishi bilan ifodalanadi. O'z ahamiyatiga ko'ra bolalarning mustaqilliklari, o'yin, o'qish va mehnatning sifat va natijaliligi birinchi o'ringa chiqadi. Bu quyidagilarda namoyon boiadi:

– Kun tartibining o'zgarishida - bola yuvinish, kiyinish, ovqatlanish jarayonlarini tez sur'atda bajarishga o'tadi, faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga tezroq moslashadi. Tarbiyachining bolalar bilan muloqot usuli o'zgaradi, o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatiga xos ayrim xususiyatlarni kasb etadi (bolalarga qo'yiladigan talab ortadi, ularda mustaqillik rivojlanadi). Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bolgan ta'lim olishga, o'qishga ishtyoq, qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim.

– Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mashg'ulotlar vaqtি ortadi. Bunda bolalarni voqelikning turli sohalari haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish va to'g'ri dunyoqarashni shakllantirishga oid ishlar olib boriladi. Bolalar bilimlarini o'rganilayotgan narsa va hodisalardagi muhim belgi hamda munosabatlarni ajratish asosida yanada umumlashtirish va tizimlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bolalarni maktabda o'qishga tayyorgarligining yana bir muhim tomoni atrof-olam, narsa va hodisalarni tegishli mezonlarda umumlashtira va tabaqalashtira bilish hisoblanadi. Istalgan o'quv fanini egallash bolada mazkur o'quv fanida ko'rib chiqilayotgan voqelik hodisalarini ajratish va uni o'z bilish obyektiga aylantirish qobiliyatining mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bu tizimlashtirish, umumlashtirish, tahlil qobiliyati ma'lum darajada rivojlanishini talab qiladi. Asosiy maqsad

<sup>134</sup>  
– olingan bilimlar ko'magida mazkur masalalarga nazariy yondashuv masalalarini shakllantirishga yordam beradigan umumiylashtirilgan tasavvur va elementar tushunchalarning tarkib topishini ta'minlashdir.

Bolalarning maktabda savodini chiqarish uchun tayyorgarlikka oid jadal ish olib

boriladi, bu sohalar bo'yicha dastur talablarini egallash, keyinchalik matematik rivojlanishlari muhim bo'lgan butun sonlar qatori, qonuniyatları, bolalar uchun yangi voqelikning miqdoriy tomonlarini bilish vositasi sifatida o'lchov faoliyati, qism va butun, o'lchov va o'lhash o'rtasidagi funksional bog'liqliklar va shu kabilar haqidagi qoidalarni anglashlarida yordam beradi. Bular bolalarning 1-sinfdagi matematik bilimlar mazmunini ongli, faol egallahlarini ta'minlaydi.

Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik mashg'ulotlarida - bolalar nutq va til voqeligi sifatidagi yangi lingvistik munosabat asoslarini o'zlashtira boshlaydilar. Bolalar tomonidan nutqning tuzilishi, uning og'zaki va tovush tarkibini oddiy o'zlashtirish sodir bo'ladi, so'z til voqeligidegan ilk tasavvur tarkib toptiriladi. Kesma harflar yordamida tovush-harf, bo'g'in tuzishga va uni o'qishga o'rgatiladi, namunadagidek turli so'zlarni yozish, chizish masalalari shakllanadi. Bolalar tegishli atamalar: gap, tovush, bo'g'in, harf, so'z tarkibi kabilarni egallab oladilar. Bu ish mifik tabda savodni egallah va ona tilini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning analitik-sintetik faoliyatlarini rivojlantirishga tahlil, umumlashtirish, qiyoslash, tasniflash usullarini takomillashtirishga doimo e'tibor qaratiladi. Bunda bolalarni bevosita bilishdan bilvosita bilishga ko'chirishning roli kattadir. Bu yoshdagagi bolalar kattalarning miqdoriy o'zaro munosabatlarining o'lhashlar vositasida aniqlashni, narsalarni ko'rib chiqish yoki qiyoslashda kuzatishlar chizmalaridan foydalanishni, narsalarning sifat va xususiyatlarini baholashda ijtimoiy ishlab chiqilgan etalonlardan foydalanish kabilar o'rganib boriladi.

Mashg'ulotlarda bolalarda o'quv faoliyati va uyushgan xulq-atvor malakalarini maqsadga muvofiq shakllantirish davom ettiriladi. Bunda bolalarning:

- O'quv vazifalarini qabul qilish ko'nikmalari;
- Tarbiyachining tushuntirish va ko'rsatmalariga muvofiq harakat qila olishlari;
- Butun mashg'ulot davomida mashg'ulot mazmuniga qiziqish;  
135
- diqqat-e'tiborni saqlash;
- ishni oxiriga yetkaza bilish;
- vazifani bajarish jarayoni va uning natijasini topshiriqqa muvofiq baholash;
- tarbiyachi savollariga baland ovozda mantiqli javob berish;

- o'z fikrini tushunarli va savodli ifodalay olish jihatlari ish samaradorligi belgisi hisoblanadi.

Tarbiyachi bolalar mustaqilligini rivojlantirar ekan, ular o'z faoliyatlarini rejashtiradi hamda izchil tarzda o'rganib boradi. Bu ko'nikmalar barcha faoliyat turlarida amalga oshirilib, bolalar dastavval tarbiyachi tomonidan taqdim etilgan reja asosida harakat qilishni, so'ngra tarbiyachi bilan birgalikda reja tuzishni, so'ngra o'z faoliyatlarini mustaqil rejashtirishni o'rganadilar. Bolalar faoliyatining natijaliligiga talab ortib boradi. Tarbiyachi ish natijalarni baholashda quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- bola tomonidan topshiriqni bajarishdagi aniqlik;
- bajarilgan ish sifati;
- ishning zarur sur'atini saqlash ko'nikmasi;
- o'zini-o'zi nazorat qilish.

O'zini-o'zi nazorat qilish ta'sirini tarbiyachi asta-sekin natijani nazorat qilishdan topshiriqni bajarish jarayonidagi harakat usullarini nazorat qilishga va so'ngra nazoratdan oldingi elementlarga tomon rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotidagi ta'lif-tarbiya va pedagogik jarayonlarda o'qitish muammolarini ilmiy asosda ishlab chiqqan pedagog olimlar (A.P.Usova, N.B.Mchedlidze, V.I.Loginova, Yu.K.Batanekib va boshqalar) "Pedagogik jarayon yaxlit, dialektik va rivojlanuvchi hodisadir. Uning rivojlanish jarayonida asosiy tashkil qiluvchi qismlari: tarbiya va o'qitish, bolalarning uyushtirilgan va mustaqil faoliyatları, ayrim faoliyat turlari (o'yin, o'quv, mehnat) o'rtaqidagi nisbat o'zgaradi" - deb ta'rifланади.

Tarbiyachi bolalarga tanishtiradigan ijtimoiy hodisalar sohasi jiddiy kengayadi. O'zbekistonning qadimi shaharlari, Buyuk ipak yoli, O'zbekistonning mustaqilli, gerbi, bayrog'i, madhiyasi haqida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshqarilishi, buyuk siymolar, mashhur sarkardalar, xalq amaliy san'ati, an'anaviy bayramlar haqidagi bilimlarga tayanadi.

"Konstitutsiya saboqlari" bu ilk iqtisodiy tarbiya mashg'ulotlari orqali boijak o'quvchilarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya shakllantiriladi. O'zbekistonning o'z milliy so'ni va iqtisodiyot saboqlarining ilk elementlari hodisalarga qiziqishlarini rivojlantiriladi, fuqarolik hissiyoti asoslari: vatanparvarlik, mehnat ahliga

hurmat, mamlakat xalqlarini sevishni tarkib toptiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat haqidagi bilimlarini tizimlashtirishning asoslari: jonli va jonsiz tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'z tana a'zolari, ularning tuzilishi va xususiyatlari, yashash muhiti, himoya vositalari, oziqlanishi haqida bilim beriladi. Bolalarda kattalar mehnati haqida bilimlarni shakllantirishda tizimlashtirishning asosini mehnat buyumlari, kishilar ehtiyojini qondirish uchun mehnat mahsulotlariga aylantirish aloqalarini tushunish tashkil etadi.

Mashg'ulotlarda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalar bolalarning amaliy faoliyatlarini bilan bog'lanadi. O'lchash usullarini bolalar o'yin va mehnat faoliyatida o'simliklar va ularni parvarish qilish haqidagi bilimlarni tabiat burchagidagi navbatchilikda, gulzordagi mehnat ishlarida, turli material xususiyat va sifatlari haqidagi bilimlarni o'yin va qurish-yasash va boshqa faoliyat turlarida qo'llaydilar.

### **Mashg'ulot jadvali tuzish talablari.**

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur. Mashg'ulotlarni kuning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi. Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhi bo'yicha necha daqiqa davom etishi dasturda ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan.

Birinchi kichik guruhda mashg'ulot bolalarni ikki guruhga bo'lgan holda o'tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo'ladi. Mashg'ulot jadvalini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriqoq bo'ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki xafthaning o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish qobiliyati yuqori bo'lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab

etuvuvchi murakkabroq mashg‘ulot tanlanadi (y elementar matematika, nutqning rivojlantirish, savodga o‘rgatish va h.k). Jadval tuzganda bu mashg‘ulotlarni birinchi qo‘yish kerak, bolalardan ko‘p harakat qilishni, xissiy zo’riqishni talab etuvchi mashg‘ulotlar (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo‘yildi.

Bolalar o‘zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkiloti dasturi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning (bular tabiatga muhabbat uyg‘otadi, o‘simpliklar va hayvonlarga g‘amxo‘rlik bilan qarash hissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishni nazarda tutadi: bilimlarni o‘zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shahriga, o‘z vataniga, xalqiga muhabbat, ulug‘ kishilarga muhabbat va hurmat, o‘lkaning ijtimoiy hayotiga qiziqish paydo bo‘ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijtimoiy hodisalar, voqealar to‘g‘risida, umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo‘sni o‘lkalardagi bolalarning hayoti, oddiy kishilarning mehnati, boshqa xalqlarning hayoti va do‘sligi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg‘ulotlarning mazmunini belgilar ekan, ular u yoki bu mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog‘lanishini o‘ylab ko‘radi. Masalan, oshpaz, kutubxonachi bilan o‘qituvchining mehnati haqidagi bilimlar xil mehnat turlari haqidagi ma'lumotlar sistemasini bir qismidir. Pochtadagi turli xodimlar mehnati haqidagi bilimlar ijtimoiy mehnatning jamoa xarakteri to‘g‘risidagi bilimlar sistemasining bir qismi. Mehnatning ijtimoiy harakteri, mohiyatini tushunish uchun bola shunga o‘xhash ko‘pdan ko‘p mehnat turlari bilan tanishishi lozim.

Mashg‘ulot quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg‘ulotlarning o‘tkazishdan maqsad ularning yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, voqealar to‘g‘risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirishdir. Bunday mashg‘ulotlarga yangi ob‘ektni kuzatish, hikoya qilib so‘zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg‘ulotlar hamma yosh guruhlarida o‘tkaziladi.
2. Bolalarning to‘plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va

sistemaga soluvchi mashg‘ulotlar. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarning anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o‘rgatishdir. Buning uchun tanish ob'ekt kuzatiladi, ikki narsa, solishtiriladi (xona o‘simpliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o‘yinlar, suhbatlar o‘tkaziladi. Bunday mashg‘ulotni o‘tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o‘zlashtirib olganu, nima yaxshi o‘zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg‘ulot jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar detallar bilan boyitib boradi.

3.Bolalarning bilimini sinovchi mashg‘ulotlar. Bunday mashg‘ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo‘yicha o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim va malakalarni o‘zlashtirib oladilarmi-yo‘qmi, shuni bilib oladi va o‘zini bo‘lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg‘ulotning tarbiyachi o‘z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o‘tkazishi mumkin.

4.Kompleks mujassam mashg‘ulotlar bolalar bog‘chasi tajribasida keng tarqalgan bo‘lib, bunday mashg‘ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarning amalda qo‘llashga o‘rgatiladi. MTTda tasviriy faoliyat, konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutqni o‘stirish, savod o‘rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Mashg‘ulotga to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rib, uyushgan holda o‘tkazilganda bolalar oldiga ma'lum aqliy vazifa qo‘yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi.

Aqliy mashg‘ulot turlari;

Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg‘ulotlar;

Bolalarni to’plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi mashg‘ulotlar;

Bolalarning bilimini sinovchi mashg‘ulotlar;

<sup>139</sup>

Kompleks mujassam mashg‘ulotlar.

### **Mashg‘ulotda tarbiyachining yetakchilik roli va innovatsion yondashuvi**

Murabbiy tarbiyachilar Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy shaxsi hisoblanadi. Butun g’oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni

tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq hisoblanadi. Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati uning yuksak kasb mahoratidadir. Eng muhimi bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini biliшidadir.

Bolalar bog'chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bolishini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi, Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bolsa] yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.

Tarbiyachi har bir bolaning keljakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha ta'lif yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki, bu davrdagi har bir taas-surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma'naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo'r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo'lish fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo'lmaydi. Mashg'ulotda tarbiyachi o'z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta'sir etishini pedagog bilishi zarur, bolaga qattiqroq va qat'iy gapirish mumkin, ammo bunda so'z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor berishi lozim. Bolaning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi uning sog'lig'i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

Bolaning ko'p harakatlarni o'tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto'g'ri o'sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: «Tezroq yuvininglar - nonushtaga kech qolyapmiz», «O'yinchoqni tezroq yig'ishtiringlar, sayrga yoki mashg'ulotga kech qolyapmiz» va hokazo deb shoshiltirish kerak emas. Ta'lism Berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasin va har biri ijobjiy natijaga erishsin.

Bolalarning mashg'ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo'llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo'llay olishlari ularning yaxshi o'zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya'ni ular hech qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta'limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir. Agar bolalar yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'lsa, ular bilan xilma-xil mashg'ulotlar o'tkazish mumkin, bu mashg'ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydадfnishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar odatdagি mashg'ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o'zi belgilash, qurilishni o'zi o'ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg'ulotlar dasturning ayrim bo'limlari bo'yicha ta'limning yakunlovchi bosqichlarida o'tkaziladi. Bolalar olgan bilimlaridan o'z o'yinlarida keng foydalanadilar: rasm chizish, qirqib olish, qurish-yasash sohasidagi malakalarni qo'llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo. Olingan bilimlar turli xil o'yinlarning mazmunida aks ettiriladi.

Ta'limdagи innovatsion faoliyat o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Birinchi xususiyat, innovatsion jarayon sub'yektlari bolalar, ota-onalar va o'qituvchilar. Agar bu e'tiborga olinmasa, unda pedagogik innovatsiya haqiqatan ham ta'limiy bo'lgan hamma narsani, innovatsion faoliyatning butun gumanistik tarkibiy qismini tashlab yuboradi. Pedagogik innovatsiyalarning ikkinchi ajralib turadigan xususiyati iloji boricha ko'proq pedagogik muammolarni muntazam ravishda yoritib berish zarurati hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar samaradorligini belgilovchi shart bu xususiy metodologianing muammolarini hal qilishda umumiy savollar beriladigan va mavjud didaktik tamoyillarni yangicha qayta ko'rib chiqishni boshlaydigan o'qituvchilarning tadqiqot faoliyatidir.

Ta'lif sohasiga kelsak, innovatsiyalarni yangi mazmun, usul, o'quv jarayonini tashkil etish shakli yoki ta'lif sohasidagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishga yangi yondashuv shaklida, ota-onalarning haqiqiy iltimoslari asosida, ya'ni yangi innovatsiyalarning yakuniy natijasi deb hisoblash mumkin.

Maktabgacha ta'lifning yangi shakllari bu: Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish va amalga oshirish tarbiyachilar tarkibiga, ularning innovatsion g'oyadan xabardorligiga bog'liq, chunki innovatsion rejim sharoitida tarbiyachining shaxsini o'zi belgilashning faol jarayoni mavjud bo'lib, maktabgacha ta'lif tashkiloti xodimlari o'rtasidagi munosabatlar tabiatida o'zgarishlar mavjud. Bu jarayon uzoq davom etadi.

### **Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ekskursiyani o'tkazish mazmuni**

Tarbiyachi ekskursiyani rejalashtirar ekan, ekskursiya mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi, ekskursiya o'rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ular diqqatini asosiy maqsaddan chalg'itmaydigan) yo'lni belgilaydi. Ekskursiya o'rnini tanlashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan ekskursiyalar kichkintoylar uchun faqat yaqin masofalargagina uyushtirilishi mumkin), shuningdek mavsumni, yo'lning xususiyatlarini, ob havo holatini hisobga olish zarur. Ekskursiya uyushtiriladigan joy tarbiyachiga qanchalik tanish bo'lmasin, u bir ikki kun oldin o'sha joyni ko'rib chiqishi lozim. Bo'lajak ekskursiya joyida bo'lgan tarbiyachi yo'lni aniqlaydi, kerakli obyektlarni topib, bolalar kuzatishlarni mustaqil olib borishlari hamda dam olishlari mumkin bo'lgan joyni belgilaydi.

Ekskursiyani o'tkazishdan oldin tarbiyachi uni o'tkazish usullarini atroficha o'yab ko'radi va ekskursiya qiziqarli o'tishi uchun oldindan she'r, topishmoq, maqollarni tanlab ulardan foydalanadi. Bolalarni ekskursiyaga tayyorlash. Ekskursiyadan bir necha kun oldin bolalarda faoliyatga qiziqish uyg'otish, tasavvurlarni jonlantirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o'tkazadi, ya'ni ekskursiya vazifalarini qo'yadi, topshiriq va vazifalami taqsimlaydi, ekskursiyadagi xulq atvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek <sup>142</sup> anjomlarni va jihozlarni tayyorlaydi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi kirish suhbat, kollektiv bo'lib kuzatish, bolalarning individual mustaqil kuzatishlari, tabiatga oid materiallarni to'plash, bolalarning dam olish vaqtida to'plagan materialllar bilan o'ynashi va yakuniy qismlarni o'z ichiga oladi.

Bolalarni ekskursiya o'tkaziladigan joyga olib kelgandan so'ng tarbiyachi qisqa suhbatda ekskursianing maqsadi va vazifalarini eslatadi. Shundan so'ng ular tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga o'tadilar. Ekskursianing asosiy qismi jamoaviy kuzatishdir. Bunda faoliyatlarning asosiy qismi hal qilinadi. Tarbiyachi bolalarga narsa va hodisalarning xarakterli xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. Bunga turli usullar (savol va topshiriqlar, she'rlar, tadqiqotchilik harakatlari, o'yin usullari) ni qo'llash orqali erishiladi. Tarbiyachi kuzatishlarni o'z hikoyasi hamda tushuntirishlari bilan to'ldiradi. Kuzatishda asosiy e'tibor jism va hodisalarni yaxshilab ko'rishga, ularni qiyoslashga, tabiat hodisalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga yordam beradigan savol va topshiriqlarga qaratiladi.

Kuzatish jarayonida hikoya, she'r va topishmoqlarni qo'llash foydalidir. Ekskursiya jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bunda og'zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish) ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi. Ekskursianing asosiy qismi tugagach, bolalarning individual mustaqil kuzatishlarga qiziqishlarini qondirish va tabiatshunoslikka oid materiallarni to'plash uchun imkoniyat berish zarur. Biroq material to'plash uchun topshiriq berishda, to'plangan material miqdorini qat'iy cheklash lozim, bu bolalar e'tiborini faqat ma'lum o'simlik va hayvonlarga qaratish va bundan tashqari tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalash uchun ham kerakdir. Bolalar mustaqil ishlayotgan vaqtida, tarbiyachi ham yordam berib turishi lozim. Ba'zan o'simlikni qanday kavlab olishni, quruq novdani qanday qirqishni va shu kabilarni ko'rsatib turishi kerak. Dam olish vaqtida to'plangan materiallar saralanadi, jildlarga, savatchalarga joylanadi, ba'zilaridan o'yin va mashqlarda foydalaniladi. Qishloq xo'jalik ekskursiyasi. Qishloq xo'jalik ekskursiyalari xilma-xildir: dala (yer haydash, ekish, hosil to'plash), o'tloq (mol boqish, hashak o'rish) bog', ekinzor, mevazor, ferma, botanika bog'i, issiqxona, parrandachilik fermasi va shu kabilarga ekskursiyalardir. Ekskursiya insonning tabiatga ta'sirini, ya'ni o'simliklarni o'stirishni va hayvonlarni boqishni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish imkonini beradi. Bu yerda bolalar asosiy mehnat jarayonlarining bir nechtasi bilan tanishadilar. Ekskursiyalarning o'ziga xosligi shundaki, bola inson faoliyatini ham, u ta'sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin. Qishloq xo'jalik obyektiga uyushtiriladigan ekskursiya suhbat bilan boshlanadi. Qishloq xo'jalik

ekskursiyalariga tayyorlanishda tarbiyachi kuzatish obyekti bilan oldin o'zi tanishadi, ekskursiya o'tkazish uchun ruxsat oladi, ekskursiya vaqt, bolalarning mehnatda qatnashishlari haqida kelishib oladi va bolalarning ma'lum ishda band bo'lgan kattalar bilan bo'ladigan suhbatining mazmunini belgilaydi. Ekskursiya yakunida mazkur obyekt ishi haqidagi taassurotlar umumlashtiriladi.

Ekskursiyadan keyingi ish. Ekskursiyada olingen bilimlar mashg'ulotlarda, o'yinlarda, tabiat burchagida o'tkaziladigan kuzatishlarda kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Ekskursiya vakunida to'plangan materiallarni tabiat burchagiga joylashtirish (masalan, o'simliklarni vazalarga, gul tuvaklarga solish, jonivorlarni akvarium, terrariumga, joylashtirish), o'simlik va hayvonlarni kuzatuv ostiga olish zarur. Ekskursiyadan 2-3 kun o'tgach, tarqatma material, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasaladi, tabiiy materiallardan foydalanib didaktik o'yinlar, mashg'ulotlar o'tkaziladi. Badiiy adabiyotlar o'qiladi, boialarning ekskursiyadan olgan taassurotlari haqidagi hikoyalari tinglanadi. Mashg'ulot yakunida umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi. Ekskursiyalari ma'lum tizimga muvofiq o'tkaziladi. Ularni tabiatda bo'ladigan mavsumiy o'zgarishlarga qarab ayni bir obyektning o'ziga yilning turli fasllarida uyshtirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, bahor mavsumida maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan vazifalarni asta-sekin murakkablashtirgan holda istirohat bog'iga 3 marta ekskursiya uyshtirish lozim.

Bu ekskursiyadan maqsad-bolalarmi bahorgi o'zgarishlar bilan tanishtirish, ulami ko'rish hamda tabiatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning sababini tushunish ko'nikmalarini o'stirishdir.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari.**

- 1.Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ta'lif shaklining mazmuni qanday tanlanadi?
- 2.Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida mashg'ulot (faoliyat) turlarini tasniflab bering.  
<sup>144</sup>
- 3.Mashg'ulotning bolalarmi maktabga tayyorlashdagi ahamiyati nimada?
- 4.Mashg'ulot jadvalini tuzishda nimaga e'tibor beriladi?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**

## **1. Tarbiyachi bolalarga ta’lim berishni qachon omalga oshiradi?**

- a) kun davomida
- b) kunduzi
- c) tushlikda

## **2. Mashg’ulotning tuzilishi:**

- a) bolalarni uyushtirish, asosiy qism yakunlovchi qism.
- b) umumiy va xulosa qismi
- c) Salomlashish va mustahkamlash

## **3. Mashg’ulotga tayyorlanishda nimaga etibor beriladi?**

- a) bolalar yoshini, imkoniyatini e’tiborga
- b) bolaga muhitdan o’tadigan biologik xususiyat va o’xshashliklarga
- c) bolaning vazniga

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. – T.: “O’zbekiston”, 2017.

2.Sh.M Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O’zbekiston”. – 2017.

3.Sh.M Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olajanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.:“O’zbekiston”, 2017.

4.Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonni

5.Sh.M Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr

6.O’zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O’RQ-637-son. “Ta’lim .to‘g‘risida”gi.23.09.2020.

7.O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam”davlat o’quv dasturi./Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent 2022yil.

8.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi.22.12.2020 yildagi 802-son.

9.F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Qayumova, N.M.Azamova “”Maktabgacha pedagogika.Darslik 2019 yil.

10.Yusupova P. Maktabgachatarbiyapedagogikasi. T.: O’qituvchi. 1993.

11.Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgachata`limpedagogikasi. T.:Ilmziyo. 2006.

12.Sh.A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari”T:. 2013

- 13.N.M.Qayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T:. 2013 y
- 14.F.Qodirova, Sh Tosho‘latova, M A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2013
- 15.Sh.Shodmonova. maktabgacha ta’lim pedagogikasi. fan va texnologiya. -T:, 2008.
- 16.Abdullaeva Sh A. va boshq.Pedagogika Toshkent., Fan nashriyoti.2004 y. 14.
- Zunnunov A., va boshqalar - «Pedagogika tarihi» oliv o’quv yurtlari uchun O’quv qo’llanma. – Toshkent, «SHarq» matbaa kontserni, 2000 yil.
17. Munavvarov A.K. «Pedagogika» tahriri ostida. Toshkent. «O’qituvchi».1996 y.
18. Tursunov I.Y. Nishonaliev U.N. «Pedagogika kursi» - Toshkent. O’qituvchi. 1997 y.

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1. Maktabgacha pedagogikaning predmeti va vazifalari.....</b>	<b>5</b>
<b>2. Maktabgacha ta’lim tarixi.....</b>	<b>12</b>
<b>3.O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’grisidagi qonuni”.....</b>	<b>40</b>
<b>4.Bo’lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish.</b>	
Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo’yiladigan talablar.....	58
5.Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta’lim tarbiyasi.....	68
6.Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.....	77
7.Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta’siri.....	95
8.Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi.....	103
9.Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyasi.....	118
10.“Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlarida ta’lim jarayonlarini tashkil qilish.....	129